

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI



Filologik ta'lif va innovatsiya

MODUL BO'YICHA

O'QUV-USLUBIY MAJMUA



TASHKENT 2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

FILOLOGIK TA’LIM VA INNOVATSIYA

moduli uchun

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Malaka oshirish kursi yo‘nalishi: O‘zbek tili va adabiyoti



Toshkent – 2025

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan olyi ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishlari o‘quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

Z. Mirzayeva – filologiya fanlari doktori

Taqrizchilar:

Q.Yo‘ldoshev -pedagogika fanlari doktori

B.To‘xliyev – filologiya fanlari nomzodi


Nejati Demir – filologiya fanlari doktori, professor Turkiya Istanbul universiteti

*Mazkur o‘quv-uslubiy majmua **Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining** qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2024-yil “29”noyabrdagi 4- sonli bayonnomasi).*

MUNDARIJA

T/r	Bo‘limlar	Sahifa
I.	ISHCHI O‘QUV DASTUR	5
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	16
III.	NAZARIY MASHG‘ULOT MAZMUNI	29
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI	90
V.	KEYSLAR BANKI	124
VI.	GLOSSARIY	126
VII.	ADABIYOTLAR RO‘YXATI	139
VIII.	TAQRIZ	142

I. ISHCHI O'QUV DASTUR



KIRISH

Ushbu ishchi dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzlucksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-son qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish

chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyuldagi 415-sodan Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliv ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiyligi malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz til, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalarini asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda, dasturda tinglovchilarining mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

“Filologik ta’lim va innovatsiya” deb nomlangan mazkur fan doirasida jahon adabiy ta’limidagi konstruktivizm, bixevorizm, gumanizm kabi yangicha yondashuvlar, badiiy tahliliga kulturologik yondashuv, badiiy tahlilda metatil tushunchasi, ta’limda integrativ yondashuv nazariyalarini, ta’limni individuallashtirish va personallashtirish masalalari, ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi, “talaba (o‘quvchi) – faol” yondashuvi, kitobxon javobi (retseptiv

estetika) nazariyasi, adabiy ta’lim va pragmatika, blum taksonomiyasi kabi yangi tushunchalar asosida shakllantirilgan metod, texnologiya va interfaol usullarning umumiy tavsiflari, mohiyati va ta’lim jarayonlaridagi o‘rni haqida ma’lumotlar beriladi. Juhon adabiy ta’limiga xos samarali yondashuvlarning milliy ta’limga tadbiqi masalasi, badiiy matn bilan ishlashning interfaol usullari, o‘zbek tili va adabiyoti fanlarini o‘qitishda xalqaro standartlarning o‘rni kabi masalalar ham mazkur fan doirasida o‘qitiladi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi tinglovchilarga filologik ta’limining ilmiy-nazariy asoslari, ta’limiy innovatsion yangiliklar, ularning sinovdan o‘tgan ilg‘or tajribalari haqida muayyan tushunchalar berish, konstruktivizm, ijtimoiy konstruktivizm, tranzaksiya, bixevorizm kabi ilg‘or nazariyalar haqida ma’lumotlar berish barobarida ularni milliy metodikada qo’llay olish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat.

O‘quv fanida quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi:

- tinglovchilarni o‘qitish va o‘rganishga bo‘lgan zamonaviy talablar bilan tanishtirish;
- xorij adabiy ta’limiga xos nazariyalar, yondashuvlar va ta’lim texnologiyalari haqida ma’lumotlar berish;
- milliy va global ta’lim asosini tashkil qiluvchi nazariyalarni qiyosiy aspektda o‘rganish;
- o‘qitishning ilg‘or tajribalari asosida tinglovchilarda ilmiy va jahoniy tafakkurni shakllantirish;
- zamonaviy yondashuvlarning jahon va milliy adabiy ta’limdagi o‘rni haqida ma’lumotlar berish;
- xalqaro standartlarni milliy ta’lim mohiyatiga singdirishga oid tajribalar bilan tanishtirish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Filologik ta’lim va innovatsiya” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida **tinglovchi**:

- oliy o‘quv yurtlarida adabiyot o‘qitishning maqsadi, vazifalari va mazmuni hamda ularni innovatsion yondashuv talablariga muvofiq takomillashtirish yo‘llarini;
 - ijtimoiy konstruktivizm nazariyasini;
 - ta’limda integrativ yondashuv nazariyalarini;
 - o‘zbek tili va adabiyoti fanlarini o‘qitishda xalqaro standartlarni;
 - adabiy ta’lim samaradorligini oshiradigan metod va yondashuvlarini;
 - filologik ta’lim va innovatsiya ta’limi doirasidagi konsepsiyalar, nazariyalarning ahamiyati, o‘qish va o‘rganish jarayonini tashkil etishning zamonaviy ilmiy-nazariy asoslariga doir **bilimga**;
 - badiiy asar tahliliga konstruktiv yondashish;
 - ta’limni individuallashtirish va personallashtirish;
 - talabalarni adabiyot saboqlarida kreativ fikrlashga o‘rgatish;
 - o‘qish strategiyalarini qo‘llash;
 - filologik ta’limdagi samarali nazariyalar, o‘qitish usullarini o‘z tajribasida qo‘llay olish **ko‘nikmalariga**;
 - o‘rganish uslublariga xos klassifikatsiyalarni baholash;
 - badiiy tahliliga kulturologik yondashuvni tahlil qilish;
 - badiiy tahlilda metatil tushunchasini ochib berish;
 - tranzaksiya nazariyasini tahlil qilish;
 - “talaba (o‘quvchi) – faol” yondashuvi, kitobxon javobi (retseptiv yestetika) nazariyasi istiqbollarini tahlil qilish;
 - adabiy ta’limga xos xalqaro standartlarni o‘z yo‘nalishlari doirasida tatbiq eta olish;
 - innovatsion o‘qitish usullari va metodlarini o‘z yo‘nalishlariga joriy qila olish **malakasiga**;
 - ta’limda integrativ yondashuv nazariyalarini baholash;
 - adabiy ta’lim va pragmatika, blum taksonomiyasi kabi yangi tushunchalar asosida shakllantirilgan metodni tahlil qilish;
 - texnologiya va interfaol usullarning umumiyl tavsifini ochish;

- o‘zbek tili va adabiyoti fanlarini o‘qitishda xalqaro standartlarni bilish va baholash ***kompetensiyalariga*** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Filologik ta’lim va innovatsiya” kursi ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalardan; o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlardan, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interfaol ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Filologik ta’lim va innovatsiya” moduli o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishidagi “Adabiyot o‘qitishni yangilash metodikasi”, “Ta’limda baholash nazariyasi va metodologiyasi” moduli o‘quv rejasidagi o‘zbek tili va adabiyoti ta’limidagi ilg‘or xorijiy tajribalar bilan bog‘liqlikda va uzviylikda o‘qitiladi.

Modulning oliv ta’limdagisi o‘rnini

“Filologik ta’lim va innovatsiya” modulini o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’limi rivojlangan mamlakatlarning o‘qitish asosini tashkil qilgan eng so‘nggi nazariyalar- konstruktivizm, bixevorizm, tranzaksiya nazariyalari va ularning o‘qitish samaradorligini oshirishga oid tadqiqot natijalari bilan tanishadilar, filologiya fanlarini o‘qitishning zamonaviy metodlari, usullari, ta’lim texnologiyalaridan, adabiy ta’limga konseptual yondashuvning eng muhim nazariy asoslardan xabardor bo‘ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Umumiy o'quv yuklamasi Soatlari			
		Jami	Auditoriya o'quv yuklamasi		
			Nazariy	Amaliy	Ko'chma mashg'ulot
1	Oliy o'quv yurtlarida adabiyot o'qitishning maqsadi, vazifalari va mazmuni hamda ularni innovatsion yondashuv talablariga muvofiq takomillashtirish yo'llari	2	2		
2	Jahon adabiy ta'limidagi konstruktivizm, bixevorizm, gumanizm kabi yangicha yondashuvlar	2	2		
3	Talabalarni adabiyot saboqlarida kreativ fikrlashga o'rgatish yo'llari	2	2		
4	Badiiy matn bilan ishlashning interfaol usullari.	2	2		
5	Filologlarda kreativ kompetentlilikni shakllantirish	2		2	
6	O'qish strategiyalari	2		2	
7	O'zbek tili va adabiyoti fanlarini o'qitishda xalqaro standartlar	2		2	
8	Badiiy asar tahliliga konstruktiv yondashuv	2		2	
Jami		16	8	8	

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Oliy o‘quv yurtlarida adabiyot o‘qitishning maqsadi, vazifalari va mazmuni hamda ularni innovatsion yondashuv talablariga muvofiq takomillashtirish yo‘llari.

O‘rganish uslublariga xos klassifikatsiyalar, badiiy tahliliga kulturologik yondashuv, badiiy tahlilda metatil tushunchasi, tranzaksiya nazariyasi, ta’limda integrativ yondashuv nazariyalari. Bo‘lajak filologlar har qanday badiiy matnga ijodiy yondashish yo‘llarini bilishi, badiiy bitikdagi sirdan ko‘zga tashlanib turmaydigan qirralarni topa va ularni ilmiy izohlay bilishlari lozim. Buning uchun talabalarda har bir narsaga ijodiy yondashish ko‘nikmasini shakllantirish lozim. Negaki, har qanday masalaga, har qanday yumushga ijodiy yondashilgandagina uning mohiyatini anglash mumkin bo‘ladi. Ayniqsa, avval boshdan qoliplarni buzishga tayaniladigan adabiyot o‘qitishda talabalardagi ijodkorlik birlamchi sifat bo‘lmog‘i kerak.

2-mavzu. Jahon adabiy ta’limidagi konstruktivizm, bixevorizm, gumanizm kabi yangicha yondashuvlar

O‘rganish uslublariga xos klassifikatsiyalar, badiiy tahliliga kulturologik yondashuv, badiiy tahlilda metatil tushunchasi, tranzaksiya nazariyasi, ta’limda integrativ yondashuv nazariyalari, ta’limni individuallashtirish va personallashtirish masalalari, ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi, “talaba (o‘quvchi) – faol” yondashuvi, kitobxon javobi (retseptiv estetika) nazariyasi, adabiy ta’lim va pragmatika, blum taksonomiyasi kabi yangi tushunchalar asosida shakllantirilgan metod, texnologiya va interfaol usullarning umumiyligi tavsifi. Jahon adabiy ta’limida ijodkorlik, faollik, yaratuvchanlik, tanqidiy va ijodiy fikrlash, mustaqil faoliyat olib borish kabi konseptual masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuvlar asosini jahoning ilg‘or, vaqt tajribasidan o‘tgan konstruktivizm, bixevorizm, tranzaksiya nazariyasi, integrativ yondashuv nazariyalari tashkil etadi. Ta’lim jarayonlarini individuallashtirish, personallashtirish, adabiyot davrslarida talaba faolligini oshirish kabi masalalar ham bugungi global ta’limga oid tadqiqotlarning eng muhim tadqiq ob’ektlaridan

biriga aylangan. “Adabiy ta’limga konseptual yondashuvning nazariy asoslari” mavzusi doirasida tinglovchilar yuqorida qayd etilgan yangi tushunchalar, texnologiya va interfaol usullarning umumiyligi tavsifi haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.

3-mavzu. Talabalarni adabiyot saboqlarida kreativ fikrlashga o‘rgatish yo‘llari

O‘rganish uslublariga xos klassifikatsiyalar, badiiy tahliliga kulturologik yondashuv, badiiy tahlilda metatil tushunchasi, tranzaksiya nazariyasi, ta’limda integrativ yondashuv nazariyalari. Adabiyot o‘qitish samaradorligiga yerishishda talabalarning badiiy asarni tahlil qilish kompetentliliginini ta’minlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Negaki, bo‘lajak filolog uchun har qanday badiiy matn mohiyatiga kirish, uning yozilgan va tekshirilayotgan vaqtdagi hayotiy hamda badiiy mantig‘i va estetik jozibasini ochishga qaratilgan hissiy-intellektual faoliyat ko‘rsata bilish Oliy ta’lim olish kechimidagi eng muhim natijadir.

4-mavzu. Badiiy matn bilan ishlashning interfaol usullari

Ta’limni individuallashtirish va personallashtirish masalalari, ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi, “talaba (o‘quvchi) – faol” yondashuvi, kitobxon javobi (retseptiv yestetika) nazariyasi. Interfaol metodlardan foydalanish ta’limni faqat fanlar asosida emas, balki obyektiv ochunning o‘zidagi kabi sinkretik yo‘sinda tashkil etishni ko‘zda tutadi. Bunda o‘rganuvchi va o‘rgattuvchi o‘quv fani tushunchasidan baland turishi talab etiladi. O‘qituvchi-professor talabalar oldiga ularni o‘rab turgan real borliqdagi haqiqiy muammolarni qo‘yishi, buning uchun hayotda ko‘p uchraydigan va manbalardan topish mumkin bo‘lgan masalalarni didaktik topshiriq sifatida berishi kerak. Agar bu xildagi muammolarni talabalarning o‘zлari tavsiya etsalar, yanada yaxshi bo‘ladi. O‘quvchilarning oldiga qo‘yilayotgan muammo o‘ylab topilgan sun’iy yoki izlanishga arzimaydigan darajada kichik bo‘lmasligi kerak.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mashg‘ulot. Filoglarda kreativ kompetentlilikni shakllantirish

Adabiy ta’lim va pragmatika. Tranzaksiya, (kitobxon javobi) nazariyasi muallif, asar va kitobxon munosabatlariga, muayyan badiiy matnni estetik – emotsiyal qabul qilishning psixologik asoslarini kuzatish orqali har bir o‘rganuvchi (kitobxon)ga xos individual sezgilarni kashf qilishga qaratiladi. Bunda adabiyotga ijro san’ati sifatida qaralib, har bir o‘quvchi mutolaa tajribasi, dunyoqarashi, tafakkur sarhadi va hayotiy tajribasiga tayanib badiiy asarning yozilmagan qismlarini yaratadi. “Kitobxon javobi” asosini- mutolaa passiv emas, balki faol jarayon ekanligini isbotlashga qaratilgan nazariy qarashlar tashkil etadi.

“Tranzaksiya (kitobxon javobi) nazariyasi va uning adabiy ta’limga tadbiqi” mavzusi doirasida tinglovchilar mazkur nazariyaning adabiyot darslariga tadbiqi bilan bog‘liq amaliy tavsiyalarga ham ega bo‘ladilar.

2-mashg‘ulot. O‘qish strategiyalari

Blum taksonomiysi kabi yangi tushunchalar asosida shakllantirilgan metod, texnologiya va interfaol usullarning umumiyligi tavsifi. Kreativlikning bir qator ko‘rinishlari mavjud: filologik kreativlik; pedagogikpsixologik kreativlik; kulturologik kreativlik va bq. Talabalardagi ijodiy yondashuvning bu turlari filolog-mutaxassisning ham badiiy matnga, ham unda aks etgan badiiy voqelikka, ham estetik tovarning iste’molchisiga xos jihatlarni hisobga ola biladigan soha egalari tarzida shakllanish imkonini beradi.

Badiiy asar konkret subyekt tomonidan noma’lum subyektlar uchun yoziladi. Har bir subyekt esa muayyan ijtimoiy va milliy qatlamga mansub bo‘ladi. Bu xil mansublik subyektning tasvirni amalga oshirish tarzida ham, badiiy tasvirni idrok etish va undan ta’sirlanish yo‘sindan ham namoyon bo‘ladiki, bu hol badiiy asar tahlilida ko‘zda tutilmasa, tahlil ilmiy ahamiyat kasb etmay, yuzaki bo‘lib qoladi.

3-mashg‘ulot. O‘zbek tili va adabiyoti fanlarini o‘qitishda xalqaro standartlar

“Milliy va xorij adabiy ta’limining qiyosiy tahlili” mavzusi orqali tinglovchilar OTM va umumo‘rta ta’lim tizimida milliy va jahon adabiy ta’limining mazmuni, ilmiy-metodologik asoslari, o‘quv dasturlaridan tortib

o‘qitish usullarigacha bo‘lgan jarayonlarning tanqidiy tahlili bilan tanishadilar. Tinglovchilarni an’anaviy va konstruktivizim ta’limga xos yondashuvlarning individual xususiyatlari, jahon adabiy ta’limining taraqqiyoti, o‘qitishning xalqaro standartlari kabi masalalar bilan tanishtirish ham mazkur kurs maqsadiga kiradi.

4-mashg‘ulot. Badiiy asar tahliliga konstruktiv yondashuv

Bugun adabiyot o‘qitish metodiksiga kechagi mezonlar asosida yondashib bo‘lmaydi. Xususan, zamonaviy o‘zbek adabiyoti ham shakl, ham mazmun jihatdan rivojlanib, sharq va g‘arb adabiy tafakkuri, tajribasiga asoslangan o‘ziga xos badiiy asar namunalari yaratilmoqda. Bunday asarlar mohiyatini turli xil rakurslardan tahlil qilish, san’at darajasiga olib chiqish uchun endi ta’limning an’anaviy qarashlaridan tashqari, jahon adabiy ta’limining ibratli nazariyalari asosida shakllangan “mavzuga asoslangan” yondashuv, “talaba faol” yondashuvi, “yeklektik” yondashuvlardan foydalanib milliy adabiy ta’limni yuqori bosqichga olib chiqish lozim.

Tinglovchilar “Adabiyot o‘qitishga sinkretik yondashuv” mavzusi orqali jahon adabiy ta’limiga xos sinkretik yondashuvlarning milliy ta’limga tadbiq etish tajribasiga ega bo‘ladilar.

O‘QITISH SHAKLLARI

Ushbu modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- masofadan o‘qitish;
- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ta’lim texnologiyalarini anglab olish, nazariy bilimlarni amaliyatga qo‘llash);
- suhbatlar orqali tinglovchida muayyan muammoga munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirish, unda adabiy ta’limga doir masalani eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish xususiyatini qaror topdirish;
- tinglovchilarni bahs-munozaralar paytida muammolar yechimi bo‘yicha dalil va asosli argumentlar taqdim qilishga, o‘z fikrini asoslashga o‘rgatish.

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI



“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S (strength)	- kuchli tomonlari
W (weakness)	- zaif, kuchsiz tomonlari
O (opportunity)	- imkoniyatlari
T (threat)	- to‘siqlar

Namuna: Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlil imkoniyatlarini jadvalga tushiring.

S	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlilning kuchli tomonlari.	Maksimal aniqlik bilan har tomonlama xolis xulosa chiqarishi.
W	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlilning kuchsiz tomonlari.	Badiiy matndagi tuyg‘ular tahlilini to‘la amalga oshirib bo‘lmaydi.
O	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlil (ichki) imkoniyatlari.	Shakl va mundarijaning har bir komponentlarini jiddiy mikrotahlildan o‘tkaziladi.
T	To‘siqlar (tashqi).	Struktural poetika bo‘yicha tinglovchilarning nazariy bilimlari yetishmasligi.

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalgalash tartibi:



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallari tarqatadi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Namuna:

Badiiy tahlil tizimlari					
Germenevtik tahlil (talqin)		Struktural (tarkibiy) tahlil		Lisoniy tahlil	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“Keys-stadi” metodi

“Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audiovizual harakat; ✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili;

	✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘sirlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys. Kichikroq badiiy (she’riy) matnni tahlil qilish uchun ko‘rsatkich ishlab chiqiladi, mazkur metodning ijobjiy va salbiy tomonlari qiyoslanadi va xulosa chiqariladi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

“FSMU” metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiylardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uygaz vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

F	- fikringizni bayon eting
S	- fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating
M	- ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
U	- fikringizni umumlashtiring

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna:Fikr: “Struktural tahlil asosida mavjud matnni mantiqan qismlarga ajratish va uni yig‘ish yotadi”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o’zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mayjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o’zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘srimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna: Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



“Struktura” deganda nimani tushunasiz?

- A. Yunoncha so‘z bo‘lib, tarkib ma’nosini anglatadi.
- B. Inglizcha so‘z bo‘lib, tahlil ma’nosini anglatadi.
- C. Yunoncha so‘z bo‘lib, talqin degan ma’noni anglatadi.
- D. Lotincha so‘z bo‘lib, badiiy asar matnini anglatadi.



“Struktural tahlil” qanday tahlil turi?

- A. “Struktural tahlil” badiiy tahlil turi.
- B. “Struktural tahlil” ilmiy tahlil turi.
- C. “Struktural tahlil” tanqidiy tahlil turi.
- D. “Struktural tahlil” badiiy asarni tarkilash orqali tahlil qilishdir.



“Struktural metod”ning lug‘aviy ma’nosini bilasizmi?

- A. “Struktura – tarkib”, “metod - fan yo‘nalishi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi.
- B. “Struktura - tarkib”, “metod – ijod turi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi
- C. “Struktura – tahlil”, “metod - fan yo‘nalishi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi.
- D. “Struktura - talqin”, “metod – ilmiy izlanish” kabi lug‘aviy ma`no beradi.



Badiiy matn ilmiy matndan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?

- A. Badiiy matn obraz yaratish orqali shakllanriladi, ilmiy matnda tushuncha va atamalar asosida fikr yuritiladi.
- B. Badiiy matn roman va hikoyalar matni, ilmiy matn esa dissertatsiyadir.
- C. Badiiy matn ijodiy tasavvur orqali yaratiladi, ilmiy matn ilmiy tafakkur asosiga quriladi.
- D. Badiiy matn vazn va qofiyaga asoslanadi.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini

mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo’llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘gri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna:

“Moduldagи tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchala r	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo’shimcha ma’lumot
Badiiy matn	Nobadiiy matndan hissiy-impressiv va nutqning bo‘yoqdorligi va obrazli tafakkur bilan farq qiladi	
Struktur a	Tarkib. Badiiy matn tarkibi (qurilishi), uning qismlarga ajratib tahlil qilish	
Badiiy timsol (obraz)	Aniq va shu bilan birga umumlashtirish xarakteriga ega bo‘lgan badiiy manzara yoki siymo yaratish	
Adabiy tur	Matnni ifoda xususiyatiga ko‘ra farqlash	
Adabiy janr	O‘z ifoda shakliga, vazn birliklariga va qofiyalanish tizimiga ega bo‘lgan mustaqil shakliy ifodalanish	
Ritm, Ritmika	Bir maromda takrorlanib turuvchi nutqiy harakat va uni o‘rganuvchi soha	

Uslub	Muallif ijodining yoki badiiy matnning bektakror o‘ziga xosligi	
-------	---	--

Izoh: Ikkinchı ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘sishma ma’lumot glossariyda keltirilgan.


“Venn diagrammasi” metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna: Ifoda shakllari bo‘yicha (she’riy va nasriy nutq).



“Blits-o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.


Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.
2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.
3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni “to‘g‘ri javob” bo‘limiga yozish so‘raladi.
4. “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan “yakka baho” bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo‘lsa “0”, mos kelsa “1” ball qo‘yish so‘raladi. Shundan so‘ng “yakka xato” bo‘limidagi farqlar yuqoridaan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.
5. Xuddi shu tartibda “to‘g‘ri javob” va “guruh bahosi” o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo‘limiga yozib, yuqoridaan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.
7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

Struktural tahlil ketma–ketligini aniqlash. O‘zingizni tekshirib ko‘ring!

Harakatlar mazmuni	Yakka baho	Yakka xato	To‘g‘ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
Matnning tashqi strukturasi					
Matnning ichki qurilishi					
Matnni o‘z yozuvida o‘qish tajribasi					
Matnni o‘z tilida o‘qib tushunish (lug‘at va izoh)					
Matn qismlarining dastlabki talqini					
Qismlarga ajratilib tahlil qilingan matnning mantiqiy butunligi					




Grafik organayzer talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan

muayyan bo'lim yoki boblar bo'yich yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Uni qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

- 1 • Talabalar ikki guruhga bo'linadi
- 2 • Yozuv taxtasiga topshiriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi
- 3 • Har bir guruhga o'zlashtirilayotgan mavzu (bo'lim, bob) yuzasidan alohida topshiriq beriladi
- 4 • Topshiriqlar bajarilgach, guruh a'zolari orasidan liderlar tanlanadi
- 5 • Liderlar guruh a'zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, yozuv taxtasida aks etgan diagrammani to'ldiradi



III.NAZARIY MASHG'ULOT MAZMUNI



1-MAVZU:

OLIY O'QUV YURTLARIDA ADABIYOT O'QITISHNING MAQSADI, VAZIFALARI VA MAZMUNI HAMDA ULARNI INNOVATSION YONDASHUV TALABLARIGA MUVOFIQ TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

REJA:

- 1. Professor-o'qituvchi va talabalar pedagogik hamkorligining tarixiy taraqqiyot yo'li*
- 2. Pedagogik hamkorlikni tashkil etishning yangi tendensiyalari*
- 3. Interfaol usullar – ta'limiylar sherkilikning puxta ko'rinishi*
- 4. Interfaol usullarning asosiy tamoyillari*

Tayanch tushunchalar: *Pedagogik falsafa, transmissiya, transformatsiya, transaksiya, interfaol, kichik guruhlar, jismoniy tafakkur, hissiy tafakkur, pedagogik hamkorlik.*

O'rganish uslublariga xos klassifikatsiyalar, badiiy tahliliga kulturologik yondashuv, badiiy tahlilda metatil tushunchasi, tranzaksiya nazariyasi, ta'limda integrativ yondashuv nazariyalari. Bo'lajak filologlar har qanday badiiy matnga ijodiy yondashish yo'llarini bilishi, badiiy bitikdagi sirtdan ko'zga tashlanib turmaydigan qirralarni topa va ularni ilmiy izohlay bilishlari lozim. Buning uchun talabalarda har bir narsaga ijodiy yondashish ko'nikmasini shakllantirish lozim. Negaki, har qanday masalaga, har qanday yumushga ijodiy yondashilgandagina uning mohiyatini anglash mumkin bo'ladi. Ayniqsa, avval boshdan qoliplarni buzishga tayaniladigan adabiyot o'qitishda talabalardagi ijodkorlik birlamchi sifat bo'lmog'i kerak.

Professor-o'qituvchi va talabalar pedagogik hamkorligining tarixiy taraqqiyot yo'li. Insoniyat tarixi bilan teng bo'lgan pedagogik amaliyot,

umumlashtirib olganda, uch asosiy yondashuv asosida uyushtirilib kelinadi. Bu yondashuvar pedagogika ilmida transmissiya, transformatsiya, transaksiya tarzida nomlanadi. Qo’shma so‘zlardan iborat bu atamalardagi dastlabki trans so‘zi lotincha bo‘lib, “orqali”, “orqali o‘tish”, “vositasida o‘tish” ma’nolarini anglatadi.

Ta’limni **transmissiya** falsafasi asosida tashkil etish g‘oyat uzoq davom etib, insoniyat tajribasi va fanning taraqqiyoti ko‘proq **empirik** xarakterda bo‘lgan davrlarni o‘z ichiga oladi. Bu falsafiy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’limda o‘quvchilar o‘qituvchi bergen bilimlarni o‘zlashtiradilar. Bu davrda insoniyat o‘zlashtirigan bilimlarning o‘zi ancha kam va soddaroq bo‘lganligi sababi o‘qituvchi ularni o‘ziga singdirgan kam sonli odamlardan biri sifatida bilganlarini o‘quvchilariga tushunarli yo‘sinda uzatganlar. Bunda o‘qituvchi – **subyekt**, o‘quvchi – **obyekt**, maqsad – **bilim berish** bo‘ladi.

Insoniyat egallagan bilimlar miqdori nisbatan ko‘payib, ularni yosh avlodga o‘zgarishsiz o‘rgatish imkonsiz bo‘lib qolgach, ta’lim kechimi **transformatsiya** falsafiy yo‘nalishi asosida tashkil etiladigan bo‘ldi. Bunda o‘qituvchi u yoki bu fanning o‘zini emas, balki uning asoslarini o‘rgatishga yo‘naltirildi. Chunki bu bosqichda fan juda rivojlanganligi uchun o‘quvchilarning uni to‘liq egallab olishlari mumkin emas edi. Shundan kelib chiqib, o‘qituvchi transformator vazifasini o‘tar, ya’ni muayyan fanning asosiy mohiyati bilan o‘quvchining intellektual imkoniyatini bir-biriga moslashtiriga urinardi. E’tibor qilingan bo‘lsa, har ikki holatda ham o‘qituvchi ta’lim jarayonining subyekti bo‘lib, bilim bosh qadriyat hisoblanadi. Bu falsafiy yondashuvar asosida tashkil etilgan ta’limda asosan xotirani mustahkamlashga zo‘r berilib, o‘quvchi miyasining chap yarim sharini rivojlantirish ko‘zda tutiladi. Bu yondashuvda ham o‘qituvchi – **subyekt**, o‘quvchi – **obyekt**, maqsad – **bilim berish** bo‘ladi.

Hozirgi o‘qitish kechimi uchun o‘qituvchining aytganlarinigina eslab qoladigan yoshlarni tayyorlash yetarli bo‘lmay qoldi. Chunki har qanday kuchli xotira ham cheksiz ochundagi beedad hodisalarining barchasini qamrab ololmaydi. Buning ustiga, xotira yordamida o‘zlashtirilgan bilimlar faqat standart

vaziyatlardagina foydalanishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Notanish vaziyatga duch kelinsa, mashaqqat bilan o‘zlashtirilgan bu bilimlar hech narsaga yaramay qoladi. Ma’lumki, tiriklik hech qanday standartu qolipga tushmaydigan darajada rang-barangdir. Shuning uchun yosh avlodni mustaqil izlanadigan, nostandard vaziyatlarda eng maqbul va original qarorlar qabul eta oladigan qilib tarbiyalash kun tartibiga chiqdi.

Fan va texnika taraqqiyotining zamonaviy darajasi va inson ruhiyatining hozirgi holati o‘qitish kechimining o‘zgacha falsafiy yo‘nalish asosida tashkil etilishini taqozo etdi. Ana shu zaruriyatning natijasi o‘laroq **transaksiya** falsafasi paydo bo‘ldi. Bunga ko‘ra, ta’limning mazmuni o‘quvchilarning o‘z xatti-harakatlari, intilishlari natijasida o‘zlashtirilishi ko‘zda tutiladi. Ya’ni bu falsafiy yo‘nalishda o‘quvchi shaxsini shakllantirish ta’lim kechimining **bosh qadriyati** va o‘qitish jarayonini o‘qituvchi bilan birgalikda amalga oshiradigan **subyekt** maqomida bo‘lishi lozim deb hisoblanadi. Negaki, bu davrga kelib ilm shu qadar rivojlanib ketdiki, endi o‘quvchilarga ularning asoslarini o‘rgatish ham mumkin bo‘lmay qoldi.

Pedagogik hamkorlikni tashkil etishning yangi tendensiyalari. Ilm-u fanning tezkor taraqqiyoti oldinlari xayolga ham kelmagan bir qator muammolarni paydo qildi. Chunonchi, o‘quvchilarga qaysi fan asoslarini, qancha miqdorda, qachon va qay tartibda o‘rgatish kerakligi masalasini hal etish mushkul bo‘lib qoldi. Mabodo, bu muammo hal etilguday bo‘lsa ham har bir o‘quvchining bularni o‘zlashtirishi zarurmi degan inson huquqi bilan bog‘liq savol ham ko‘ndalang qo‘yiladigan bo‘ldi.

Transaksiya falsafasi olamni har bir odam o‘zi mustaqil, o‘z nazari bilan ko‘rgani kabi uni o‘z kuchi bilan o‘rganishi ham kerak deb hisoblaydi. Bu falsafiy yo‘nalish olamga o‘quv predmeti nuqtai nazari bilan qarashni rad etadi. U olam hodisalarini butunicha, yaxlit o‘zlashtirish mumkin deb qaraydi va buning uchun o‘sha hodisalarini anglatadigan ilmiy qonuniyatlarni didaktik jihatdan hazm qilish mumkin bo‘lgan holatda taqdim etish lozim deb biladi.

Ana shunday falsafiy yondashuv tufayli bugunga kelib butun dunyo miqiyosida ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirish jarayoni kechmoqda. Amerika olimlarining bilimlarni o‘zlashtirish borasida olib borgan keyingi tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, bugunga kunda dunyoni bildirishi jihatidan o‘qituvchi, ya’ni maktab **oila, axborot vositalari** va **muhitdan** keyingi **to‘rtinchi o‘ringa** tushib qolgan. Olamdagi har bir ilmning bo‘yiga chuqurlashib, eniga kengayishi shu darajaga yetdiki, bir kishi fanning kichik bir sohasini ham to‘liq o‘zlashtirib olishi mumkin bo‘lmay qoldi.

Jamiyat a’zolari ma’rifat darajasining o‘sishi natijasida oilaning ichki imkoniyatlari ortib ketdi. Deyarli har bir o‘tboshi (oila) o‘z bolalariga mustaqil ravishda ma’lum darajada bilim bera oladigan darajaga yetdi. Axborotlar oqimi miqiyosining behad kengayishi axborot vositalarining ko‘payishiga olib keldi. Taraqqiyot esa, bu tiyiqsiz axborotlar oqimidan keraklilarini o‘zlashtirib olishning g‘oyat qulay texnik vositalarini yaratdi. Odamlarning umumiyl intellektual saviyasi ochun miqiyosida sezilarli yuksaldi. Bu isonlarning bir-birlariga ko‘rsatadigan o‘zaro ma’rifiy ta’siri darajasini ortirdi. Natijada, o‘qituvchi oldingiday ma’rifat osmonida chaqnagan yolg‘iz yorug‘ yulduz bo‘lolmay qoldi.

Agar oldinlari butun ta’lim tizimi o‘quvchi miyasining chap yarim sharini, ya’ni xotirasini kuchaytirishga yo‘naltirilgan va bu shaxs hamda jamiyat taraqqiyoti uchun kifoya qilgan bo‘lsa, bugungi kunda xotira uchun ishlash shaxs shakllanishi uchun ham, jamiyatning o‘sishi uchun ham yetarli bo‘lmay qoldi. Inson xotirasining o‘rmini bosa oladigan shunday texnik vositalar yaratildiki, odam istagan paytda o‘zini zo‘rlab o‘tirmay, juda ko‘p narsalarni esiga tushirish imkoniga ega bo‘ldi. Endi mavjud imkoniyatlardan ezgu maqsadlar yo‘lida to‘g‘ri foydalana oladigan, hamisha nimanidir o‘rganishga ichki ehtiyoj sezadigan va buning samarali yo‘llarini izlaydigan kishilarni shakllantirish zaruriyati yuzaga keldi. Davr bilim berish, bolalarda muayyan ko‘nikma va malakalar shakllantirishning o‘zgacharoq yo‘llarini topishni talab etmoqda.

Ta’lim tizimi va uni yo‘lga qo‘yish borasidagi shu xil yangilanishlar keyingi vaqtarda ochun miqiyosida keng yoyilib borayotgan **interfaol metodlarning** yuzaga kelishini taqozo etdi. Interfaol usullar mustaqil fikrlaydigan, izlanadigan o‘quvchilarni shakllantirish imkoniga egaligi bilan e’tiborga loyiqidir. Ta’limning bu usullari o‘qitish jarayonining asosiy og‘irligi o‘quvchilarning zimmasiga ortilishini, o‘quvchilar ta’limning obyekti emas, balki subyekti, ya’ni ijrochisi bo‘lishini taqozo qiladi. Interfaol metodlarning negizida o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning, hamda o‘quvchilar bilan o‘quvchilarning o‘zaro sheriklikdagi faoliyat ko‘rsatishi yotadi. “Interfaol” atamasi lotincha “*inter akt*” so‘z birikmasidan olingan bo‘lib, “**inter**” – o‘zaro va “**akt**” – faoliyat ma’nolarini anglatadi¹. Ya’ni interfaol metodlar ta’lim mazmunining to‘liq o‘zlashtirilishida o‘quvchilarning o‘zaro bir-birlari va o‘qituvchilari bilan bиргаликда faoliyat ko‘rsatishlarini tashkil etishga qaratiladi. Bu metodlar o‘quvchilarning faolligi, mustaqil izlanishi, o‘zlashtiriladigan ma’lumotlarga ijodiy yondashishini ko‘zda tutadi.

Interfaol metodlar ta’lim kechimida qatnashayotgan har bir o‘quvchining faolligiga tayanadi. Bunda o‘qish talaba uchun qiziqarli va zarur faoliyatga aylanadi. Interfaol usullardan foydalanilganda, talabalar o‘qitilmaydi, balki o‘qituvchi-professor bilan bиргаликда muayyan yo‘nalish va miqdordagi adabiy bilimlarni ularning o‘zları egallashadi. Bu hol talabalarda mustaqil izlanishga rag‘bat paydo qiladi. Bunday yo‘sinda uyushtirilgan ta’lim kechimining qatnashchilari o‘zaro bemalol bahslashadilar, materialni o‘zlashtirishni o‘zları xohlaganiday erkin amalga oshirishadi. O‘quv topshiriqlarining alohida talabaga emas, balki kichik guruhlardagi barcha talabalarga berilishi ularda jamoa tuyg‘usini shakllantirib, tashabbuskorligi ortuviga olib keladi.

Interfaol metodlardan foydalanish o‘quv mashg‘ulotlarini qiziqarli qiladi. Lekin ta’lim kechimi uchun qiziqarlilikning o‘zi maqsad bo‘lmaydi. U – vosita,

¹ Словарь иностранных слов. –М.: «Русский язык», 1979. С-23; С-198.

xolos. Interfaol usullar, barcha ilg‘or metodlar kabi kamroq kuch va resurs sarflab, kattaroq didaktik natijaga erishishga qaratiladi.

Interfaol usullar – ta’limiy sheriklikning puxta ko‘rinishi. Interfaol metodlar negizida transaksiya pedagogik falsafasining **konstruktivizm** yo‘nalishi yotadi. Konstruktivizm keyingi qirq yil davomida ochun pedagogika ilmida ham nazariy qarash, ham amaliy yo‘nalish sifatida keng yoyildi. Bu ilmiy dunyoqarash o‘z nomini lotincha “**constructio**” – “qurilma”, “qurilish” so‘zlaridan olgan bo‘lib, unga ko‘ra o‘qish talabalarning aqliy faoliyatlari natijasida bilimlar konstruksiya qilinadigan, ya’ni muayyan aqliy qurilma holiga keltiriladigan jarayondir. Minglab yillik pedagogik amaliyot hech kim hech kimni o‘qitolmasligini ko‘rsatdi. Ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir shaxsning o‘zi o‘qishga intiladi va erishiladigan ta’limiy natija uning intilish darajasiga mutanosib bo‘ladi.

Konstruktivistik qarashlarning yuzaga kelishiga shvesariyalik mashhur faylasuf va pedagog Jan Piaje bilan birgalikda zamonaviy amerika pedagogikasining otasi Djon Dyui, taniqli rus psixologi L. S. Vigotskiy, amerikalik psixolog Benjamin Blum kabi olimlar jiddiy ta’sir ko‘rsatganlar. Bu yondashuvning o‘zagida **Jan Piajening**: “...*talaba o‘z intellektining me’moridir*”, - degan qarashi yotadi. Bu qarashga ko‘ra o‘qitish faol kechim bo‘lib, har bir kishi yangi bilimlarni oldin orttirgan tajribalari ustiga o‘zi “quradi”. Chindan ham hayotda har bir odam hech kimdan tayyor g‘oyani olmaydi, balki hamisha o‘z g‘oyasini yaratadi. Shuning uchun ham dunyodagi har bir odam ayni bir narsani turlicha qabul qiladi. Har bir odam umri davomida atrof olam haqidagi tasavvurlarini o‘ziga xos yo‘sinda “quradi” va dunyoni o‘zi qurbaniday anglaydi. Aynan shu bois har bir odam o‘ziga xos dunyoqarashga, e’tiqodga ega bo‘ladi va shunisi bilan betakror hamda qimmatli sanaladi. Boshqalarnikiga o‘xshamaydigan qarashlarning e’tiborga sazovorligi, o‘z qiyofasi va uslubiga ega odamning qadr topishi sababi shundadir.

Konstruktivizm odamga bilim tayyor holda berilmaydi degan o‘zak qarashga tayanadi. Kishiga hech kim bilim bermaydi, balki u bilimlarni egallash uchun o‘zi

harakat qiladi, intiladi. Ta’lim muhiti esa, faqat odamlarga bilimlarni mustaqil ravishda egallah va ko‘paytirish uchun zarur *sharoit yaratib berishi* kerak.

Konstruktivizm o‘rganuvchining nuqtai nazari, qarashlari qanchalik “xom” va ibtidoiy bo‘lishiga qaramay, o‘qitish kechimiga asos qilib olinishini talab etadi. J. Piajening fikriga ko‘ra, odamda oldin shakllangan mavjud ichki bilimlar bilan tashqi dunyo noma'lumligi orasidagi ziddiyatning bartaraf etilishi yangi bilimlar “qurilmasini” yuzaga keltiradi.

Konstruktivizm haqiqatga erishish kechimini haqiqatning o‘zidan ko‘ra qimmatroq deb biladigan pedagogik falsafadir. Shuning uchun ham interfaol metodlarda *erishilgan didaktik natijadan ko‘ra, unga kelish yo‘li, talabalarning bu kechimdagи izlanishlari, tashabbus ko‘rsatishlari muhim sanaladi*. “*Ilmiy bilim turg‘un hodisa bo‘lmay, tinimsiz qurish va qayta qurishdan iborat kechimdir*”, - deydi Jan Piaje. Chindan ham ta’limning biror yo‘nalishi ma’lum nuqtaga yetgach, to‘xtab qolmaydi, balki uzlusiz ravishda yangi marralar sari intilishlar tizimidan iborat bo‘ladi.

Interfaol metodlarni qo‘llash natijasida domlaning vazifa va maqomi bir qadar o‘zgaradi. Interfaol metodlardan foydalanilganda domla shunchaki dars beruvchi emas, balki tinglovchi uchun maslahatchi, tashkilotchi va muvofiqlashtiruvchidir. U o‘rganuvchining mustaqil aqliy faoliyat ko‘rsatishiga sharoit yaratib, uning tashabbuskorligini har tomonlama qo‘llaydi. O‘rganuvchi ta’lim kechimi va unda erishiladigan natija uchun javobgar bo‘lgan to‘laqonli “sherik”ka aylanadi.

Interfaol metodlardan foydalanish ta’limni faqat fanlar asosida emas, balki obyektiv ochunning o‘zidagi kabi sinkretik yo‘sinda tashkil etishni ko‘zda tutadi. Bunda o‘rganuvchi va o‘rgattuvchi o‘quv fani tushunchasidan baland turishi talab etiladi. O‘qituvchi-professor talabalar oldiga ularni o‘rab turgan real borliqdagi haqiqiy muammolarni qo‘yishi, buning uchun hayotda ko‘p uchraydigan va manbalardan topish mumkin bo‘lgan masalalarni didaktik topshiriq sifatida berishi kerak. Agar bu xildagi muammolarni talabalarning o‘zлари tavsiya etsalar, yanada

yaxshi bo‘ladi. O‘quvchilarning oldiga qo‘yilayotgan muammo o‘ylab topilgan sun’iy yoki izlanishga arzimaydigan darajada kichik bo‘lmasligi kerak.

Interfaol metodlarni qo‘llayotgan o‘qituvchi-professor biror dars yuzasidan talabalarga topshiriq berayotganda talabani faoliyatga undovchi tasniflang, asoslang, tadqiq eting, umumlashtiring, tahlil qiling, andaza bering (modellashtiring), tashxis qo‘ying, baho bering kabi so‘zlarni qo‘llagani maqsadga muvofiq. Ta’lim kechimiga bu xilda aniq vazifalar qo‘yish talabalarni izlanishga, faoliyat ko‘rsatishga yo‘naltiradi.

O‘z tajribasida interfaol usullarni qo‘llayotgan o‘qituvchi-professor qaramaqarshi nuqtai nazarlarni bir-biriga to‘qnashtirish orqali talabalarda tanqidiy tafakkur shakllanishiga sharoit yaratishni ko‘zda tutishi kerak. Shunda talabalarda o‘z qarashlarini himoya qilish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi va o‘zgalarning fikriga tezlik bilan qarshi dalillar keltirish, birovning xulosasidagi ojiz joylarni darhol topa olish kabi sifatlar shakllanadi. Interfaol metodlardan foydalanish o‘qituvchi-professordan o‘rinli berilgan aqli savollarni qadrlashni, bitta aqli savolni o‘nlab to‘g‘ri, ammo jo‘n javoblardan ustun qo‘yishni talab qiladi. Shunday qilinsa, talabalarda chuqur va kerakli savollar berishga ichki ehtiyoj, intilish paydo bo‘ladi. Interfaol metodlardan foydalanayotgan o‘qituvchi-professor talabalar oldiga muammo qo‘yanidan keyin talabalarga muammo ustida chuqurroq o‘ylash imkonini bera bilishi lozim.

Interfaol usullarning asosiy tamoyillari. O‘quvchilarning bir-birlari bilan birgalikda ish ko‘rishiga tayanib ta’lim bermoqchi bo‘lgan o‘qituvchi-professor talabalar tabiatidagi o‘ta qiziquvchanlikdan o‘rinli foydalanib, ta’lim kechimida evristik va tadqiqot usullarini ko‘proq qo‘llashi maqsadga muvofiqdir. Xullas, interfaol usullarda dars o‘tilganda “**izlanish – faraz – yechim – izoh – yangi izlanish**” tarzidagi ta’limiy sikl yuzaga kelsa, talabalarning bilimlarni o‘zlashtirishlari va shaxs sifatida shakllanishlari ta’milanadi. Bu siklda talabalar muammo yuzasidan izlanishlari, izlanishning farazni yuzaga chiqargani, faraz va uni asoslashga urinish muayyan yechimga olib kelgani, talabalar tomonidan

tavsiya etilgan yechim o‘qituvchi-professor tomonidan izohlangani, bu esa keyingi izlanishlarni keltirib chiqargani aks etadi.

Badiiy tahlil filolog mutaxassislarni badiiy asar bilan professional darajada ishlashga o‘rgatish omilidir. Badiiy tahlildan xabarsizlik yoki bu borada yetarli malakaga ega bo‘lmaslik oliy filologik ta’limni samarasiz qiladi. O‘zbek adabiyotshunoslik ilmining dunyo adabiyottanuvi darajasidan orqadaligi, hermenevtik usullardan yiroqligi, psixonalistik tahlil imkoniyatlaridan foydalanolmasligi, badiiy tahlilning, asosan, sotsiologik talqin (interpretatsiya) yoki syujetni qayta hikoyalash tusida ekanligi badiiy matnga yondashish yo‘lini bilmaslik oqibatidir.

Badiiy asar tahlili juda qadim zamonlardan buyon ilm egalarining diqqatini tortib kelgan. Dunyo olimlari unga turlicha ta’rif berishgan. Badiiy tahlil Kunchiqish adabiyotshunoslige ilmida ham azaldan muhokama mavzusi bo‘lgan. Miloddan to‘rt ming yillar oldin hind manbalarida bir adabiy matnni ming xil tushunish mumkinligi to‘g‘risida gap boradi. Forobiy, Ibn Sino, Ahmad Taroziy, Navoiy, Bobur singari turkiy mutafakkirlarning asarlarida esa badiiy tahlilga islomiy-turkiy yondashuv aks etgan.

San’at inson hissiy-intellektual va ijodiy (kreativ) faoliyatining oliy ko‘rinishidir. Inson ma’naviyatini shakllantirish imkoniyatining kattaligi va odamga ta’sir qudrati miqyosiga ko‘ra badiiy adabiyot san’atning boshqa turlari orasida alohida mavqega egadir. G‘oyat ko‘p o‘lchovli murakkab butunlik bo‘lmish badiiy adabiyot o‘quvchi tomonidan o‘qilib, his etilib, anglanib olingandagina ta’sirchan estetik-ma’naviy energiyaga aylanadi. His etilmagan, anglanmagan go‘zallik hayotdagi foydalanilmagan imkoniyat kabi shaxs ma’naviyatiga ta’sir ko‘rsata olmaydi. Shuning uchun ham oliy adabiy ta’limda badiiy asar tahlili alohida mavqega, ahamiyatga egadir. Adabiy ta’lim oldidagi bosh maqsadga erishish uchun filolog mutaxassis badiiy asarni tahlil qilish yo‘llarini puxta egallab olishi shartdir.

Yetuk badiiy matnlarning ko‘pchilik tomonidan to‘la anglanishiga erishmay turib, biror jamiyat miqyosida barkamol shaxs shakllantirishni o‘ylash amalga oshmaydigan orzudir. Buning uchun esa filolog mutaxassis va adabiyot o‘qituvchilari badiiy tahlil qilish malakasiga ega bo‘lishlari kerak. Chinakam badiiy tahlil bo‘lmagan joyda badiiy asar o‘qirmanning tuyg‘ulariga ta’sir etmaydi, binobarin, shaxs ma’naviyati shakllanishiga xizmat qilmaydi.

Badiiy tahlil tushunchasi ko‘p asrlar mobaynida o‘z ta’rifiga ega bo‘lmay keldi. XIX asrning ikkinchi yarmida Ovro‘po adabiyotshunosligida badiiy tahlilga ta’rif berishga dastlabki urinishlar bo‘ldi. Lekin kunbotishliklar ta’rifida badiiy tahlilni interpretatsiya (talqin) tarzida tushunishga moyillik kuchli edi. Bunday yondashuv esa badiiy asarlardan ko‘proq ijtimoiy ma’no qidirishga olib kelardi

Ko‘rinadiki, ta’lim konstruktivizm pedagogik falsafasi asosida tashkil etilganda pedagogik hamkorlik degan tushuncha o‘z ma’nosida sezilarli darajada kengaytiradi. Endi u professor-o‘qituvchi bilan talabaning sherikliginigina emas, balki bir vaqtning o‘zida ham talabaning pedagog bilan, ham talabalarning bir-birlari bilan o‘zaro hamkorligini anglatadigan tushunchaga aylanadi. Oliy adabiy ta’lim shunday tashkil etilgandagina chinakam pedagogik hamkorlik yuzaga kelib, o‘qitish samaradorligi keskin ortadi.

Jan Piajening to‘rt qoidasi:

- Har bir o‘quvchi o‘z tafakkurining me’moridir.
- Insoniyat paydo bo‘lgandan beri hali birorta ham o‘qituvchi bironta ham o‘quvchini o‘qita olgan emas.
- Ta’lim jarayoni uchun o‘quv haqiqati bilan bирgalikda unga kelish yo‘li ham muhim.
- O‘qitish kechimida o‘quvchilar fikrining sifati bilan birga soni ham ahamiyat kasb etadi.

NAZORAT SAVOLLARI:

- Konstruktivizm haqidagi qarashlaringizni bayon eting.
- Interfaol so`zining ma`nosini?

3. Jan Piaje Konstruktivizm haqida nima deydi?
4. Qaysi mutafakkirlarning asarlarida esa badiiy tahlilga islomiy-turkiy yondashuv aks etgan?
5. Interfaol usulda o‘qitish qaysi pedagogik falsafaga tayanadi?
6. Badiiy tahlil filolog mutaxassislarni badiiy asar bilan professional darajada ishlashga o‘rgatish omillari haqida fikr bildiring.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Богданова О. Ю., Леонов С. А., Чертов В. Ф. Методика преподавания литературы (учебник). Москва: "Academa", 2004.
2. Долимов С., Убайдуллаев Х., Ахмедов Қ. Адабиёт ўқитиши методикаси, - Т.: «Ўқитувчи», 1967.
3. Йўлдошев Қ., Мадаев О., Абдураззоков А. Адабиёт ўқитиши методикаси. -Т.: «Университет», 1994.
4. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишининг илмий-назарий асослари. -Т.: «Ўқитувчи», 1996.
5. Зуннунов А. ва бк. Адабиёт ўқитиши методикаси. -Т.: «Ўқитувчи», 1992.
6. Ражабова И. Адабиёт дарсларини интерфаол усулларда ташкил этиш. – Т.: “Tamaddun”, 2010.
7. Резь З. Я. и др. Методика преподавания литературы. -М.: “Просвещение”, 1985.
8. Сафин Д., Мусина Р. Интерактивные методы преподавания и учения. Теоретические основы интерактивного обучения. Учебное пособие. –Т.: 2007.
9. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиши методикаси. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2010.
10. Ҳусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009.
11. Ҳусанбоева Қ. Тахлил – адабиётни англаш йўли. –Т.: “Muharrir”, 2013.

2-MAVZU:

**JAHON ADABIY TA’LIMIDAGI KONSTRUKTIVIZM,
BIXEVORIZM, GUMANIZM KABI YANGICHA
YONDASHUVLAR**

REJA:

- 1. Konseptual masalalar*
- 2. Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktizim nazariyalari*
- 3. “O‘quvchi – faol” yondashuvi*
- 4. “Kitobxon javobi” nazariyasi*

Tayanch tushunchalar: “Konstruktivizm, kreativ, kontekst, to‘qimalilik, emotsionallik, subektivlikdir, integratsiyasi, retseptiv (qabul qiluvchi) estetika, kitobxon javobi, reader response.

O‘rganish uslublariga xos klassifikatsiyalar, badiiy tahliliga kulturologik yondashuv, badiiy tahlilda metatil tushunchasi, tranzaksiya nazariyasi, ta’limda integrativ yondashuv nazariyalari, ta’limni individuallashtirish va personallashtirish masalalari, ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi, “talaba (o‘quvchi) – faol” yondashuvi, kitobxon javobi (retseptiv estetika) nazariyasi, adabiy ta’lim va pragmatika, blum taksonomiyasi kabi yangi tushunchalar asosida shakllantirilgan metod, texnologiya va interfaol usullarning umumiy tavsifi. Jahon adabiy ta’limida ijodkorlik, faollik, yaratuvchanlik, tanqidiy va ijodiy fikrlash, mustaqil faoliyat olib borish kabi konseptual masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuvlar asosini jahonning ilg‘or, vaqt tajribasidan o‘tgan konstruktivizm, bixevorizm, tranzaksiya nazariyasi, integrativ yondashuv nazariyalari tashkil etadi. Ta’lim jarayonlarini individuallashtirish, personallashtirish, adabiyot davrslarida talaba faolligini oshirish kabi masalalar ham bugungi global ta’limga oid tadqiqotlarning eng muhim tadqiq ob’ektlaridan biriga aylangan. “Adabiy ta’limga konseptual yondashuvning nazariy asoslari”

mavzusi doirasida tinglovchilar yuqorida qayd etilgan yangi tushunchalar, texnologiya va interfaol usullarning umumiy tavsifi haqida ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Konseptual masalalar: Jahon adabiy ta'limida ijodkorlik, faollik, yaratuvchanlik, tanqidiy va ijodiy fikrlash, mustaqil faoliyat olib borish kabi konseptual masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuvlar asosini jahonning ilg'or, vaqt tajribasidan o'tgan konstruktivizm, bixevorizm, tranzaksiya nazariyasi, integrativ yondashuv nazariyalari tashkil etadi. Ta'lim jarayonlarini individuallashtirish, personallashtirish, adabiyot davrslarida talaba faolligini oshirish kabi masalalar ham bugungi global ta'limga oid tadqiqotlarning eng muhim tadqiq obyektlaridan biriga aylangan. “Adabiy ta'limga konseptual yondashuvning nazariy asoslari” mavzusi doirasida tinglovchilar yuqorida qayd etilgan yangi tushunchalar, texnologiya va interfaol usullarning umumiy tavsifi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Bugungi kunda adabiyot o'qitish metodikasi va metodologiyasini yaratish, uning nazariy asoslarini ishlab chiqishda o'qitishning quyidagi **konseptual masalalarini** e'tiborga olish zarur:

1. O'quvchilarning **ijodkorlik, faollik, fikrlash, mustaqil ishslash** qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan turli xil zamonaviy metodlardan foydalananish.
2. O'quvchilarning asosiyligi e'tiborini adabiy figuralar biografiyası, yozgan asarlari haqidagi ma'lumotlarni yodlashga emas, konkret asar tahlili orqali ularning milliy va jahon adabiyoti ravnaqida tutgan o'rni haqida tushunchalarni shakllantirishga qaratish.
3. “Asar haqida” orqali o'quvchilarga o'rganilayotgan asarning tayyor talqinlarni singdirishdan voz kechish, muayyan savol va topshiriqlar vositasida o'quvchilarning asarga **o'z munosabatlarini** shakllantirish.

Bunday holatda savol va topshiriqlar o‘quvchilarni asarga qiziqtirishi, asar mazmunini tushunishga tayyorlashi, badiiy matnni tushunish — tahlil qilishga, mustaqil fikrlashga, badiiy asar ustida chuqur mushohada yuritishga yo‘naltirishi darkor. Demakki, badiiy asarni turli taraflama tushunish savolning kuchi va darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

4. Adabiyotning san’atning boshqa turlari, shuningdek, maktabda o‘rganiladigan boshqa fanlar bilan **integratsiyasini** ta’minlovchi metodlarni tavsiya qilish.

5. Badiiy asar tahlilida o‘quvchi **hayoti** bilan aloqasini ta’minlash, o‘quvchining adabiyotni shunchaki fan sifatida emas, balki hayotiy ehtiyoji sifatida qarashga asoslangan metodlarni ishlab chiqish.

Ushbu konseptual masalalarining hal etilishi adabiyot o‘qitish metodikasida jahonning ilg‘or, vaqt tajribasidan o‘tgan va sinalgan **nazariyalari va yondashuvlariga** tayanishni taqozo qiladi. Bu nazariyalar va yondashuvlar quyidagilardir:

Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktizim nazariyalar;

- “o‘quvchi – faol” yondashuvi;
- “kitobxon javobi” nazariyasi;
- adabiyot o‘qitishda pragmatik yondashuv;
- Blum taksonomiyasi.

Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktizim nazariyalar. “O‘quvchi – faol” yondashuvi

Konstruktivizm va **ijtimoiy konstruktivizm** nazariyaları rivojlangan davlatlar məktəb təlimində asosiy yondashuv sifatida müvaffaqiyatlı qo‘llanilayotgan nazariyalarıdır. Bu nazariyaların eng asosiy g‘oyaları quyidagicha:

- o‘quvchilar bilimni tayyor holda, passiv qabul qilmasliklari kerak;

- bilimlar ta’lim jarayonida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish o‘quvchilar tomonidan “**yaratilishi**”, “**kashf qilinishi**” lozim;
- bunda o‘quvchilarning **o‘zaro muloqoti** muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu nazariyalarga ko‘ra, darsning maqsadi ma’lumotlarni o‘quvchilarga singdirish emas, balki ularga bilimni o‘zlari hosil qilishlariga imkon yaratib berishdir. O‘qituvchining vazifasi esa tayyor bilimlarni bolalarga yetkazib berish, so‘zlab berish emas, balki o‘quvchilarning faoliyatini tashkil qilish va to‘g‘ri yo‘naltirishdan iborat bo‘ladi. Zero, XX asrning taniqli pedagog va psixolog olimi, konstruktivizm nazariyasining asoschilaridan biri Jan Piage (*Jean Piaget*) aytganidek²:

“maktabning asosiy vazifasi oldingi avlodlar yaratgan narsalarni shunchaki qaytarish emas, balki o‘zlari yangi narsalar yaratishga, kashfiyotlar qilishga qodir, kreativ, tanqidiy fikrlay oladigan shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir”

Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalari asosida ta’limda **“o‘quvchi – faol” yondashuvi** (*student-centered learning*) yuzaga kelgan. Ushbu yondashuvning muhim xususiyatlari o‘qitishda o‘rganuvchi faolligini oshirish va ta’lim jarayonlarini individullashtirishdan iboratdir. “O‘quvchi–faol” yondashuvida keraksiz qog‘ozlar, ahamiyatsiz ta’limiy manbalarning kamayishi va eng muhimi – o‘rganuvchilarga allaqachon ma’lum bilimlarni qayta bayon qilish orqali vaqtini bekorga sovurish muammosi bartaraf etiladi.

Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalariga asoslangan ta’limning an’anaviy ta’limdan farqlarini quyidagi jadval va diagrammada ko‘rish mumkin:

² Qarang: Kohn, A. (2000) The Schools Our Children Deserve: Moving Beyond Traditional Classrooms and Tougher Standards, New York, NY: Houghton Mifflin Company.

An’anaviy ta’lim	Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizmga asoslangan ta’lim
O‘quvchilar asosan o‘qituvchidan va darsliklardan o‘rganishadi.	O‘qitish uchun turli materiallardan (plakatlar, real hayotdan olingan obektlar va hokazo) foydalilanildi .
Darsda asosiy rolni o‘qituvchi o‘ynaydi.	Darsda o‘quvchilar faol, o‘qituvchi esa o‘quvchilarning faoliyatini tashkil qiladi.
O‘quvchilar asosan o‘qituvchidan va darslikdan o‘rganganlarini qaytarishadi.	O‘quvchilar turli vazifalarni bajarish va loyihibar ustida ishlash orqali o‘rganishadi.
Mashqlar asosan o‘rganilgan ma’lumotlar qoidalarni mustahkamlashga qaratiladi.	Topshiriqlar asosan real hayotda uchraydigan muammolarni yechishga qaratilgan.
Odatda berilgan vazifalarning (mashqlarning) yagona to‘g‘ri javobi mavjud.	Vazifalarga (topshiriqlarga) turlicha yondashish mumkin va har xil yechimlar taklif qilinishi mumkin
O‘quvchilar asosan individual ishlashadi.	O‘quvchilar asosan juft-juft bo‘lib va guruhlarda ishlashadi
O‘quvchilarning boshqa fanlardan olgan bilimlari va hayotiy tajribasi odatda hisobga olinmaydi.	O‘quvchilarning boshqa fanlardan olgan bilimlari faollashtiriladi, ularning hayotiy tajribasiga suyaniladi.

O‘quvchi – faol yondashuvi. Adabiy ta’limda “o‘quvchi – faol” yondashuvini tadbiq qilish imkonini beradigan muhim nazariyalardan adabiyotshunoslikdagi **retseptiv (qabul qiluvchi) estetika** nazariyasi asosida

shakllangan, xalqaro miqyosda ham sinovdan o‘tgan samarali yondashuv sifatida qo‘llanilib kelayotgan “**kitobxon javobi**” (*reader response*) nazariyasidir.

Reseptiv estetika so‘zi nemischadan “Rezeptions-Asthetik”, lotinchadan “retseptio” so‘zidan olingan bo‘lib, asarning kitobxon (o‘quvchi) tomonidan qabul qilinishidir. Badiy asarni emotsional qabul qilishga yo‘naltirilgan bu yondashuvning asosini:

MUALLIF ↔ ASAR ↔ KITOBOXON

munosabatlari tashkil etadi.

Aniqroq qilib aytganda, bu yondashuv o‘quvchi va matn munosabatlariga, matnni estetik-emotsional qabul qilishning psixologik asoslarini kuzatish orqali har bir o‘quvchiga xos individual badiiy sezgilarni kashf qilishga qaratiladi. Matnni idrok etgan o‘quvchi uni o‘z uslubida qabul qiladi, **yaratadi va qayta yaratadi**. “Kitobxon javobi” yondashuvi o‘quvchini badiiy asarda “faol ayg‘oqchi” sifatida belgilab beradi. Natijada, o‘quvchi asar voqealari ichiga sho‘ng‘ib, ularga real guvoh bo‘ladi va asar syujetini o‘zining talqini orqali “tuzadi”. Bunda adabiyot ijro san’ati sifatida qaralib, har bir o‘quvchi mutolaa tajribasi asosida o‘ziga xos, ehtimol, noyob matnni yaratadi.


Adabiyotshunoslikda “kitobxon javobi” nazariyasini olib kirgan olimlardan biri, nemis adabiy tanqidchisi Wolfgang Izer (*Wolfgang Iser*) fikriga ko‘ra, asar **yozilgan** va **yozilmagan** qismlardan iborat. Kitobxon asarni o‘qiy boshlar ekan, undan ma’lum bir narsani kutadi. Ko‘pincha, kitobxon kutgan narsasini to‘liq olmaydi (muallif ko‘p savollarga javoblarni ochiq qoldiradi), bunday holda bo‘shliqlarni o‘quvchining o‘zi to‘ldiradi. Bu bo‘shliqlar asarning yozilmagan qismidir. Bo‘shliqlarni qanday to‘ldirish esa o‘quvchining o‘ziga bog‘liq, demak, har xil kitobxon bu bo‘shliqlarni har xil to‘ldiradi. Bu jarayonni Izer yulduzlar turkumiga qarash bilan solishtiradi: “Tunda yulduzli osmonga qaragan ikki kishi

bir xil yulduzlar turkumiga qarayotgan bo‘lishi mumkin, lekin biri omochni ko‘rsa, ikkinchisi esa cho‘michni tasavvur qilishi mumkin.”³

Aslida ham badiiy asar mutolaasi **faol jarayon** bo‘lib, o‘quvchi o‘z tafakkur sarhadi, dunyoqarashi, hayotiy tajribasi, avvaldan mavjud bilimlari va badiiy asarni o‘qiyotgan paytdagi ruhiy-emotsional holatidan kelib chiqib badiiy asardagi yashirin ma’nolarning yangi talqinlarini yaratadi. Masalan, 18-20 yoshlardagi kitobxonda Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romani qahramonlari Kumush yoki Otabek “ideal shaxs” sifatida tasavvur uyg‘otsa, yillar o‘tib oila, muhabbat, nafrat, rashk kabi tushunchalarda anchayin tajribaga ega bo‘lgan 30-35 yoshli ayni kitobxon-retsipliyent (qabul qiluvchi) endi Kumushni xudbinlikda ayblashi, Zaynabni esa “chorasiz zaifa, muhabbat qurban” sifatida ko‘rib uning harakatlarini, hatto oqlashi ham mumkin bo‘ladi. Yoki, O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub “Urushning so‘nggi qurban” hikoyasidagi onaning harakatlarini o‘quvchi o‘z hayotiy vaziyatlaridan kelib chiqib oqlamasligi, Umri xolani hatto fojianing asosiy sababchisi sifatida ko‘rsatishi ham mumkin. Demak, “kitobxon javobi” yondashuvi yozuvchi estetikasi emas, **kitobxon (retsipliyent) qarashi, tafakkur hosilasi** sifatida diqqat markazda bo‘ladi. O‘quvchi adabiy aloqaning yakunlovchi bo‘g‘iniga aylanadi⁴. O‘quvchi o‘z fikrlari bilan asarning “yozilmagan qism”larini yaratadi.

³Iser W. The Reading Process: a Phenomenological Approach. // New Literary History, 1972, Vol. 3, No. 2, p. 287.

⁴ А.Н. Ковылкин. Вопросы рецептивной эстетики: Филологические науки // Омский научный вестник, № 2 (54) 2007, стр. 153.



"O'quvchi javobi" nazariyasiga ko'ra, o'quvchi va matn va kontekst o'rta sidagi aloqaga ta'sir qiluvchi omillar

“Kitobxon javobi” nazariyasি

Adabiyot o'qitish metodikasiga “tranzaksiya nazariyasi”ni (inglizcha *transaction theory*) olib kirgan Amerikalik olma Luiza Rozenblatt (*Louise Rosenblatt*) badiiy matn mutolaasiga **estetik hodisa**⁵ sifatida qaraydi. Uning fikricha, o'qilayotgan asardan ma'no yasash o'quvchi shaxsi – uning bilimi, histuyg'ulari, xohish-istiklari bilan asar matni sintezidan kelib chiqadi. Bu sintez jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- asardagi voqelik o'quvchi bilimi va dunyoqarashi bilan organik tarzda birlashadi: bir tarafdan, asardan kelib chiqadigan ma'no o'quvchi bilimi va dunyoqarashi ta'siri ostida shakllanadi, ikkinchi tarafdan esa, asardan kelib chiqadigan ma'no o'quvchi bilimi va dunyoqarashiga ta'sir qiladi;
- asar o'quvchi his-tuyg'ulariga ta'sir qiladi;

⁵ Rosenblatt, L. Literature as Exploration. London: Heinemann, 1970.

- o‘quvchining tasavvurini uyg‘otadi: tasavvur orqali o‘zgalarning hayoti bilan emotsional va intellektual bog‘liqlikni his qiladi, bu esa o‘quvchiga boshqalarni tushunish hamda o‘zini boshqalar o‘rniga qo‘yib ko‘rish yoki asardagi voqealarning muqobil (boshqacha) rivojlanishini tasavvur qilish orqali o‘z xattiharakatlari uchun javobgarlikni his qilishga o‘rgatadi.

Asar mutolaasi jarayonida o‘quvchi boshqa bir hayotni “yashab o‘tadi”. Bu hodisaga o‘quvchining hayotiy tajribasi ta’sir qiladi, shuning uchun ham asarni har safar qayta o‘qishda asar o‘quvchiga boshqacha ta’sir qiladi. “Boshqa hayotga sho‘ng‘ish” mutolaaning estetik hodisa sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Asar o‘quvchining hayotiy tajribasi, hozirgi qiziqishlari va his-tuyg‘ulari bilan bog‘liq bo‘lmasa, uni qiziqtirmasa, estetik hodisa ro‘y bermaydi. Shu bilan birga, Rozenblattning fikricha, “qiziq” tushunchasini tor talqin qilish va faqat o‘quvchining bevosita hayoti bilan bog‘liq asarlarni tanlash noto‘g‘ridir. Adabiyot darslari uchun tanlanadigan asarlar xilma-xil, stereotiplardan xoli bo‘lishi kerak va o‘quvchi asar orqali boshqa madaniyatlar, boshqa dunyolarga qadam qo‘yishni ham o‘rganishi kerak.

Shunday qilib, badiiy asar mutolaasi davomida o‘quvchi:

- o‘zini o‘rab turgan voqelikdan farq qiladigan voqelikka sho‘ng‘ish zavqini his qiladi;
- o‘zini hikoyanavis (muallif) bilan va asar qahramonlari bilan muqoyasa qiladi, o‘xshash va farqli jihatlarni qidiradi, ozini ularga yaqinlashtiradi yoki ularidan uzoqlashtiradi, ularga nisbatan ijobiy yoki salbiy tug‘ularni his qiladi; asar muallifining dunyoqarashini, qadriyatlarini, uning voqelikka munosabatini va bu munosabatning sabablarini tushunishga harakat qiladi.

Shu bilan birga, badiiy asar o‘qish o‘quvchiga o‘zining dunyo haqidagi bilimlarini, siyosiy, ijtimoiy, axloqiy tafakkurini boyitish hamda tarix, madaniyatshunoslik, geografiya va boshqa fanlar bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtirish, boshqa fanlarni o‘rganish jarayonida ko‘ra olmaydigan detallarni ko‘rish imkonini beradi.

Badiiy asarning muhim jihatlari **to‘qimalilik, emotsionallik** va **subekтивлик**, ya’ni badiiy matn muallifning tasavvuri mahsuli o’laroq o‘quvchining his-tuyg‘ulariga ta’sir qiladi. O‘quvchi badiiy asarni mutolaa qilishda undan ma’lumot olish yoki asar syujeti va qahramonlariga oid detallarni eslab qolishni o‘ziga asosiy maqsad sifatida belgilamaydi. Masalan, Bobur hayoti va siyosiy faoliyati haqida ilmiy tadqiqot qilayotgan kishi Pirimqul Qodirov yoki Xayriddin Sultonovning Boburga bag‘ishlangan romanlariga emas, balki “Boburnoma”ga va Bobur haqida yozilgan ilmiy asarlarga murojaat qiladi.

Shu bilan birga, **badiiy asarni hammadan bir xil tushunish va talqin qilishni talab qilish badiiy asarning qiyamatini yo‘qqa chiqaradi**. Masalan, “O’tkan kunlar” da Otabek va Kumush fojiasiga kim aybdor, degan savolga har bir o‘quvchi asarni qanday tushunganidan kelib chiqib har xil javob beradi: kimdir jamiyatni va o‘sha davr urf-odatlarini, kimdir ota-onra ra'yiga qarshi borolmagan va keyinchalik ikki xotin orasida muvozanatni saqlay olmagan Otabekni, kimdir Toshkentga kelganida kundoshini har safar gap bilan chaqib oladigan Kumushni, kimdir opasi Xushro‘yning maslahatini o‘zicha talqin qilgan Zaynabni, kimdir O‘zek oyimning oqibatini o‘ylamay qilgan xatti-harakatlaridan qaytara olmagan Yusufbek hojini, kimdir boshidan qizini Toshkentga yuborishga qarshi bo‘lgan Oftob oyimni ayblaydi, yana kimdir boshqa aybdorlarni sanashi mumkin va eng qizig‘i, bunda to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javob yo‘q, har bir kitobxon asarga o‘z tushunishidan kelib chiqib yondashadi va bunda har biri haq.

Quyida keltirilgan matnlarni solishtiring:

1-matn:

Xo‘jand shahri Sirdaryo ikkiga ayrilgan yerda joylashgan edi. Uning tabiiy joylashishi hamda shahar hokimi Temur Malikning qahramonligi bilan xo‘jandliklar mo‘g‘ullarga kutilmagan qarshilikni ko‘rsatadilar. Xo‘jand shahri himoyachilari Temur Malik boshchiligidagi qariyb bir oy davomida o‘z shahrini mudofaa qiladilar. Oxiri ilojsiz qolganda o‘t ichida qolgan shahar qal’asini ming

nafarga yaqin bahodir tark etib, Temur Malik bilan Sirdaryo o‘rtasidagi orolda joylashib olib, dushman bilan mardlarcha olishdilar. Nihoyat, maxsus kemalar yasab, daryo oqimi bo‘ylab, Xorazm tomon suzib ketdilar. Yo‘l-yo‘lakay dushman bilan jang qildilar. Xalq qahramoni Temur Malikning bundan keyingi vatanparvarlik jasorati Xorazm va ona yurtining boshqa hududlarini himoya qiluvchilar safida kechdi.

(A. Muhammadjonov. O‘zbekiston taixi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
7-sinfi uchun darslikdan)

2-matn

Shu kecha osmonda bulut paydo bo‘lib, charaqlab turadigan yulduzlar ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Oy ham qoramtilr quyuq bulutlar orasidan ba’zan Temur Malik sarkardaning dimishqiy qilichidek yarqirab ko‘rinib qolardi. Tun qorong‘iligini panoh etib, oroldagi yigitlar o‘n besh manjanaqni qirg‘oq – daryo bo‘yiga qator tizib, beliga moyli lattalarni arqon bilan mahkam bog‘lagan xarsangtoshlar uyib qo‘yildi. Yarim tunda Shohmurod Ko‘histoniy boshchiligidagi ikki kemaga yigirmaga yaqin sarboz o‘tirib, orolning yuqori tomonida payt poylab turishdi. Orolning quyi tomoniga terib qo‘yilgan manjaniqlarga xarsang qo‘yilib, o‘rtada yonib turgan gulxanga kosov tiqib, yondirib, xarsanglarni o‘t oldirib, manjaniqlarni otisha boshlashdi. Qattiq egilgan archa taxtasi olovli toshlarni daryo ustidan o‘tkazib, dushman borgohini otashbo‘ron qilisha boshlashdi. O‘n besh manjaniqdan tinimsiz otilib turgan olovli xarsanglar mo‘g‘ullarni vahimaga soldi. Xarsanglar yerga tushib, ancha vaqtgacha yonib turardi. O‘tov tepasiga tushganlari tosh namatni yorib kirib o‘t oldirardi, otlar hurkib to‘rt tomonga qochardi. Dushman sarosimaga tushib, bezovta bo‘lgan otlarini ushlab, yonayotgan o‘tovlarini suv sepib o‘chirayotgan bir paytda shiddat bilan daryoning narigi qirg‘og‘iga o‘tib ketgan ikki kemani dushman payqamay qoldi.

Mirmuhsin. “Xojand qal’asi” romanidan

3-matn

Sen Xo‘jandsan,
 Chingizlarga
 Darvozasin ochmagan,
 Temur Malik orqasidan
 Sirdaryoga sakragan,
 Muqannasan qorachig‘i
 Olovlargacha
 Shiroqlarni ko‘rgan cho‘pon
 Cho‘lig‘imsan, Vatanim.

Muhammad Yusufdan

Birinchi matnning maqsadi – ma’lumot berish, o‘quvchi uni konkret ma’lumot olish maqsadida o‘qiydi, bunda matndagi ma’lumotning to‘g‘riliqi muhim ahamiyat kasb etadi va bu ma’lumotni har xil talqin qilib bo‘lmaydi: o‘quvchining matnni tushungan yoki tushunmaganligini matn asosida savollar berib, o‘quvchi berayotgan javoblarining to‘g‘ri yoki noto‘g‘riliqiga qarab bilish mumkin.

Ikkinchi matn esa o‘quvchi tasavvurida manzarani gavdalantiradi, lekin matnni o‘qigan har bir o‘quvchi bu manzarani har xil tasavvur qiladi. Matnda tasvirlangan voqeа tarixda bo‘lib o‘tgan, lekin uni aynan muallif tasvirlagan tarzda bo‘lgan deya olmaymiz, matnni o‘qiyotgan o‘quvchi uchun ham bu ahamiyatsiz, chunki u asarni ma’lumot olish maqsadida o‘qimaydi.

Uchinchi matn ham o‘quvchi his-tuyg‘ulariga ta’sir qiladi, tasavvurini jonlantiradi.

Demak, badiiy matn bilan ishlashda uning boshqa turdagи matnlardan farqlarini va badiiy asarni o‘qish yoki o‘qitishdagi maqsadlar ham boshqa turdagи

matnlarni o‘qish yoki o‘qitishdagi maqsadlardan tubdan farq qilishini hisobga olish kerak. Asarni hamma har xil tushunadi va talqin qiladi, hatto bir o‘quvchi bir asarni har xil paytda o‘qiganda har xil xulosalarga keladi va bu holatni normal holat sifatida qabul qilish lozim. Shuni hisobga olga holda, adabiyot darslarida o‘qituvchi e’tiborni asardagi ma’lumotlarni o‘quvchilarga yodlatish yoki o‘quvchilarga asarning ma’lum bir talqinini yagona maqbul talqin sifatida singdirishi emas, balki ularga asar matni bilan ishslash asnosida **badiiy matn, o‘z bilimlari va hayotiy tajribalari hamda kontekstdan kelib chiqqan holda o‘z talqinlarini yaratishga yordam berishi** lozim.

Badiiy matn bilan ishslash va undan ma’no chiqarish jarayoni **interfaollik, konstruktivlik va strategiklik** tamoyillariga asoslangan:

1. O‘qish – bu interfaol jarayon. O‘qish – bu o‘quvchi va matn orasidagi **interfaol** jarayon va bu jarayonda o‘quvchida mayjud sxemalar (bilim va hayotiy tajriba) matnni tushunishning qay darajada samarali bo‘lishini hal qiladi. Alovida olingan so‘zlarni, matnning kengroq kontekstini tushunish matn idrokining asosini tashkil qiladi, ya’ni o‘quvchi matnda ishlatilgan so‘zlarni yoki konteksti, ya’ni matndagi muayyan so‘z, so‘z bilan bog‘liq hodisa yoki voqelik haqida yetarli bilimi bo‘lmasa, ma’no chiqara olmaydi.

Misol:

Bor edi beshada bir tund sher,
Vahshat aro ko‘k asaddek daler.

(Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror”dan)

Ushbu parchani tushunish uchun *besha – to‘qay, tund – yirtqich, vahshat – yovvoyi, ko‘k – osmon, asad – sher, daler – qo‘rqmas* so‘zlarining ma’nosini bilish lozim.

Yoki:

Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak?
Ibrohimdin qolg‘on ul eski do‘konni na qilay?!

(Mashrabdan)

Ushbu baytning ma’nosini tushunish uchun Makkaga borib haj qilish Islomning besh farzlaridan biri ekanligini, “Ibrohimdin qolg‘on ul eski do‘kon” deganda Makkadagi Ibrohim alayhissalom qudirgan va muqaddas sajdah bo‘lgan Ka’ba nazarda tutilganligini bilish kerak.

Yana bir misol:

- Turing, bugun professor Rauf Abdullayevich obxod qiladi! – dedi u Sherzod uyg‘onishi bilan qaddini rostlab. – O‘rinlaringizni yaxshilab tartibga solinglar. Tumbochkaning ustida ortiqcha narsalar turmasin.

(*O‘tkir Hoshimov, “Nur borki, soya bor”dan*)

Ushbu parchani tushunish uchun o‘quvchi “obxod” (kasalxonada shifokorning bemorlar yotgan palatalarni aylanishi) nima ekanligini bilishi kerak. Boshqa bir misol. Saida Zunnunovaning mashhur “Hay-hay” radifli g‘azalini qatag‘on yillari Said Ahmad va uning turmush o‘rtog‘i Saida Zunnunova boshiga tushgan musibatlardan xabari bor o‘quvchi shunchaki muhabbat haqidagi lirik she‘r sifatida emas, nohaq qamalgan erini intizor kutayotgan vafodor ayolning dardi sifatida qabul qilishi mumkin:

Vaslingning umidida dunyodan o‘tib borgum,
Qanoatda Saida filcha bo‘lurmi, hay-hay.

Demak, badiiy matnni tushunish jarayoniga o‘quvchida mavjud bilimlar (ayrim so‘zlarning ma’nosini bilish, asar yaratilgan davr haqida tushunchaga ega bo‘lish, tarixiy, madaniy, ijtimoiy kontekstni bilish va hokazo) sezilarli ta’sir ko‘rsartadi. Shuning uchun ham o‘qituvchi o‘quvchiga asarni tushunishga yordam berishi uchun undagi **mavjud sxemalarni faollashtirishi – o‘quvchida mavjud bilimlar majmui va hayotiy tajribani ishga solishi** lozim. Shu bilan birga, asarni tushunish, undan ma’no chiqarish uchun sxemalar yetarli bo‘lmasa, unda asarni o‘qitishdan oldin va o‘qitish davomida bilimlardagi **bo‘shliqlarni to‘ldirib borish – sxemalarni shakllantirish** kerak bo‘ladi. Bunda asarni o‘qitishdan oldingi va asar bilan ishlash davomida bajariladigan savol va topshiriqlar muhim rol

o‘ynaydi, shuning uchun xorij darsliklarida bunday savol va topshiriqlardan keng foydalaniladi.

Persia

Build Background

What Is Sufism? Sufism is a mystical form of Islam in which Muslims seek spiritual love and wisdom through direct personal experiences with God. An early form of Sufism arose in the 7th century as a reaction to the materialism of the Islamic world. However, the real flowering of Sufism took place in the 12th and 13th centuries when Sufi brotherhoods were established in special communities or schools. Like the monks of medieval Europe, Sufi mystics tried to avoid what they considered the lures and traps of the material world. In fact, they are often called dervishes, from the practice of spinning around while in poverty. Rumi founded an order of Sufi mystics that embraced sacred dance as a form of worship. Because of this practice, these mystics acquired the nickname “whirling dervishes.”



Prayer in the Mosque (19th century), Jean-Léon Gérôme.

The Poetry of Love. From the viewpoint of literature, Sufism is of great importance, for it inspired some of the finest mystical love poetry in the world. Most of that poetry was written in Arabic, Persian, Turkish,

Connect to Your Life

In these poems Rumi tries to convey experiences that he had in his life and words. What experiences or feelings might you find difficult to express? Why might this be difficult for you?

Focus Your Reading

LITERARY ANALYSIS: IMAGERY AND TONE
When writers use words and phrases to create vivid sensory experiences for the reader, they are making use of **imagery**. Although most imagery appeals to the sense of sight, imagery may also appeal to the senses of smell, hearing, taste, or touch. The title “Birdsong from Inside the Egg,” for example, appeals to the senses of both sight and hearing. Often, a writer uses imagery to convey his or her **tone**, or attitude, toward a subject. The tone of a bird’s song, for example, comes from inside an egg expresses an attitude of amazement and joy. As you read Rumi’s poems, notice the images that he uses and think about the kinds of tones they convey.

ACTIVE READING: READING DIFFICULT POETRY

Rumi’s poetry presents difficulties for many readers because of his use of unusual images to convey abstract ideas. Even an experienced reader depends on strategies such as these:

- Read each poem slowly and deliberately.
- Read each poem several times. Read first to gain overall sense of the poem’s meaning. Then focus on understanding individual parts.
- Write down notes about the stanzas and images that you think you understand.
- If you are still confused by certain sections of a poem, don’t try to concern yourself with the poem that you do understand to help make sense of the ones that may still be unclear.

READER’S NOTEBOOK As you read each poem several times, jot down notes about specific stanzas or images that you think you

AQSH maktablarining yuqori sinflari uchun mo‘ljallangan A. Eplbi (Arthur Applebee) va boshqalar hammuallifligidagi “Jahon adabiyoti” darsligida (Boston, “McDougal Littell” nashriyoti, 2008) “Rumiy she’riyati” mavzusiga kirish oldidan so‘fiylik va so‘fiy she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha ma’lumot berish.

2. O‘qish – bu konstruktiv jarayon.

O‘qish davomida o‘quvchi matndan **ma’no yaratadi**. Matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchi muttasil ochiq aytilmagan (yashirin) ma’noni anglash, bo‘shliqlarni to‘ldirish, taxminlar (gipotezalar) yaratish va ularni matn asosida tekshirish jarayonlari asosida ma’no yaratadi.

Masalan:

Tongga yaqin onasining ingrayotganini eshitdi. Keyin otasi nimadir dedi. Tanchasovub qolgan, badani sovuqdan junjika boshlagan edi. Otashkurakni olib kulni titib qo‘ysa-ku, olam guliston, ammo erinchoqlik sovuqdan ustunlik qildi. Bu yumushni ertalab onasi bajarar edi.

Uchovlon tanchaning uch tomonida yotishardi. Hozir onasi narigi uyda ingrayapti, otasi nimadir deyapti. Sovuq uyda nima qilishyapti ekan?

-Uyg‘ondingmi, toychoq? -dedi dadasi ostonada turib.-Turaqol, ayangni kasalxonaga tashlab kelaman. Bugun qorbobo senga ham chana, ham uka olib keladiganga o‘xshaydi. Sen yaxshi bola bo‘lib o‘tirib tur.

(*Tohir Malik. “Shaytanat” qissasi 1-kitobdan*)

Ushbu parchadan o‘quvchi bolaning onasi homilador ekanligini, otasi uni tug‘ruqxonaga olib ketayotganligini anglashi mumkin, vaholanki matnda onaning homilador ekanligi va tug‘ruqxona haqida hech narsa deyilmagan.

3. O‘qish – bu strategik jarayon.

O‘quvchi matn bilan ishlash jarayonini nazorat qila oladi. U so‘zlar, ochiq aytilgan va ochiq aytilmagan fikrlar, o‘zining bilimlarini ishga solgan holda matndan ma’no yaratishi uchun turli strategiyalarni ishga soladi. O‘qib tushunish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan olima Sara Dauhauer (*Sarah Dowhower*) fikricha⁶, oq‘ilayotgan asarni tushunishga yordam beradigan strategiyalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- o‘quvchida mavjud bilimlarni faollashtirish;
- bashorat qilish;
- vizualizatsiya (voqeani xayolida tasavvur qilish);
- xulosa yasash;
- o‘z-o‘ziga savol berish;
- matnnning badiiy elementlarini tahlil qilish;
- ochiq aytilmagan yashirin ma’noni anglash;
- muhim ma’lumotni ajratib olish;
- sintezlash;
- monitoring qilish;
- noto‘g‘ri tushunchalarni to‘g‘rilash.

⁶Dowhower S. Supporting a Strategic Stance in the Classroom: A Comprehension Framework for Helping Teachers Help Students To Be Strategic. // The Reading Teacher, 1999, Vol. 52, No. 7, pp.673–683.

Shuningdek, o‘qilayotgan matnni boshqa asarlar va o‘zining hayotiy tajribasi bilan bog‘lash, solishtirish, o‘xshash va farqli jihatlarini qidirish hamda savol berish, o‘qilayotgan matn ustida mushohada yuritish, baho berish ham matnni tushunishga yordam beradigan muhim strategiyalarga kiradi. Adabiyot darslarida o‘qituvchi o‘quvchiga bu strategiyalarni o‘z o‘rnida va samarali ishga solishni o‘rgatishi mutolaa jarayonining samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Ukraina maktablarining 8-sinf uchun Y. Voloshuk va Y. Slobodanyuk hammuallifligidagi “Adabiyot” darsligida (Kiiev, “Geneza” nashriyoti, 2016) Servantesning “Don Kixot” romanini o‘rganishda vizualizatsiya strategiyasidan foydalanish.



О. Окамбо. Видение Дон Кихота
1. Рассмотрите репродукции картин и иллюстраций к роману Сервантеса. Какая из Дон Кихотов, созданных различными художниками, наиболее соответствует вашим представлениям об этом литературном персонаже? Какие грани этого литературного образа раскрывают художники?
2. Рассмотрите репродукцию картины О. Окамбо. Каких героев романа вы увидели?

88

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining adabiyot darslarida “kitobxon javobi” nazariyasi asosidagi yondashuvning ahamiyatini, bu yondashuvning o‘quvchilarning badiiy asarga mustaqil munosabatini shakllantirishdagi o‘rnini amaliy jarayonlar orqali ko‘rsatish maqsadidida Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti akademik litseyi 1-bosqich o‘quvchilari orasida so‘rovnoma o‘tkazildi. Buning uchun 10-sinf Adabiyot darsligida (akademik litsey o‘quv dasturiga ham kiritilgan) Said Ahmadning “Qorako‘z Majnun” hikoyasi tanlab olindi. So‘rovnomada 25 nafar o‘quvchi qatnashdi, shulardan 19 nafari qiz bola, 5 nafari

o‘g‘il bola. So‘rov nomaning maqsadi “kitobxon javobi” nazariyasi asosida shakllangan xulosalarini o‘zbek o‘quvchilari misolida tasdiqlash yoki rad etishdan iborat edi.

Bunda:

- o‘quvchi “Qorako‘z Majnun”dagi “yozilmagan” qismlarini o‘z dunyoqarashi, avvalgi bilimlari, hayotiy tajribasidan kelib chiqib to‘ldirishi;
- yaratgan talqinlarini yoki asar qahramoniga munosabatidan chiqargan xulosalarini matnga asoslangan holda izohlashi so‘raldi.



Qisqa syujetga ega bo‘lgan hikoya asosida o‘quvchilarga 6 ta savol berildi.

So‘rov natijalarini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

	Saodat aya nega Qorako‘zni qadrlar edi?	Erida n yodgor bo‘lgani uchun	Hayvon larni yaxshi ko‘rgani uchun	O‘ziga darddosh deb bilgani uchun	Uyini qo‘riqlagani uchun
		8%	16%	68%	8%
	Ayaning ichida “erimay qolgan muz” nima edi?	Erining vafot etgani	Bo‘rixonning dindan qaytgani	Hajga borolmagani	Bo‘rixonning musofirligi
		12%	60%	12%	16%
	Hikoyada sizga ko‘proq nima yoqdi?	Hikoyaning nomi	Hikoyaning syujeti	Qahramonlar nomi	Hikoyaning epigrafi
		32%	44%	12%	12%
	Bo‘rixonga qarama-qarshi qo‘yilgan obraz qaysi?	Abdumalik	Qorako‘z	Qumri	Bunday obraz yo‘q
		4%	68%	20%	8%
	Hikoyadagi qaysi	Qorako‘z	Saodat aya	Bo‘rixon	Qumri

	qahramon tebratuvchi kuchga ega?	20%	12%	68%	0%
	Qaysi voqealari sizni qattiq hayajonlantirdi?	Dindan chiqish	Ayaning vafoti	Itning o'limi	Baholashda qiynalaman
		32%	20%	40%	8%

Quyidagi diagrammalar hikoyaning o'quvchilarga hissiy jihatdan ta'siri qanday rang-barang bo'lganini va Bo'rixonning mana shunday noqobil bo'lib qolishida qaysi obrazni ko'proq aybdor deb bilishini ko'rishga imkon beradi.



Aksariyat o'quvchilar (92%) ushbu hikoya voqealari ta'sirchan, hissiyot uyg'otuvchi ekanligiga qo'shilishdi va Bo'rixonning o'z iymonini yo'qotishiga turli omillarni sabab qilib keltirishdi.

Demak, badiiy matnni o‘qish jarayonida har bir o‘quvchining hayoti va o‘qish tajribasi, e’tiqodi, fe’l-atvori, dunyoqarashi va kayfiyatiga asoslangan holda asarga, undagi voqeа-hodisalar va obrazlarga nisbatan o‘z fikri – o‘zining “shaxsiy asari” “tug‘iladi”.

Xulosa qilish mumkinki, “kitobxon javobi” yondashuvining adabiyot darslarida qo‘llanilishi:

- 1) adabiyot darslarida o‘quvchining **faolligini** oshiradi;
- 2) o‘quvchilar darslikdagi “asar haqida” kabi **qoliplangan** fikrlar yoki o‘qituvchining magistral qarashlariga bog‘lanib qolmaydi;
- 3) o‘quvchilarning asar haqidagi **o‘z talqinlarini** yaratishga imkoniyat beriladi;
- 4) o‘quvchida **mustaqil va erkin fikrlash** qobiliyatini shakllantiradi;
- 5) darsda o‘qituvchining aralashuvi cheklangan holda, o‘quvchilarning o‘qilgan asar yuzasidan fikrlarini **erkin** ifodalash, kitobxonning izohlari orqali badiiy matn ma’nosini konkretlashtirish, kitobxon tasavvurlari orqali badiiy matnning bugungi zamon uchun ahamiyatini aniqlashtirishga yordam beradi.

Retseptiv estetikani darslarda qo‘llash o‘zbek metodikasiga yangilik sifatida olib kirilishi o‘qituvchi uchun dars samaradorligini oshirishda, o‘quvchi uchun esa har birining ehtiyojlarini hisobga olgan holda matnlarni idrok etishdagi turli-tuman farqlarni o‘rganishda yordam beradi.

Adabiyot ko‘ngildan paydo bo‘lib, ko‘ngillarga singadi. Biz nimaniki o‘ylamaylik, bajarmaylik, buning negizini ma’naviyatga bog‘lab tushunadigan xalqmiz. Qalbimizdagi ana shu yuksak ma’naviy kuchning anglanishi, tanlanishi va hayotda o‘zini namoyon etishiga ona tilimiz va milliy adabiyotimiz betimsol quvvat baxsh etadi. Aslida ham o‘z hayotini umummilliy qarashlar tizimi asosida barpo etgan, ajdodlardan meros muqaddas buloqlardan suv ichib, tomir yozgan avlodlarni esa hech qanday kuch yengolmaydi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Konseptual masalalar nima?
2. O‘quvchilarning asosiy e’tiborini adabiy figuralar biografiyasi, yozgan asarlari haqidagi ma’lumotlarni yodlashga emas, konkret asar tahlili orqali ularning milliy va jahon adabiyoti ravnaqida tutgan o‘rni haqida tushunchalarni shakllantirishga qaratish?
3. “Asar haqida” orqali o‘quvchilarga o‘rganilayotgan asarning tayyor talqinlarni singdirishdan voz kechish, muayyan savol va topshiriqlar vositasida o‘quvchilarning asarga o‘z munosabatlarini shakllantirish?
4. Adabiyotning san’atning boshqa turlari, shuningdek, mакtabda o‘rganiladigan boshqa fanlar bilan integratsiyasini ta’minlovchi metodlarni tavsiya qilish.
5. Badiiy asar tahlilida o‘quvchi hayoti bilan aloqasini ta’minlash, o‘quvchining adabiyotni shunchaki fan sifatida emas, balki hayotiy ehtiyoji sifatida qarashga asoslangan metodlarni ishlab chiqish?

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirzayeva Z, Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Ana’aviylikdan zamonaviylikka. Toshkent, 2020.
2. Елена Станиславовна Романичева, Ирина Витальевна Сосновская. Введение в методику обучения литературе. Москва: Флинта, 2015.
3. Jack Snowman and Rick McCown. Psychology Applied to Teaching. Stamford: Cengage Learning, 2015

3-MAVZU. TALABALARНИ ADABIYOT SABOQLARIDA KREATIV FIKRLASHGA O’RGATISH YO’LLARI

REJA:

- 1. Kreativ (ijodiy fikrlash), mustaqil fikrlashga xos tamoyillar**
- 2. “Buni to‘g‘ri deb qabul qil” tamoyili**
- 3. Stereotip fikrlashning sabablari va uni bartaraf qilish**

O‘rganish uslublariga xos klassifikatsiyalar, badiiy tahliliga kulturologik yondashuv, badiiy tahlilda metatil tushunchasi, tranzaksiya nazariyasi, ta’limda integrativ yondashuv nazariyalari. Adabiyot o‘qitish samaradorligiga yerishishda talabalarning badiiy asarni tahlil qilish kompetentliliginin ta’minalash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Negaki, bo‘lajak filolog uchun har qanday badiiy matn mohiyatiga kirish, uning yozilgan va tekshirilayotgan vaqtidagi hayotiy hamda badiiy mantig‘i va estetik jozibasini ochishga qaratilgan hissiy-intellektual faoliyat ko‘rsata bilish Oliy ta’lim olish kechimidagi eng muhim natijadir.

Bugungi talaba dunyoqarashi, fikrlashi, voqelikka munosabati nuqtayi nazaridan kechagidan farq qiladi. Endi ular qolipga solingan, stereotip fikrlar, hokim qarashlar, o‘zlariga tanish ma’lumotlarni qayta bayon qilib berish singari yondashuvlar bilan murosa qila olmaydi. Agar adabiyot o‘quvchilar (o‘rganuvchilar) tasavvurida ularning hayotiy ehtiyojlari o‘laroq tasavvur hosil qilmas ekan, u zerikarli va quruq g‘oyalar majmui bo‘lib qolaveradi.

Oliy va o‘rta ta’limning asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchilarda **kreative va mustaqil fikrlash va tahlil qilish** ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir. Mustaqil fikrlash va tahlil ko‘nikmalari shakllangan o‘quvchi ongli ravishda o‘z kelajagini belgilay oladi, keyingi hayot yo‘llarida o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli ado eta oladi, “salla desa kallani ko‘tarib keladigan” ijrochi emas (bunday ijrochilar bilan mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini

ta’minlash imkonsiz), balki chuqur tahlil asosida muammolarga samarali yechim taklif qila oladigan mutaxassis bo‘lib yetishadi. Demak, umumiy ta’limda o‘qitiladigan har bir fan, shu jumladan, adabiyot ham **yuqoridagi maqsadga xizmat qilishi** – o‘rganuvchilarda kreativ, mustaqil va tanqidiy fikrlash, tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishi lozim.

Ingliz metodist olimlari Elli Chambers va Marshal Gregorining (*Ellie Chambers, Marshall Gregory*) ta’kidlashlaricha, bugun adabiyot o‘qitish, badiiy asarni o‘rganish endi avvalgidek “**buni to‘g‘ri deb qabul qil**”⁷ (*to get it right*) mezonlariga to‘g‘ri kelmaydi: o‘quvchi badiiy asar haqidagi talqinlarini o‘z dunyoqarashi, fikrlash, tafakkur darajasiga ko‘ra rivojlantira olish imkoniga egadirlar. Ammo o‘qituvchining uzoq yillar shakllangan “magistral” (yetakchi) huquqi aksar holatlarda o‘quvchilarning mustaqil, tanqidiy fikrlarini bag‘rikenglik bilan qabul qilishga monelik qiladi. Badiiy asarning mazmun mohiyati, tahlili o‘quvchilarning shaxsiy qarashlariga emas, balki o‘qituvchining umumiy xulosalariga yoki soha mutaxassislarining tayyor talqinlariga asoslanadi. “To‘g‘ri fikr” yoki “to‘g‘ri munosabat” – bu o‘qituvchining fikri, yoki qarashlari asosidagi yagona xulosadan iborat bo‘ladi⁸.

Muallif “buni to‘g‘ri deb qabul qil” tamoyilini XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Yevropa mamlakatlarida rivojlangan ta’limiy an’analardan biri sifatida baholasa-da, ayrim o‘qituvchilar o‘z “magistral huquqlar”ini fikriy erkinlik bilan aynanlashtirib, bu yondashuvdan hali-hanuz qutila olmaganlar.


Shu o‘rinda masalaning yana bir jihatiga e’tibor qaratish kerak lozim. Bugungacha uzliksiz ta’lim bosqichlarida amalda bo‘lgan aksar adabiyot darsliklarida “asar haqida” degan bo‘limning mavjud bo‘lishi an’ana tusiga kirgan edi. Asar mazmunining berilishi, biz yuqorida qayd etgan “buni to‘g‘ri deb qabul qil ” yondashuviga olib keladigan dastlabki faktorlardan biridir. “Asar haqida”gi

⁷ Chambers E., Gregory M. *Teaching and Learning English Literature*. London: “Sage Publications”, 2006, p.11.

⁸ Yuqoridagi manba.

ma'lumotning o'quvchi ongiga singishi, uni “to‘g‘ri deb qabul qilishi” mavjud ma'lumotning dominant (yetakchi) lik xususiyati undagi “boshqacha bo‘lishi mumkin” degan qarashiga monelik qiladi yoki eng kamida o‘quvchini fikrlashdan to‘xtatadi.

Yuqoridagi fikrlarimizning isboti sifatida Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabalari orasida o‘tkazilgan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini tahliliga qaratilgan so‘rovnama xulosalarini taqdim etish mumkin.



Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabalari orasida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini asosida o‘tkazilgan so‘rovnama natijalari

Yuqoridagi diagrammadan ko‘rinib turibdiki, birinchi kurs talabalarining deyarli hammasi “Kumush qanday obraz?”, “Zaynab obrazini qanday baholaysiz?” savollariga bir xilda “Kumush – ijobiy, Zaynab – salbiy” kabi javobni berishgan hamda asarga oid qarashlarining aksariyati maktab adabiyot darsliklarida berilgan “asar haqida”gi ma'lumotlarga asoslangan. Keyingi bosqichlarda esa badiiy asarga

munosabatning turfalashuv ko‘rsatkichi avvalgilarga qaraganda sekin astalik bilan o‘sib borgan.

Shu bilan birga, darsliklardagi adiblar haqidagi ma'lumotlarni va asar syujetidagi faktik detallarni eslab qolish va qaytarishga qaratilgan “Mirtemir hayoti va ijodi haqida so‘zlab bering”, “shoirning birinchi she’ri va to‘plami qanday nomlanadi”, “ular qachon e’lon qilingan?”, “shoir ijodidagi bosh mavzular haqida so‘zlang” singari sayoz, odamning tafakkuri va tasavvurini yuksaltirmaydigan, aksincha, badiiy didi va saviyasiga zang tushiradigan yuqoridagi kabi savol va topshiriqlar o‘quvchilarda “adabiyot, asar o‘qish, tahlil qilish faqat shunday ikir-chikirlarni esda saqlashdan iborat” degan munosabatni shakllantirdi. Bunday munosabatning shakllanishida Davlat test markazining “hissasi” ham katta bo‘ldi.

Meta-kognitiv qarashlar⁹ mualliflarining ta’kidlashicha, o‘quvchining hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, avvalgi olgan bilimlari, asar mutolaasi jarayonidagi emotSIONAL holati badiiy asarning yangi ma’nolarini yaratishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Demak, muayyan badiiy asarni o‘nta individual shaxs-o‘quvchikitobxon o‘n xil talqinini yaratishi mumkin. Shu bilan birga, mактабдан boshlangan stereotip ta’lim o‘qitishning keyingi bosqichlariga ham o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatib, o‘rganuvchilarining mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash imkoniyatlarini cheklab qo‘yayotir. O‘quvchilar bugun adabiyotni faqat oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun bo‘ladigan test sinovlariga tayyorgarlik nuqtayi nazaridan emas, balki o‘z tafakkuri, tasavvuri, didi, saviyasi, umuman, ma’naviy qarashlarini yuksaltirish maqsadi bilan o‘rganishiga erishish lozim.

Bugun ta’limi rivojlangan ko‘plab xorijiy mamlakatlarda adabiyot o‘qitilish, shu jumladan badiiy asar tahliliga yondashuvlarda bizdan farq qiladigan bir qator jihatlarini kuzatish mumkin. Ta’lim standartlari o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan kompetensiyalarni belgilaydi. Ulardagi kompetensiyalar aniq va obyektiv belgilanib, spiralsimon shaklda rivojlanib boradigan kichik kompetensiyalarga

⁹ Meta-kognitiv qarashlar xususida oldingi boblarda atroflicha to‘xtalgan edik.

bo‘linadi. Masalan, o‘quvchi asar syujetining tarkibiy elementlari, (perspektiva, retrospektiva, ...), badiiy asardagi stilistik figuralar (metafora, metonimiya kabi), ayrim epizodlarning badiiy matn mazmuniga ta’sirini izohlay olish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Shuningdek, standartlar o‘quvchida badiiy asarni to‘liq o‘qish ko‘nikmasini shakllantiradi. O‘quvchilarga mutolaa qilishi uchun tavsiya qilingan mualliflar va asarlar ro‘yxati beriladi. O‘qituvchi tavsiya qilingan ro‘yxatdagi adiblar hamda asarlarni o‘quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda o‘zi tanlaydi. Bunda o‘quv yili davomida o‘tilgan asarlar soni muhim rol o‘ynamaydi, tanlangan asarlar to‘liq o‘qiladi va badiiy matn atroflicha tahlil qilinadi. Ko‘plab g‘arb mamlakatlaridagi adabiyot darsliklarida “asar haqida” degan bo‘lim berilmaydi, balki savol va topshiriqlar vositasida o‘quvchining asarga munosabati shakllantiriladi. Savol va topshiriqlarning o‘quvchilarni asarga qiziqtirishi, asar mazmunini tushunishga tayyorlashi, badiiy matnni tushunish — tahlil qilishga, mustaqil fikrlashga, badiiy asar ustida chuqur mushohada yuritishga, adabiyotni san’atning boshqa turlari, boshqa fanlar va o‘quvchi hayoti bilan aloqasini ta’minalash, o‘quvchida og‘zaki va yozma nutqni, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga qaratilganligi bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Masalan, Angliya va Amerikada nashr qilingan aksar adabiyot darsliklarida “*Think critically*” (tanqidiy tafakkur), “*Connect to life*” (asarning hayot bilan bog‘liqligi) “*Extend interpretation*” (Keng ko‘lamli talqin) kabi qismlar mavjud bo‘lib, bularning barchasi o‘quvchining tafakkuri rivojiga xizmat qiladigan savol va topshiriqlardan iborat bo‘ladi¹⁰. Ularda badiiy matn bilan ishslashning muayyan bosqichlari (asarni o‘qishdan oldin, o‘qish davomida va o‘qishdan keyin) mavjud. Har bir bosqichning o‘z maqsadi va uslublari bor¹¹

O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi bugun “mahalliy” o‘qitish strategiyalardan o‘qituvchi va o‘quvchining adabiy ta’lim haqidagi fikrlarini

¹⁰ Applebee Arthur N., Bermuder Abdrea B., et al. *World Literature*. Illinois, “Evanston”, 2008.

¹¹ Badiiy asar bilan ishslash bosqichlari va strategiyalari, uning nazariy asoslari haqida darslikning oldingi bo‘limlarida so‘z borgan edi.

tiniqlashtirishga xizmat qiladigan global yondashuvlar tomon qadam tashlashi, adabiy matnni qanday va nima uchun o‘rganish kabi muammolarni masala qilib qo‘yishi hamda badiiy asar mazmunini chuqurroq tushunishga olib borish yo‘llarini kashf etishni talab etadi.

Ma’lumki, badiiy estetik jihatdan san’at darajasiga ko‘tarilgan, chuqur ijtimoiy g‘oyaviy mazmunga ega badiiy asarlarga o‘quvchilar tafakkuri, dunyoqarashi va adabiyot haqidagi fikrlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu borada o‘zbek adabiyoti ta’limidagi murakkab va keng qamrovli muammolardan biri uzviylik va uzlusizlikni mantiqan to‘g‘ri ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek adabiyoti ta’limida mazmuniy uzviylikni ta’minlashda, tabiiyki, o‘quv-uslubiy adabiyotlar, darsliklar sifatini yaxshilash, adabiyot fanidan beriladigan bilimlarning bosqichlararo uzlusizligini ta’minlash lozim. Bundan tashqari, o‘quvchilarning yosh xususiyatini ham hisobga olish zarur. Ushbu masalaning samarali yechimlari — adabiyot fanlarini integratsiyalash va uzviylikka yordam beradigan o‘qitish turlarini aniqlashda ham aks etadi.

O‘zbek adabiy ta’limida o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib uzviylik va uzlusizlikni ta’minlashda o‘rganuvchining ehtiyojlarini ham e’tiborga olish kerak, degan fikrdamiz. Misol uchun, yuqori sinflar dasturiga kiritilgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik” (“Saodatga eltuvchi bilim”) asari turkiy adabiyotning ilk namunasi, o‘z davridagi ilg‘or ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy masalalarni ramziy obrazlar vositasida badiiy talqin qilgan asar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Yoki Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi “Layli va Majnun”, “Saddi Iskandariy” kabi dostonlar badiiy-g‘oyaviy xususiyatlari bilan o‘zbek klassik adabiyotining shoh asarlari sanaladi. Insoniyat taraqqiyotida, jahon adabiyoti, san’ati va madaniyati rivojida alohida o‘ringa ega bo‘lgan, har bir kitobxon mutolaa qilishi zarur deb hisoblangan milliy va jahon adabiyoti durdonalarining o‘quv rejadan o‘rin olishi har jihatdan to‘g‘ri va shunday bo‘lishi ham kerak.

Ammo ko‘p holatlarda ta’lim standartlarida mavjud tanlanma figuralar o‘quv rejasi mualliflarning badiiy asarga individual munosabati, muayyan asar muallifiga simpatiyasi, qiziqishlari va ularni “bilishi kerak” nuqtayi nazaridagi shaxsiy qarashlari asosida tavsiya qilingan. Ma’lumki, 17 yoshli o‘quvchining ma’naviy ehtiyoji, qiziqishlari 30-40 yoshli kitobxonnikidan farq qiladi. O‘qituvchi “qiziq” deb bilgan badiiy asar uning o‘quvchisi uchun ahamiyatsiz bo‘lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan uzliksiz ta’lim bosqichlari uchun o‘quv rejalar shakllantirilayotgada muayyan usullar (masalan, so‘rovnomalar, individual tartibdagi suhbatlar) orqali o‘quvchilarning qiziqishlari, ular olami, dunyoqarashiga yaqin asarlarni taqdim etish masalasini ham e’tiborga olish lozim bo‘ladi. Masalaga bunday yondashuv, birinchidan, badiiy asar va o‘quvchining real hayotiy, ma’naviy ehtiyoji o‘rtasidagi mutanosiblikni vujudga keltiradi va bu adabiyot darslarini yanada qiziqarliroq, jonliroq bo‘lishini ta’minlaydi. Ikkinchidan, ta’lim bosqichlarida badiiy asar mutolaasiga erkin yondashuv shakllanadi.

Bugungi yoshlar virtual olamda ulg‘ayaptilar. Virtual, texnika olamining bir qancha ijobjiy xislatlari barobarida uning salbiy oqibatlari ko‘plab balog‘at yoshidagi farzandlarimizni “siylab” o‘tayotgani ham ma’lum haqiqat.

O‘n yetti, o‘n sakkiz yosh inson hayotining eng muhim pallasi, eng toza tuyg‘ular ko‘z ochayotgan davri hisoblanadi. Bu davrda ular umid va umidsizlik, topish va yo‘qotish, sevgi va nafrat, sadoqat va xiyonat, qadriyat, insoniylik kabi masalalar mohiyatini to‘g‘ri va atroflicha anglashga ehtiyojmand bo‘ladilar. Ko‘pchiligi esa “pul hamma narsani hal qiladi” qabilidagi noto‘g‘ri qarashlarga ergashib boshi berk ko‘chalarga kirib qoladi. Moddiylik g‘am alamni, gunohni, yo‘qotishlarni, umidsizlik bilan bog‘liq muammolarni hal qila olmasligini anglashda ulardagi hayotiy tajriba yetmaydi. Mana shunday davrda yoshlar ongidagi ma’naviy bo‘sqliqni adabiyot to‘ldiradi. Adabiyot ularga najot quroli bo‘lib xizmat qiladi. Zotan so‘z san’ati insoniyatning og‘ir kechmishi, qirg‘in va

halokatida unga ozodlik, erkinlik, o‘zlikni anglash kabi eng ulug‘ tuyg‘ularni in’om etib, muallimlik qilishi isbotlangan.

Hayot hech kimga “qanday qilib” degan savolga javob bermaydi, shuningdek, inson muammolarining yechimiga ko‘rsatmalar berish imkoniga ham ega emas. Badiiy asar, jumladan roman, hikoya yoki drama ham bugun yoshlarimizni o‘rab olayotgan muammolarni bartaraf etish imkoniga ega emas. Aniqroq qilib aytganda, adabiyot davolash shakli emas, balki **o‘rganish vositasidir**. Chunki asarlarda savob va gunohlar, hayotiy yo‘qotishlar,adolat, yaxshilik, yomonlik va yana bir qancha umuminsoniy xususiyatlar aks etgan voqeа hodisalar bayon qilinadi. Keng doiradagi nuqtayi nazarlar, konsepsiylar, munosabatlar, tushunchalar eshigini ochadiki, badiiy asarda aks etgan voqeа hodisalar orqali o‘quvchi eng kamida o‘zini taftish etish, tahlil qilish majburiyatini his qiladi, hayot haqidagi chalkash tushunchalarning asl mohiyatini anglaydi. O‘zi sevib, ma’naviy-ruhiy ehtiyoji o‘laroq mutolaa qilgan badiiy asar namunasi va undan olgan xulosalari o‘quvchining hayot haqidagi qarashlarini, konsepsiylarini tartibga solishda, to‘g‘ri tushunchalar strategiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asar orqali o‘quvchi yangi dunyoni ko‘rishni o‘rganadi.

Adabiyot darslarida “nima uchun bu asarni o‘qishimiz kerak?” yoki “falon asar o‘rniga falon asarni o‘rgansak bo‘lmaydimi?” degan savollarni ko‘p eshitamiz. O‘qituvchining mazkur savolga javobi – o‘quvchining notanish badiiy asarga mehr muhabbatini uyg‘otishga bo‘lgan dastlabki qadam. O‘qituvchining savolga munosabati o‘quvchilarni adabiyotga yaqinlashtirish va ularni badiiy asarga bog‘lashga, qiziqishini orttirishga rag‘bat berishi kerak. Zotan adabiyot o‘qituvchisi boshqa fan o‘qituvchilariga nisbatan maxsus intizom va tartibga, muayyan kognitiv maqsadlarga ega bo‘ladi. Uning eng muhim, fundamental maqsadlaridan biri mudom ma’naviy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishda bo‘lishdan iboratdir. Adabiyot o‘qituvchisi bergen ta’lim rag‘bati yoki Qodiriy, Cho‘lpon, Tolstoyni o‘qish jarayonlaridagi ta’limiy yondashuvlar ularni bir kun kelib adabiyot o‘qituvchisi bo‘lish orzulariga katta turtki beradi. Adabiyot fani

yozuvchilar va ularning asarlari haqidagi tayyor ma'lumotlarni yod olishga o'rgatishi emas, balki **badiiy matnni tushunish, tahlil qilish va unga baho berish** singari fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishi, shu bilan birga, o'quvchilarda **tanqidiy va ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish, hamkorlikda ishlash** singari muhim hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish, **empatiyaga** (birovning quvonch va g'amiga sherik bo'la olishga) o'rgatish, **emotsional intellektini** rivojlantirish, turfa **olamlar va madaniyatlar** eshigini ochishga xizmat qiladigan fan bo'lmog'i lozim. Badiiy matn boshqa turdag'i matnlardan (darsliklar, ensiklopediyalar, ma'lumotnomalar va hokazo) tubdan farq qilishini va bu farqlar badiiy asarni o'qish jarayoniga ham ta'sir qilishini nazardan qochirmasligimiz lozim. Badiiy matnni **bir xil tushunishi va bir xil talqin qilish** nafaqat o'quvchi tafakkurini o'tmaslashtiradi, balki asarning badiiy-estetik qiymatini ham yo'qqa chiqaradi. Adabiyot saboqlarida badiiy tahlilning rang-barang usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq. O'qituvchi muayyan asar tahlili yuzasidan barcha o'quvchilarning bir xil fikrga kelishiga yoki darslikdan, o'qituvchidan olgan ma'lumotlarini qaytarish bilan cheklanishiga yo'l qo'ymasligi lozim. Ayni bir badiiy hodisadan o'quvchilarning **turlicha estetik-axloqiy ma'no** topishlariga imkon yaratish bolalarning betakror shaxs sifatida shakllanishiga omil bo'ladi.

Umumiyligi o'rta ta'lim dasturida asosiy fanlardan biri bo'lgan adabiyot fani orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, voqeа-hodisalarga faol munosabatda bo'lish, ularga baho berish ko'nikmalarini shakllantirishi uchun quyidagilarga e'tibor qaratish tavsiya qilinadi:

- ta'limiy maqsadlarni **aniq** ifodalash va o'quv jarayonidagi **topshiriqlarni** shu maqsad sari yo'naltirish. Misol uchun, umum o'rta ta'lim maktabalarining 10-sinf yangi avlod Adabiyot darsligida XVII-XIX asarlar jahon adabiyotining yoqrin namoyondasi Aleksandr Pushkinning "Yevgeniy Onegin" she'riy romani berilgan. Mazkur she'riy romanni tahlil qilishdan maqsad asarda aks etgan jamiyat hayotini

ko'rsatish, Onegin obrazidagi qarama-qarshiliklar va undagi dinamik o'zgarishlarni tadqiq qilishdan iborat. Asar bilan bog'liq topshiriqlar ham asosan shu maqsadlarga xizmat qiladi: asar yaratilgan tarixiy davr va muallif bilan tanishish jarayonida o'quvchilar erkin va bo'g'iq jamiyatning farqlarini, jamiyatning insonga ta'sirini muhokama qiladilar. Mutolaa jarayonidagi va undan keyingi savollar va topshiriqlar ham, yakunlovchi loyiha ("ortiqcha odam" tushunchasini tahlil qilish) ham o'quvchilarga Pushkin davri jamiyatiga xos xususiyatlar, jamiyatning Onegin singari vakillarga ta'sirini yaxshiroq tushunishlariga va bugungi kun bilan bog'lashlariga yordam beradi.

- kompetensiyaviy **baholash** tizimini yo'lga qo'yish. Baholash ta'lim dasturlarida belgilangan maqsad va vazifalarga qay darajada qay darajada erishilganligi, o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar qay darajada shakllanganligini ko'rish imkonini berishi kerak.

- o'quv materiallari va ularning zamiridagi metodikaning o'quvchilarni fanga **qiziqtira** olishi, o'quvchilarda fanning oldiga qo'yilgan vazifalarga erishishda yordam berishi. O'quvchi uchun eng asosiy o'quv materiali bo'lgan Adabiyot darsligi shunchaki fanga oid ma'lumotlar yig'indisi emas, balki o'quvchi bilan interfaol dialogga kirishib, unda kompetensiyalarni shakllantirishda yordam bera oladigan vositaga aylanishi talab qilinadi.

Mavzuni boshlashdan oldin o'quvchilarning tarix darslarida va mustaqil o'rganganlari asosida o'rganilayotgan davr va madaniyat haqidagi bilimlarini faollashtirib olish, asar matni bilan ishslashda esa uning tili, uslubi, xalqning turmush tarzi bilan bog'liq o'rinlarga o'quvchilar e'tiborini qaratish, lozim o'rinlarda izohlar berib borish tavsiya qilinadi. Shuningdek, bu borada o'quvchilardan kuzatuvlarini qayd qilib borishni so'rab, matn bilan ishlab bo'lgandan keyin muhokama qilish mumkin.

Badiiy asar tahlilida faktologiyaga urg'u berish, yodlash, adabiyot darslarini xotirani mustahkamlash vositasiga aylantirish bugungi kunda ko'plab ta'lim

muassasalaridagi adabiyot o‘qitishning asosiy elementi bo‘lib kelmoqda, chunki ko‘plab soha mutaxassislarning fikricha, o‘rganish jarayonida fakt va ma’lumotlar inson miyasining ishlash jarayonini faollashtiradi. Ammo ta’kidlash lozimki o‘rganuvchilarga taqdim etilayotgan ma’lumotlar :

- ularning ongida mavjud (saqlab qolingan) ma’lumotlarga yaqin, tushunarli bo‘lishi;
- darsni “ma’lumotlar bazasi”ga aylantirib yubormasligi;
- taqdim etilgan faktlar konseptual bilimlarni yaratishga xizmat qilishi;
- yangi va avvalgi bilimlari o‘rtasida ko‘prik hosil qilishi lozim.

Demak, o‘quvchilarda badiiy asarga mustaqil munosabatini shakllantirish, adabiyot darslarini badiiy asar matni bilan faollashtirishda berilayotgan ma’lumotlar me’yorida bo‘lishi va u(lar) o‘quvchining yangi bilimlarni samarali o‘zlashtirishlariga xizmat qilishi lozim. Xususan, Fitratning “Abulfayzon” dramasini tushunish, asar asosidgai konseptual bilimlarni o‘zlashtira olishi uchun o‘quvchilarga quyidagi faktik ma’lumotlarni berish yoki ularda mavjudlarini faollashtirish muhim hisoblanadi:

- Fitrating 1924-yildan keyingi milliy chegaralanishdagi va Turkiston jadidchilik harakatlaridagi o‘rni.
- Muallif shaxsiyatidagi muhim qirralar: Fitrat turli xil yuksak lavozimlarda faoliyat olib borgan va kuchli siyosatchi, diniy va dunyoviy bilimlar egasi va iqtidorli shaxs sifatida nafaqat Turkistonda balki boshqa xorijiy mamlakatlarda ham hurmat qozongan. Milliy va jahon (masalan Germaniya kutubxonalarida saqlanayotgan arxiv manbalar, Fitratning qizi Mahbuba Rahimovaning bergen ma’lumotlariga ko‘ra, “Fitratning “Hind ixtilochilari” dramasi hind tiliga ham tarjima qilinib, Hindiston teatrlarida namoyish etilgan. Javahar Neru O‘zbekistonga kelganida Fitratning mazkur

asari Hindistonning ozod bo‘lishida juda katta ahamiyatga ega bo‘lganligini aytgan ekan.

“Abulfayzxon” dramasini tarixiy kontekstni bilmay anglash mushkul. Asar 1601-1756-yillarda Buxoro xonligini boshqargan ashatarxoniyalar sulolasining so‘nggi hukmdori Abulfayzxon davri haqida bo‘lgani uchun o‘quvchilarni ushbu davrga oid tarixiy faktlar bilan tanishtirish yoki ularning mazkur mavzu doirasidagi bilimlarini faollashtirish lozim bo‘ladi. Ma’lumki, Abulfayzxonning davlat boshqaruvidagi zaifligi, toju-taxtga kuchli “muhabbat” i sabab o‘lkada zulm, xunrezliklar,adolatsizliklar, shafqatsizliklar avj oldi. Eron hukmdorlarining qo‘rg‘irchog‘iga aylandi. Mustaqil fikrga ega bo‘lmagan, taxt uchun o‘z akasi, yaqinlari, sadoqatli do‘stilarining qotiliga aylangan xon, alaloqibat, o‘zi ham mudhish fojeaga yuz tutadi.

Yuqoridagi faktik ma’lumotlar, avval ham ta’kidlaganimizdek, o‘quvchilarni asarga tayyorlash uchun muhim, ayni paytda o‘qituvchi mana shu faktik bilimlardan sekin astalik bilan konseptual masalalar tahliliga o‘tishi, o‘quvchilarning ongini katta-katta g‘oyarlar, asarning truli xil talqinlarini yaratishiga zamin bo‘lishi kerak.

Adabiyot darslarida mustaqil fikrlashni rivojlantrish bilan birga tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bugunning muhim vazifasi qatoriga kiradi.

XXI asr kishisi uchun muhim ko‘nikmalardan biri bo‘lgan tanqidiy fikrlashni adabiyot darslariga singdirish quyidagilar ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi:

- muayyan badiiy asar haqidagi avvalgi fikrlar tasdig‘i va inkorini matn orqali tekshirish, mavjudlarini qayta ko‘rib chiqish yoki tajribalar asosida yangilarini yaratish;

- ochiq qolgan savollarga javob izlash, badiiy asarni bugungi kun talablari, zamonaviy tahlil usullari nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqish va eski talqinlar bilan qiyoslash;
- ma’lumotlarni turli xil kontekstlarda tekshirish, sharhlash, asardagi sabab va oqibat zanjirini turli xil nuqtai- nazarlardan baholash, mulohaza yuritish, mantiqli qarorlar qabul qilish, fikrlarini dalillash kabilar o‘quvchilarda mustaqil va ayni paytda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim omil bo’lib xizmat qiladi.



Manbalar bilan ishlash

O’rta maktablarning 10-sinfi uchun 2017-yilda chop etilgan yaratilgan “Adabiyot” darsligidan (tuzuvchilar: B.To’xliyev, B.Karimov, K.Usmonova, “O’zbekiston milliy ensiklopoediysi” nashriyoti, Toshkent, 2017-yil) “O’tkan kunlar” romanidan olingan boblar haqida” bo’limini hamda mazkur bo’limdan keyingi savol va topshiriqlarni tahlil qiling. “O’tkan kunlar” romanidan olingan boblar haqida” bo’limi qanday metodik maqsadlarga xizmat qilmoqda? Qaysi savol va topshiriqlar o‘quvchining mustaqil fikrlashini rag’batlantiradi? Siz qaysi savol va topshiriqlarni almashtirgan bo’lar edingiz?



NAZORAT SAVOLLARI:

1. O‘quvchilarning asosiy e’tiborini adabiy figuralar biografiyasи, yozgan asarlari haqidagi ma’lumotlarni yodlashga emas, konkret asar tahlili orqali ularning milliy va jahon adabiyoti ravnaqida tutgan o‘rni haqida tushunchalarni shakllantirishga qaratish?

- 2.“Asar haqida” orqali o‘quvchilarga o‘rganilayotgan asarning tayyor talqinlarni singdirishdan voz kechish, muayyan savol va topshiriqlar vositasida o‘quvchilarning asarga o‘z munosabatlarini shakllantirish?
- 3.Adabiyotning san’atning boshqa turlari, shuningdek, mакtabda o‘rganiladigan boshqa fanlar bilan integratsiyasini ta’minlovchi metodlarni tavsiya qilish.
- 4.Badiiy asar tahlilida o‘quvchi hayoti bilan aloqasini ta’minalash, o‘quvchining adabiyotni shunchaki fan sifatida emas, balki hayotiy ehtiyoji sifatida qarashga asoslangan metodlarni ishlab chiqish?

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirzayeva Z, Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Ana’aviylikdan zamonaviylikka. Toshkent, 2020.
2. Елена Станиславовна Романичева, Ирина Витальевна Сосновская. Введение в методику обучения литературе. Москва: Флинта, 2015.
3. Jack Snowman and Rick McCown. Psychology Applied to Teaching. Stamford: Cengage Learning, 2015
4. Childs P. and Fowler R. *The Routledge Dictionary of Literary Terms*. London: “Routledge”, 2006.

4-MAVZU. BADIY MATN BILAN ISHLASHNING INTERFAOL USULLARI

Reja:

1. Badiiy matnga xos xususiyatlar;
2. Badiiy asarni tushunish tamoyillari;
3. “Kitobxon javobi” nazariyasining badiiy asar anglovidagi ahamiyati;
4. Tahlilda kontekstning o’rni

Ta’limni individuallashtirish va personallashtirish masalalari, ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi, “talaba (o’quvchi) – faol” yondashuvi, kitobxon javobi (retseptiv yestetika) nazariyasi. Interfaol metodlardan foydalanish ta’limni faqat fanlar asosida emas, balki obyektiv ochunning o’zidagi kabi sinkretik yo’sinda tashkil etishni ko’zda tutadi. Bunda o’rganuvchi va o’rgattuvchi o’quv fani tushunchasidan baland turishi talab etiladi. O’qituvchi-professor talabalar oldiga ularni o’rab turgan real borliqdagi haqiqiy muammolarni qo’yishi, buning uchun hayotda ko’p uchraydigan va manbalardan topish mumkin bo’lgan masalalarni didaktik topshiriq sifatida berishi kerak. Agar bu xildagi muammolarni talabalarning o’zлari tavsiya etsalar, yanada yaxshi bo’ladi. O’quvchilarining oldiga qo’yilayotgan muammo o’ylab topilgan sun’iy yoki izlanishga arzimaydigan darajada kichik bo’lmasligi kerak.

Badiiy asar – badiiy ijod mahsuli bo’lib, unda muallif so‘z vositasida inson his-tuyg‘ulariga ta’sir qilish orqali o‘zining maqsadini ifodalaydi.

Oksford nashriyotining adabiyotshunoslik atamalari izohli lug‘ati¹² badiiy asarning uch asosiy **mezonini** keltiradi:

- to‘qimalilik, ya’ni asar muallifning badiiy to‘qima mahsulidir;
- kreativlik, ya’ni muallif asardagi voqeа-hodisalar, his-tuyg‘ular

¹²Qarang: Baldik C. *The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms*. 2nd ed. Oxford: “Oxford University Press”, 2011.

bayoniga ijodiy yondashadi;

- badiiy qiymat, ya’ni asar so‘z san’ati namunasi sifatida badiiy qiymatga bo‘lishi lozim.

Rautlej (Routledge) nashriyotining adabiyotshunoslik atamalari izohli lug‘ati¹³ esa **to‘qimalilikni** badiiy asarni boshqa turdag'i asarlardan (masalan, ilmiy yoki publitsistik asarlardan) farqlovchi **asosiy mezon** sifatida keltiradi. Demak, badiiy asarda tasvirlangan voqelik muallifning tasavvuri mahsuli o‘laroq reallikka da’vo qilmaydi.

N. Brodskiy va boshqalar tahriri ostidagi adabiyotshunoslik atamalari izohli lug‘atida¹⁴ badiiy adabiyotning quyidagi **xususiyatlarini** keltiradi:

- badiiy adabiyotdagi voqelik real hayotdagi voqelikning aynan takrori emas;
- badiiy adabiyotdagi voqelik betakror – o‘quvchi asarni har safar o‘qiganda bu voqelikni boshqacha qabul qiladi;
- badiiy adabiyotdagi voqelik real hayotdagi voqelikdan ihota qilingan;
- real voqelik inson tafakkuridan tashqarida ham mavjud, badiiy adabiyotdagi voqelik esa faqat inson tafakkurida mavjud bo‘ladi;
- badiiy adabiyotdagi voqelikni yaratgan muallif ma’lum bir maqsadni ko‘zlagan bo‘ladi.

Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani misolida badiiy asarning yuqorida keltirilgan xususiyatlarini tahlil qilishimiz mumkin:

- asar ma’lum bir real tarixiy zamon va makon (Rossiya istilosи arafasida Qo‘qon xonligi) haqida bo‘lsa-da, unda tasvirlangan voqealar tarixiy voqealarning ayni bayoni emas, hatto Toshkent qamali, qipchoq-qorachopon mojarosi, Musulmonqulning o‘limi singari tarixiy voqealar bayonida ham badiiy to‘qima ustunlik qiladi;

¹³Qarang: Childs P. and Fowler R. *The Routledge Dictionary of Literary Terms*. London: “Routledge”, 2006.

¹⁴Qarang: Язвицкий В. И., Столяров М., Локс К. *Литературная энциклопедия: Словарь литературных терминов: В 2-х т. М.-Л.: “Изд-во Л. Д. Френкель”, 1925. Стр.1070.*

- kitobxon asarni har safar qayta o‘qiganida romandagi voqealarni boshqacha tasavvur qiladi, voqealarga va qahramonlarga munosabati qaysidir ma’noda o‘zgaradi – aks holda asarga qayta murojaat qilmasdi;
- asarda tasvirlangan davlat (Qo‘qon xonligi) siyosiy xaritada hozir mavjud emas, zamon ham, makon ham o‘zgargan, lekin kitobxon har safar asarga murojaat qilganda o‘zini o‘sha davrga, o‘sha makon va o‘sha odamlar orasiga tushganday his qiladi;
- Qo‘qon xonligi degan davlat, Musulmonqul, Xudoyorxon singari tarixiy shaxslar tarixda mavjud bo‘lgan, lekin aynan Qodiriy tasvirlagan zamon, makon, shaxslar faqat asar mutolaasi jarayonidagina anglanadi, har bir kitobxon ularni har xil idrok qiladi – romanni o‘qigan har bir kitobxonning o‘z Marg‘iloni, Toshkandi, Otabegi, Kumushi, Musulmonquli bo‘ladi;
- Qodiriy romanni yozayotganida uning maqsadi faqat voqealar, makon va zamonni tasvirlash bo‘lmagan, u o‘zi yashagan davr talablari, o‘zining shaxsiy qarashlaridan kelib chiqib ma’lum bir maqsadni ko‘zlagan va asardagi barcha vositalarni shu maqsad sari yo‘naltirgan.

Badiiy asarning muhim jihatlari **to‘qimalilik, emotSIONallik** va **subyektivlikdir**, ya’ni badiiy matn muallifning tasavvuri mahsuli o‘laroq o‘quvchining his-tuyg‘ulariga ta’sir qiladi. O‘quvchi badiiy asarni mutolaa qilishdan maqsadi undan ma’lumot olish yoki asar syujeti va qahramonlariga oid detallarni eslab qolishdan iborat bo‘lmaydi. Masalan, Bobur hayoti va siyosiy faoliyati haqida ilmiy tadqiqot qilayotgan mutaxassis Pirimqul Qodirov yoki Xayriddin Sultonovning Boburga bag‘ishlangan romanlariga emas, balki “Boburnoma”ga va Bobur haqida yozilgan ilmiy asarlarga murojaat qiladi.

Quyida keltirilgan matnlarni solishtiring:

1-matn

Xo‘jand shahri Sirdaryo ikkiga ayrilgan yerda joylashgan edi. Uning tabiiy joylashishi hamda shahar hokimi Temur Malikning qahramonligi bilan xo‘jandliklar mo‘g‘ullarga kutilmagan qarshilikni ko‘rsatadilar. Xo‘jand shahri himoyachilari Temur Malik boshchiligidagi qariyb bir oy davomida o‘z shahrini mudofaa qiladilar. Oxiri ilojsiz qolganda o‘t ichida qolgan shahar qal’asini ming nafarga yaqin bahodir tark etib, Temur Malik bilan Sirdaryo o‘rtasidagi orolda joylashib olib, dushman bilan mardlarcha olishdilar. Nihoyat, maxsus kemalar yasab, daryo oqimi bo‘ylab, Xorazm tomon suzib ketdilar. Yo‘l-yo‘lakay dushman bilan jang qildilar. Xalq qahramoni Temur Malikning bundan keyingi vatanparvarlik jasorati Xorazm va ona yurtining boshqa hududlarini himoya qiluvchilar safida kechdi.

(A. Muhammadjonov. O‘zbekiston tarixi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinf uchun darslikdan)

2-matn

Shu kecha osmonda bulut paydo bo‘lib, charaqlab turadigan yulduzlar ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Oy ham qoramtilr quyuq bulutlar orasidan ba’zan Temur Malik sarkardaning dimishqiy qilichidek yarqirab ko‘rinib qolardi. Tun qorong‘ilagini panoh etib, oroldagi yigitlar o‘n besh manjaniqni qirg‘oq – daryo bo‘yiga qator tizib, beliga moyli lattalarni arqon bilan mahkam bog‘lagan xarsangtoshlar uyib qo‘yildi. Yarim tunda Shohmurod Ko‘histoniy boshchiligidagi ikki kemaga yigirmaga yaqin sarboz o‘tirib, orolning yuqori tomonida payt poylab turishdi. Orolning quyi tomoniga terib qo‘yilgan manjaniqlarga xarsang qo‘yilib, o‘rtada yonib turgan gulkanga kosov tiqib, yondirib, xarsanglarni o‘t oldirib, manjaniqlarni otisha boshlashdi. Qattiq egilgan archa taxtasi olovli toshlarni daryo ustidan o‘tkazib, dushman borgohini otashbo‘ron qilisha boshlashdi. O‘n besh manjaniqdan tinimsiz otilib turgan olovli xarsanglar mo‘g‘ullarni vahimaga soldi.

Xarsanglar yerga tushib, ancha vaqtgacha yonib turardi. O’tov tepasiga tushganlari tosh namatni yorib kirib o’t oldirardi, otlar hurkib to’rt tomonga qochardi. Dushman sarosimaga tushib, bezovta bo’lgan otlarini ushlab, yonayotgan o’tovlarini suv sepib o’chirayotgan bir paytda shiddat bilan daryoning narigi qirg’og‘iga o’tib ketgan ikki kemani dushman payqamay qoldi.

Mirmuhsin. “Xo’jand qal’asi” romanidan

3-matn

Sen Xo’jandsan,

Chingizlarga

Darvozasin ochmagan,

Temur Malik orqasidan

Sirdaryoga sakragan,

Muqannasan qorachig‘i

Olovlargacha sakragan,

Shiroqlarni ko’rgan cho’pon

Cho’lig‘imsan, Vatanim.

Muhammad Yusufdan

Birinchi matnning maqsadi – ma’lumot berish, o’quvchi uni konkret ma’lumot olish maqsadida o’qiydi, bunda matndagi ma’lumotning to‘g‘riliği muhim ahamiyat kasb etadi va bu ma’lumotni turlicha talqin qilib bo‘lmaydi: o’quvchining matnni tushungan yoki tushunmaganligini matn asosida savollar berib, o’quvchi berayotgan javoblarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘rililiga qarab bilish mumkin. Ikkinci matn esa o’quvchi tasavvurida muayyan manzarani gavdalantiradi, lekin matnni o’qigan har bir o’quvchi bu manzarani har xil tasavvur qiladi. Matnda tasvirlangan voqeа tarixda bo‘lib o’tgan, lekin uni aynan muallif

tasvirlagan tarzda sodir bo‘lgan deya olmaymiz, matnni o‘qiyotgan o‘quvchi uchun ham bu ahamiyatsiz, chunki u asarni ma’lumot olish maqsadida o‘qimaydi. Uchinchi matn ham o‘quvchi his-tuyg‘ulariga ta’sir qiladi, tasavvurini jonlantiradi.


Demak, badiiy matn bilan ishslashda avvalo uning boshqa turdagи matnlardan **farqlarini** ajarat olish lozim. Bundan tashqari, badiiy asarni o‘qish yoki o‘qitishdagi **maqsadlar** boshqa turdagи matnlarni o‘qish yoki o‘qitishdagi maqsadlardan tubdan farq qilishini ham hisobga olish kerak. Asarning turfa talqinlarini odatiy holat va turfa qarashlar, turfa tafakkur egalarining nuqtai nazarlari sifatida qabul qilmoq darkor. Shu nuqtayi nazardan, adabiyot darslarida o‘qituvchi e’tiborni asardagi ma’lumotlarni o‘quvchilarga yodlatish yoki o‘quvchilarga asarning ma’lum bir talqinini yagona maqbul talqin sifatida singdirishi emas, balki ularga asar matni bilan ishslash asnosida **badiiy matn, bilimlari va hayotiy tajribalari hamda kontekstdan kelib chiqqan holda individual talqinlarini yaratishga yordam berishi** lozim.

Adabiyotshunoslikdagi “**kitobxon javobi**” (ayrim manbalarda “retseptiv estetika” deb nomlanadi) nazariyasining adabiy ta’limga tatbiqi badiiy asarning o‘ziga xos xususiyatlarini yuzaga chiqarishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. “Kitobxon javobi” nazariyasini (inglizcha *reader-response theory*) olib kirgan olimlardan biri, nemis adabiy tanqidchisi Wolfgang Izer (*Wolfgang Iser*) fikriga ko‘ra, asar **yozilgan** va **yozilmagan** qismlardan tashkil topadi. Kitobxon asarni o‘qish jarayonida muayyan savollarga javob kutadi, ammo ko‘p holatlarda kitobxon badiiy asardan kutgan narsasini to‘liq olmaydi, boshqacha qilib aytganda, muallif savollarga javoblarni ochiq qoldiradi, ochiq qolgan bo‘shliqlarni, asarning yozilmagan qismlarini esa kitobxonning o‘zi to‘ldiradi. Asarning “yozilmagan qism”larini qanday “yozish” (to‘ldirish”) retsipyentning (kitobxonning) o‘ziga bog‘liq. Bu jarayonni Izer yulduzlar turkumiga qarash bilan solishtiradi: “Tunda

yulduzli osmonga qaragan ikki kishi omochni ko'rsa, ikkinchisi esa cho'michni tasavvur qilishi mumkin.”¹⁵

Tadqiqotchilarining fikricha, badiiy matn o'qish natijasida chiqariladigan xulosalar **uch omilning** bir-biriga o'zaro ta'siridan kelib chiqadi¹⁶:

- o'quvchi: uning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, unda mavjud bo'lgan bilimlar majmui (“sxemalari”), matnni tushunishga yordam beruvchi bilimlari (leksika, sintaksis, semantika, pragmatika, adabiyot nazariyasi bo'yicha ma'lumotlar), mutolaa paytidagi emotsiyonal holati;
- badiiy asar matni: matnning mavzusi, tuzilishi, tili, lingvistik, grammatik, uslubiy xususiyatlari, ekspozitsiyasi;
- o'quvchining asarni o'qishdan maqsadi.



Mutolaa jarayoniga ta'sir etuvchi omillar¹⁷

Aslida ham badiiy asar mutolaasi **interfaol jarayon** bo'lib, asar idroki o'quvchi va matn o'rtaсидаги kommunikativ jarayonlar natijasida yuzaga chiqadi. O'quvchi o'z tafakkur sarhadi, dunyoqarashi, hayotiy tajribasi, avvaldan mavjud bilimlari va badiiy asarni

¹⁵ Iser W. *The Reading Process: a Phenomenological Approach*. // New Literary History, 1972, Vol. 3, No. 2, p. 287.

¹⁶ Bu haqda qarang: Lipson A., and Wixson K. *Assessment and Instruction of Reading Disability: An Interactive Approach*. New York: “HarperCollins”, 1991.

¹⁷ Lipson, A., and Wixson, K. *Assessment and Instruction of Reading Disability: An Interactive Approach*. New York: “HarperCollins”, 1991.

o‘qiyotgan paytdagi ruhiy-emotsional holatidan kelib chiqib badiiy asardagi yashirin ma’nolarning yangi talqinlarini yaratadi.

Misol uchun, 18-20 yoshlardagi kitobxonda Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romani qahramonlari Kumush yoki Otabek “ideal shaxs” sifatida tasavvur uyg’otsa, yillar o‘tib oila, muhabbat, nafrat, rashk kabi tushunchalarda anchayin tajribaga ega bo‘lgan 30-35 yoshli ayni kitobxon-resipiyyent (qabul qiluvchi) endi Kumushni xudbinlikda ayblashi, Zaynab esa “chorasiz zaifa, muhabbat qurboni” sifatida harakatlarini, hatto uni oqlashi ham mumkin. Asardagi Otabek va Kumush fojiasiga kim aybdor, degan savolga har bir o‘quvchi asarni qanday tushunganidan kelib chiqib har xil javob beradi: kimdir jamiyatni va o‘sha davr urf-odatlarini, kimdir ota-onasiga ra'yiga qarshi borolmagan va keyinchalik ikki xotin orasida muvozanatni saqlay olmagan Otabekni, kimdir Toshkentga kelganida kundoshini har safar gap bilan “chaqib” oladigan Kumushni, kimdir oqibatini o‘ylamay opasi Xushro‘yning maslahatiga ergashgan Zaynabni, kimdir xotinini oxirigacha o‘ylanmay qilingan xatti-harakatlardan qaytara olmagan Yusufbek hojini, kimdir boshidan qizini Toshkentga yuborishga qarshi bo‘lgan Oftob oyimni ayblaydi, yana kimdir boshqa aybdorlarni sanashi mumkin va eng qizig‘i, bunda to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javob yo‘q, har bir kitobxon asarga o‘z tushunishidan kelib chiqib yondashadi va bunda har bir chiqrilgan xulosa egasi o‘z holicha haqli hisoblanadi.

Yoki, O’tkir Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasidagi onaning harakatlarini o‘quvchi o‘z hayotiy vaziyatlaridan kelib chiqib oqlamasligi va hatto Umri xolaning o‘zini fojianing asosiy sababchisi sifatida ko‘rsatishi ham mumkin. Demak, “kitobxon javobi” yondashuvi yozuvchi estetikasi emas, **kitobxon (retsipiyyent) qarashi, tafakkur hosilasi** sifatida diqqat markazda bo‘ladi. O‘quvchi adabiy aloqaning yakunlovchi bo‘g‘iniga aylanadi.¹⁸ O‘quvchi o‘z fikrlari bilan asarning “yozilmagan qism”larini yaratadi. Shu bilan birga, badiiy

¹⁸ Ковылкин А. Н. Вопросы рецептивной эстетики. Филологические науки // Омский научный вестник, № 2 (54) 2007, стр. 153.

asarni hammadan bir xil tushunish va talqin qilishni talab qilish badiiy asarning qiymatini yo‘qqa chiqaradi.

Demak, “kitobxon javobi” nazariyasi o‘quvchi va matn munosabatlariga, matnni estetik-emotsional qabul qilishning psixologik asoslarini kuzatish orqali har bir o‘quvchiga o‘ziga xos individual badiiy sezgilarni kashf qilishga qaratiladi. Matnni idrok etgan o‘quvchi uni o‘z uslubida qabul qiladi, **yaratadi va qayta yaratadi**.

Olimlarning fikricha, badiiy matnni tushunish o‘quvchining **mutolaasiga maqsadiga** ham bog‘liq. Tompkins mutolaasiga muayyan maqsadlarga asoslanishi zarurligini ta’kidlaydi¹⁹. Maqsadsiz o‘qishni boshlagan yoki badiiy asarni faqat estetik zavq olish uchungina o‘qigan har qanday kitobxon matndan tez zerikib qoladi.

Chindan ham, badiiy asar mutolaasi avvalida “nimani”, “qanday” va “nima uchun” kabi savollarning ko‘ndalang qo‘yilishi kitobxonni nafaqat asardan tez zerikishi, balki badiiy matn tahlilida o‘quvchi fikrlarining hokimlik kasb etishiga ham zamin yaratdi.

Tranzaksiya nazariyasini adabiyot o‘qitish metodikasiga tadbiq qilgan amerikalik olma Luiza Rozenblatt (*Louise Rosenblatt*) badiiy matn mutolaasiga **estetik hodisa**²⁰ sifatida qaraydi. Uning fikricha, o‘qilayotgan asardan ma’no yasash o‘quvchi shaxsi – uning bilimi, his-tuyg‘ulari, xohish-istiklari bilan asar matni sintezidan kelib chiqadi. Bu sintez jarayoni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- asardagi voqelik o‘quvchi bilimi va dunyoqarashi bilan organik tarzda birlashadi: bir tarafdan, asardan kelib chiqadigan ma’no o‘quvchi bilimi va dunyoqarashi ta’siri ostida shakllanadi, ikkinchi tarafdan esa, asardan kelib chiqadigan ma’no o‘quvchi bilimi va dunyoqarashiga ta’sir qiladi;

- asar o‘quvchi his tuyg‘ulariga ta’sir qiladi;

¹⁹ Tompkins Gail E. *Literacy for the 21st Century: A Balanced Approach*. 7th Edition. Boston: “Pearson”, 2017. – p.254.

²⁰ Rosenblatt L. *Literature as Exploration*. New York: “Appleton Century Company”, 1938. – p.33.

- o‘quvchining tasavvurini uyg‘otadi: tasavvur orqali o‘zgalarning hayoti bilan emotsional va intellektual bog‘liqlikni his qiladi, bu esa o‘quvchiga boshqalarni tushunish hamda o‘zini boshqalar o‘rniga qo‘yib ko‘rish yoki asardagi voqealarning muqobil (boshqacha) rivojlanishini tasavvur qilish orqali o‘z xattiharakatlari uchun javobgarlikni his qilishga o‘rgatadi.

Asar mutolaasi jarayonida o‘quvchi boshqa bir hayotni “yashab o‘tadi”. Bu hodisaga o‘quvchining hayotiy tajribasi ta’sir qiladi, shuning uchun ham asarni har safar qayta o‘qishda asar o‘quvchiga turlicha ta’sir qiladi. “Boshqa hayotga sho‘ng‘ish” mutolaaning estetik hodisa sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Asar o‘quvchining hayotiy tajribasi, hozirgi qiziqishlari va his-tuyg‘ulari bilan bog‘liq bo‘lmasa, uni qiziqtirmasa, estetik hodisa ro‘y bermaydi. Shu bilan birga, Rozenblattning fikricha, “qiziq” tushunchasini tor talqin qilish va faqat o‘quvchining bevosita hayoti bilan bog‘liq asarlarni tanlash noto‘g‘ridir. Adabiyot darslari uchun tanlanadigan asarlar xilma-xil, stereotiplardan xoli bo‘lishi kerak va o‘quvchi asar orqali boshqa madaniyatlar, boshqa dunyolarga qadam qo‘yishni ham o‘rganishi kerak.

Shunday qilib, **badiiy asar mutolaasi** davomida o‘quvchi:

- o‘zini o‘rab turgan voqelikdan farq qiladigan voqelikka sho‘ng‘ish zavqini his qiladi;
- o‘zini hikoyanavis (muallif) va asar qahramonlari bilan muqoyasa qiladi, o‘xshash va farqli jihatlarni qidiradi, ozini ularga yaqinlashtiradi yoki ulardan uzoqlashtiradi, ularga nisbatan ijobjiy yoki salbiy tuyg‘ularni his qiladi;
- asar muallifining dunyoqarashini, qadriyatlarini, uning voqelikka munosabatini va bu munosabatning sabablarini tushunishga harakat qiladi.

Shu bilan birga, badiiy asar o‘qish o‘quvchiga o‘zining dunyo haqidagi bilimlarini, siyosiy, ijtimoiy, axloqiy tafakkurini boyitish hamda tarix, madaniyatshunoslik, geografiya va boshqa fanlar bo‘yicha bilimlarini

chuqurlashtirish, boshqa fanlarni o‘rganish jarayonida ko‘ra olmaydigan detallarni ko‘rish imkonini beradi.

“

MUHIM IQTIBOS

O‘quvchilariga adabiyotni tushunishga yordam berish haqida qayg‘urayotgan o‘qituvchi nafaqat o‘rgatmoqchi bo‘lgan adabiy materiali haqida o‘ylashi kerak, balki badiiy asarni “yashab o‘tadigan” o‘quvchilar shaxsiyatini ham tushunishi kerak. O‘quvchining badiiy asarga reaksiysi, istaymizmi yoki yo‘q, uning shaxsiyati va hayotiy tajribasi asosida bo‘ladi va o‘qituvchi bunga tayyor turishi kerak. Bu reaksiya qanchalik nomukammal bo‘lmisin, aynan shu – boshqalarga ergashib qaytarayotgan gaplari emas – o‘quvchi uchun ayni damda asar mohiyatini tashkil qiladi.

(Luiza Rozenblatt, “Adabiyot tadqiqot sifatida”, 1938-yil)

Sizningcha, o‘qituvchi o‘quvchini asarni “mukammal”, o‘zi istagan darajada va rakursda tushunishga tayyorlashi mumkinmi? Va shunday qilishi kerakmi?

“Kitobxon javobi” yondashuvining adabiy ta’limda qo‘llanilishi:

- adabiyot darslarida o‘quvchining **faolligini** oshiradi;
- o‘quvchilar darslikdagi “asar haqida” kabi **qoliplangan** fikrlar yoki o‘qituvchining subyektiv qarashlariga bog‘lanib qolmaydi;
- o‘quvchilarning asar haqidagi **o‘z talqinlarini** yaratishga imkoniyat beriladi;
- o‘quvchida **mustaqil va erkin fikrlash** qobiliyatini shakllantiradi;
- darsda o‘qituvchining aralashuvi cheklangan holda, o‘quvchilarning o‘qilgan asar yuzasidan fikrlarini **erkin** ifodalash, kitobxonning izohlari orqali badiiy matn ma’nosini konkretlashtirish, kitobxon tasavvurlari orqali badiiy matnning bugungi zamon uchun ahamiyatini aniqlashtirishga yordam beradi.

“Kitobxon javobi”ning muhim asoslardan bo‘lgan o‘quvchi hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, avvalgi bilimlari majmui va o‘qish jarayonidagi emotSIONAL holatlari

badiiy asar tahlilida muhim faktorlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. “Kitobxon javobi” perspektiv talqinlarni yuzaga chiqarishi bilan birga badiiy asar tahliliga individual hayotiy tajriba, bilim, tafakkur, ma’naviy, hayotiy ehtiyoj orqali kirib kelish tamoyilini ham shakllantiradi. Badiiy matnga shunchaki mutolaa obyekti sifatida emas, balki yozuvchi, badiiy matn va kitobxon o‘rtasidagi aloqa faoliyatি sifatida qarashga rag‘bat beradi. Badiiy matnni kitobxon javobi yondashuvida tahlil qilish o‘quvchilarni adabiy muzokaralarga yo‘naltirishda, o‘qituvchining an'anaga aylangan magistral huquqini cheklashda, badiiy san’atni idrok qilish kuchini namoyish etishda ahamiyatlidir.

Demak, “kitobxon javobi” yondashuvi asosida o‘quvchi faolligi yotadi. Shu nuqtayi nazardan ko‘plab metodist olimlar badiiy asarni turli rakurslarda tushunish va badiiy asar anglovingning muvaffaqiyatli kechishida aynan “kitobxon javobi” nazariyasi asosidagi yondashuvlarning ko‘proq samara berishini ta’kidlaydilar. “Mazkur nazariyaning adabiyot darslarida tatbiq etilishi adabiy ta’limda yangicha yo‘nalishlarni yuzaga chiqarish barobarida badiiy asar tahlilida o‘quvchi rolini qayta kashf etishda muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.”²¹

Adabiyot darslarida o‘quvchilar faolligiga daxl qiladigan qanday muhim omillar bor deb o‘ylaysiz? Sizningcha, ularni ixotalashda qanday usullar samara beradi?

“Kitobxon javobi” nazariyasi va ta’limga konstruktivistik, “o‘quvchi – faol” yondashuvi o‘rtasida qanday bog‘liqliklarni kuzatdingiz?

Manbalar bilan ishslash



Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasi ikki darslikda (*Q. Yo‘ldoshev va boshqalar, “Adabiyot”, 7-sinf uchun darslik, Toshkent, “Sharq”, 2017* va *Z. Mirzayeva, K. Jalilov, “Adabiyot”, 6-sinf uchun darslik, Toshkent, Respublika ta’lim markazi, 2022*) qanday berilganini solishtiring. Ayni bir asarni o‘qitishda yondashuvlar bu ikki darslikda qanday farq qilmoqda? Bu

²¹ Darlington Sonja Pfister. *Literature as Visual Response And Aesthetic Experience: An Alternative Approach. A Dissertation Submitted to the Graduate Faculty in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Doctor of Philosophy*. Iowa: Iowa State University, 1990, p.56.

farqlarning sabablarini izohlang.



“Adabiyot”, 7-sinf,

Toshkent, 2017-yil

“Adabiyot”,

6-sinf,

Toshkent, 2022-yil



Loyiha

Mazkur bobda o‘rganganlaringizni umumlashtiring. “Umumiylar o‘ta ta’limda adabiyot o‘qitish qanday tamoyillar va yondashuvlarga tayanishi kerak?” mavzusida qisqa (400-450 so‘zdan iborat) esse yozing yoki infografika yarating.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Sizningcha, o‘qituvchi o‘quvchini asarni “mukammal”, o‘zi istagan darajada va rakursda tushunishga tayyorlashi mumkinmi? Va shunday qilishi kerakmi?
2. Adabiyot darslarida o‘quvchilar faolligiga daxl qiladigan qanday muhim omillar bor deb o‘ylaysiz? Sizningcha, ularni ixotalashda qanday usullar samara beradi?
3. “Kitobxon javobi” nazariyasi va ta’limga konstruktivistik, “o‘quvchi – faol” yondashuvi o‘rtasida qanday bog‘liqliklarni kuzatdingiz?

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Baldik C. *The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms*. 2nd ed. Oxford: “Oxford University Press”, 2011.
2. Childs P. and Fowler R. *The Routledge Dictionary of Literary Terms*. London: “Routledge”, 2006.

3. Язвицкий В. И., Столяров М., Локс К. *Литературная энциклопедия: Словарь литературных терминов: В 2-х т.* М.-Л.: “Изд-во Л. Д. Френкель”, 1925. Стр.1070.
4. Iser W. *The Reading Process: a Phenomenological Approach.* // New Literary History, 1972, Vol. 3, No. 2, p. 287. Lipson A., and Wixson K. *Assessment and Instruction of Reading Disability: An Interactive Approach.* New York: “HarperCollins”, 1991.



1-AMALIY MASHG'ULOT:

FILOOGLARDA KREATIV KOMPETENTLILIKNI SHAKLLANTIRISH

REJA:

- 1. Badiiy tahlil kompetentliligi filologning kasbiy tayyorligidagi muhim talab sifatida**
- 2. Badiiy tahlilning inson ijtimoiy-intellektual taraqqiyotidagi o'rni**
- 3. Bo'lajak filologlarni badiiy asar tahliliga o'rgatish omillari**

Tayanch tushunchalar: Filologning kasbiy tayyorligi, tahlil kompetentliligi, nutqiy kompetentlilik, badiiy tahlilning filologik ta'limdagi o'rni, tahlilga o'rgatish yo'llari.

Badiiy tahlil kompetentliligi filologning kasbiy tayyorligidagi muhim talab sifatida. Badiiy asar tahlili juda qadim zamonlardan buyon fikr egalarining diqqatini tortib kelgan. Turli davrda yashagan, har xil maqom va darajadagi olimlar badiiy tahlilning mohiyati va unga xos xususiyatlarni tasniflab, ushbu tushunchaga ta'rif berishga urinib kelishgan. Miloddan to'rt ming yillar oldin hind manbalarida bir adabiy matnni ming xil tushunish ham mumkinligi aytildi. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Taroziy, Navoiy, Bobur singari turkiy mutafakkirlarning asarlarida badiiy tahlilga islomiy-turkiy dunyoqarash asosida yondashuv namoyon bo'lgan.

Qator yillar davomida badiiy asar bilan ishlash va uni tadqiq etish kechimini kuzatishlar shundan dalolat beradiki, oliy o'quv yurtida saboq olayotgan yoki oliy filologik ma'lumotga ega bo'lib, o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalari, hatto, oliy o'quv yurtlarida ishlayotgan filolog mutaxassislarning kattagina qismi badiiy asarni tahlil qilish borasida yetarlicha malakaga ega emaslar. Badiiy asarni tahlil qila bilmaslik domladan talabaga, o'qituvchiga aylangan sobiq talabandan o'quvchiga, talabaga aylangan kechagi o'quvchidan yana talabaga tarzida uzilmas

halqa bo‘lib davom etib kelmoqda. Bu holni adabiyot o‘qitish amaliyotining aybidan ham ko‘ra fojiasi deyish to‘g‘riroq bo‘ladi. Negaki, na talabalar va na o‘qituvchilar va, hatto, na Oliy o‘quv yurtida ishlaydigan filolog o‘qituvchilalar badiiy matnni tahlil qilish yumushiga maxsus o‘rgatilmaydi. Oshib borsa, biror domla tomonidan qilingan matn tahlili shundayicha olinib, o‘qitish amaliyotiga ko‘chiriladiki, badiiy matnga yondashishda bir xillik va fikrlashda qolipni yuzaga keltiradigan bunday yo‘lning foydasidan zarari ko‘proqdir.

Bundan qirq yillar oldin kuyunchak o‘zbek adabiyotshunos olimlari oliy o‘quv yurtiga kirish uchun yozilayotgan insholarning bir xilligidan norozi bo‘lib va bu holatni o‘zgartirishga urinishib matbuotda qator chiqishlar qilgan edilar. Yaxshi niyatda qilingan bu harakatlarning samara keltirmasligi oldindan aniq edi. Negaki, respublikadagi barcha maktablardagi adabiyot saboqlarida badiiy asarlar yagona qolip asosida tahlil qilinadigan o‘sha vaqtarda insholarning bir xil bo‘lmasligi mumkin emasdi. Insholarning bir xilligi o‘quvchilar bir xil fikrlashining emas, balki adabiyot o‘qitishning bir xil fikrlashni, demakki, amalda fikrlamaslikni talab qiladigan tarzda yo‘lga qo‘yilishi oqibati edi. Afsuski, maktab adabiy ta’limida bu hol hozirga qadar ham davom etib kelmoqda.

Albatta, badiiy asarni maromiga yetkazib tahlil qila oladigan adabiyotshunoslар hamma davrda ham bo‘lgan. Ammo ularning malakasi, tahlil kechimida tayanadigan ilmiy tamoyillari hamda qo‘llaydigan usullari ilmiy g‘oyaga aylantirilmagan edi. Shuning uchun ham imkon boricha milliy sinchilikning tahlil borasidagi tajribalarini umumlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mutaxassis badiiy tahlil o‘zi nima, uni amalga oshirishda qanday ilmiy-estetik asoslarga tayanish kerak, matn tahlili jarayonida nimaga birlamchi e’tibor qaratilishi lozim qabilidagi ko‘plab savollar atrofida fikrlashish lozim bo‘ladi. Boshlang‘ich mактабдан tortib, oliy filologik ta’limga qadar bosqichlardagi tahlil amaliyotida bugungi kunda muayyan darajada qo‘l keladigan ilmiy taklif va tavsiyalarni taqdim etib, ular to‘g‘risida fikrlashish maqsadga muvofiқdir.

Badiiy tahlilga o‘rgatishdan **maqsad** filolog mutaxassislarni badiiy asar bilan professional darajada ishlashga odatlantirishdan iborat deb belgilash baravarida badiiy tahlilning o‘zidan qanday **maqsad** kuzatiladi degan savolga ham javob berish kerak bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida mualliflardan tahlil nima, tahlilchi kim, uning adabiyottanuvchidan farqi bormi qabilidagi masalalarga ham yo‘l-yo‘lakay bo‘lsa-da, to‘xtalishni taqozo qiladi.

Badiiy tahlil nima va uning mohiyati nimadan iborat degan muammoni yechishga ushbu kitobdan alohida bo‘lim ajratilganini nazarda tutib, bu o‘rinda adabiy tanqid va uning belgilarini ko‘rsatish maqsadga muvofiq hisoblandi. Adabiyot va san’at to‘liq mafkuralashgan sovet sharoitida, xuddi badiiy adabiyotga bo‘lgani kabi, adabiy tanqidga ham uning asl imkoniyati va funksiyasidagidan ko‘ra ko‘proq yuk ortilgan edi. Sovet davrida muayyan asarning badiiy-estetik qimmati va milliy adabiy jarayon taraqqiyotidagi o‘rnini belgilab berishi kerak bo‘lgan tanqidchilik ko‘p hollarda estetik qozilik yoki qoralovchilik vazifasini bajarishga yo‘naltirilardi.

Badiiy tahlilning inson ijtimoiy-intellektual taraqqiyotidagi o‘rni.

Adabiyotshunoslikning ilmiyligi badiiy adabiyotga doir yetarlicha turg‘unlikka ega bo‘lgan qonuniyatlar hamda adabiy hodisalar bilan ularning rivojlanish tamoyillari orasidagi muhim va muqim bog‘liqliklarni belgilab berishda namoyon bo‘ladi.

Adabiyotshunoslikdan uning tabiatiga xos bo‘lmagan tarzda o‘ta aniqlikni talab qilishga urinuvchilar bilan bir qatorda badiiy asarni ilmiy izohlash kerak emas deb qaraydigan yondashuv tarzi ham mavjud. Bu tamoyil tarafдорлари o‘z qarashlarida fan hech qachon san’at asarining sehrli ohanrabosi va sirli jozibasini berolmasligiga asoslanadilar. Ular ilmiy tahlil natijasida asarning badiiy-estetik tarkibi buzilib, jozibasi yo‘qolishi mumkin, deb qaraydilar. Badiiy matnga xos muhim qonuniyatlarni ochmoqchi bo‘lib, uni tahlil qilishga kirishgan sinchi oldida asarning yaxlitligiga daxl etib, amalda uni vayron qilish xavfi ham turadi. Ijodiy intuitsiyaning mahsuli bo‘lmish san’at asari faqat intuitiv yo‘sinda qabul qilinishi, intuitiv bilishning natijalari faqat subyektiv taassurot hamda g‘ayrishuuriy

(irratsional) tuyg‘ular shaklida qayd etilishi lozim. Bu taassurot va tuyg‘ularni badiiy asarning o‘zi bilan jiddiy yo‘sinda solishtirish kerak emas. Negaki, ularning fikricha, ***adabiyotshunoslik uchun ilmiylik*** nafaqat ***keraksiz***, balki ***zararli*** ham. Zero, adabiyottanuvchilik fandan ko‘ra san’atga – asardan ta’sirlanish va o‘z kechinmalarini hissiy, imkon qadar obrazli yo‘sinda bayon etish san’atiga yovuqdir.

Holbuki, badiiy asarni ilmiy tahlil qilish mumkinligini tan olmaydigan mutaxassislar badiiy adabiyotga doir tushunchalar bilan adabiyot haqidagi ilmning tamoyillarini aralashtirib, adabiyot hamda adabiyotshunoslikni qorishtirib yuboradilar. Ilmiy tafakkurdan uning tabiatiga yot bo‘lgan obrazli badiiylik mahsulini kutadilar. Mashhur rus adabiyotshunosi A. Bushmin ancha yillar oldin haqli ravishda ta’kidlaganidek: “*Ma ’lumki, ilmiy fikrlash tarzi badiiy obrazni bus-butun qamrab ololmaydi, undagi ko ‘pma ’noli mohiyatning barcha qirralarini to ‘liq ilg ‘ayolmaydi, u ko ‘rsatgan ta’sir o ‘rnini bosolmaydi. Shunday qilish mumkin bo ‘lganda, san ’atning keragi bo ‘lmay qolardi*”²². Mantiqiy kategoriylar, ilmiy atamalar, tushunchalar, ta’rifu qoidalar badiiy obrazni bilishning mohiyati bo‘lib, ular badiiy asardagi asosiy jihatni ajratib, uning qonuniyat darajasidagi muhim qirralarini qabariq tarzda ko‘rsatish orqali bizning asar haqidagi hissiy kechinma va tasavvurimizni to‘ldiradi, boyitadi.

San’at odam hissiy-intellektual va ijodiy (kreativ) faoliyatining oliy ko‘rinishidir. Inson ma’naviyatini shakllantirish imkoniyatining kattaligi va odamga ta’sir qudrati miqyosiga ko‘ra badiiy adabiyot san’atning boshqa turlari orasida alohida mavqega egadir. G‘oyat ko‘p o‘lchovli murakkab butunlik bo‘lmish badiiy adabiyot o‘qirman tomonidan o‘qilib, his etilib, anglanib olingandagina ta’sirchan estetik-ma’naviy energiyaga aylanadi. Hayotda mavjud, ammo foydalanilmayotgan imkoniyatlar borliqqa ta’sir qilolmagani kabi his etilmagan, anglanmagan go‘zallik ham shaxs ma’naviyatiga ta’sir ko‘rsata

²² Bushmin A.S. Nauka o literature. –Moskva. 1980. S. 112.

olmaydi. Shuning uchun oliy adabiy ta’limda badiiy asar tahlili alohida mavqega egadir. Adabiy ta’lim oldidagi bosh maqsadga erishish, ya’ni badiiy asar o‘qitish orqali yoshlarda ezgu ma’naviyat hamda yuksak did shakllantirish uchun filolog mutaxassis badiiy asarni tahlil qilish yo‘llarini puxta egallagan bo‘lishi shartdir.

Yetuk badiiy matnlarning ko‘pchilik tomonidan to‘la anglanishiga erishmay turib, biror jamiyat miqyosida barkamol shaxs shakllantirishni o‘ylash amalga oshmaydigan orzudir. Buning uchun esa filolog mutaxassislar o‘rganilayotgan badiiy asarni tahlil qilish malakasiga ega bo‘lishlari kerak. Chinakam badiiy tahlil qilish yo‘llari egallanmagan o‘quv muassasalarida badiiy asar o‘quvchilarning tuyg‘ulariga ta’sir etmaydi, binobarin, shaxs ma’naviyati shakllanishiga xizmat qilmaydi.

Pifagor teoremasi yoki suvning formulasini bilganda ham, bilmaganda ham kishining, uni o‘rab turgan olamning mohiyati o‘zgarishsiz qolaveradi. Lekin hazrati Navoiyning: “*Lolazor ermaski, ohimdin jahonga tushdi o‘t, Yo‘q shafaqkim, bir qiroqdin osmonga tushdi o‘t*” matla’li yoki: “*Meni men istagan o‘z suhbatiga arjumand etmas, Meni istar kishining suhbatin ko‘nglim pisand etmas*” bayti bilan boshlanadigan g‘azallarining badiiy jozibasi va mantiqiy qudratini his etgan odam uchun olam ham, odamlar ham, hayot ham boshqacharoq bo‘lib qolishi aniq. Bulardan bexabar yoki bahrasiz odamning ruhiyatida esa anchagina kemtiklik bo‘lishi ham shubhasizdir. Demak, asl badiiy asar odamning ruhiyati, tabiatи va manaviyatida ma’lum yangilanish, evrilish sodir qiladi.

XX asrning saksoninchi yillaridan boshlab, millat ijtimoiy hayoti va taraqqiyotida asar tahlilining katta ahamiyatga egaligi bir qadar anglanadigan bo‘ldi. O‘scha anglanishning, asar tahlili inson ma’naviyati shakllanishida tutgan yuksak mavqe tan olinishining natijasi o‘larоq, XX asr so‘nggi dekadasida «Badiiy tahlil asoslari» degan fan yaratilishiga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Ana shu ehtiyoj natijasi o‘larоq respublikamizning bosh oliy maktabi – O‘zbekiston Milliy universiteti filologiya fakultetida 1996 yildan maxsus kurs, 1998 yildan e’tiboran tanlama fan sifatida o‘tila boshlandi. 2004 yildan boshlab esa ushbu kurs o‘zbek

filologiyasi yo‘nalishida mutaxassislik fani sifatida o‘qitilishi o‘zbek oliv filologik ta’limi uchun juda katta ilmiy va ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ega voqeal bo‘ldi.

Qachonki, bo‘lajak filolog badiiy asarlarni tahlil etish yo‘l-yo‘rig‘ini fan darajasida o‘rganmas va har qanday janrdagi estetik yaratiqni tahlil qila olish malakasiga ega bo‘lmas ekan, adabiy ta’limdan kuzatilgan asl maqsadga to‘liq erishilishi mumkin emas. Adabiyot o‘qituvchisi nochorligicha, adabiyot darslari zerikarliligicha, asardan chiqariladigan xulosa «ijtimoiy nasihat»ligicha qolaveradi. Tahlil g‘arib bo‘lganligi uchun o‘rta va o‘rta maxsus ta’limda adabiyot o‘qitish jarayoni oldiga qo‘yilgan bosh maqsad – ma’naviy barkamol shaxs shakllantirishga erishilmaydi, oliv adabiy ta’limda badiiy asarning butun jozibasini ochish ilmiy asoslarda yo‘lga qo‘yilmaganicha qoladi. Chinakam badiiy tahlil o‘rniga quruq chaqirig‘u aqidabozlik sabab o‘quvchi hamda talabalar haqiqiy adabiyotni soxtasidan farqlay olmaydilar. Shu bois ularda ezgu ma’naviy sifatlar shakllantirilmay qolaveradi.

Badiiy asarni tahlil qilish malakasiga yetarlicha ega bo‘lmagan filolog mutaxassis talabalarga nima «berish»ni bilmaganidek, ulardan nimani «talab etish»ni ham tasavvur qilolmagani bois, adabiyot darslarida talabalar zimmasiga kerakli yuk qo‘yilmaydi. Talabalar xayolotini yuksaltirmaydigan, aqlini zo‘riqtirmaydigan yengil-yelpi “bilim”lar adabiyot bo‘yicha ijobiy baho olish uchun yetarli hisoblanib kelinadi. Chunonchi, fizika fanida butun olam tortilish qonunini yaratish uchun Nyutonning boshiga tasodifan tushib ketgan olma turtki bo‘lganini aytgan, ammo qonunning mohiyatini bilmagan talabaga «yomon» baho qo‘yiladi va to‘g‘ri qilinadi. Ammo Alisher Navoiy “Xamsa”sining besh dostonidan iboratligi, uning ikki yarim yil mobaynida yaratilgani va dostonlarning joylashish tartibini bilgan talabaga, garchi u “Xamsa”ni ochib ko‘rmagan bo‘lsa-da, “ijobiy” baho qo‘yilaveradi. Adabiyot bo‘yicha nimani talab qilish kerakligi aniq belgilab olinmagani uchun o‘sha “bilim” ham yetarli deb qaraladi.

Badiiy asar matni bilan ishlashni o‘z faoliyatining markaziy masalasi deb hisoblamaydigan adabiy ta’lim avval-boshdan samarasizlikka mahkumdir. Badiiy

tahlilsiz adabiy ta’lim natijasi ma’naviyatsiz shaxs, bilimsiz mutaxassis demakdir. Yangilangan milliy pedagogika o‘z oldiga ma’naviyati yuksak shaxslarni shakllantirish maqsadini qo‘ygan ekan, adabiy ta’limda badiiy tahlil hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi shubhasizdir. Malakali badiiy tahlil bo‘lmagan joyda mo‘jizaviy asarning sehri, siri, jozibasi yo‘qqa chiqadi. Chunki uning zamiridagi badiiy va hayotiy ma’no payqalmay qolaveradi. Adabiyot o‘qitishda badiiy tahlilga e’tibor g‘oyat sust bo‘lganligi uchun ham millat ahlining bir necha avlodi Navoiy, Bobur, Mashrab va Qodiriy asarlarini o‘qigani holda ularsiz yashab kelmoqda. Chunki milliy adabiyotshunoslik tomonidan hali bu ijodkorlarning asarlariga xos badiiy jihatlarni butun ko‘lami, ko‘pqirraliligi bilan aniqlab, talaba va o‘quvchilarga yetkazib berish mexanizmi ishlab chiqilgani yo‘q.

Bo‘lajak filologlarni badiiy asar tahliliga o‘rgatish omillari. Badiiy tahlil yo‘llari o‘zlashtirilmaguncha talabalar ham, o‘quvchilar ham haqiqiy adabiyot namunasini qiziq syujetli yengil-yelpi bitiklardan farqlay olmaydilar. Chunki ular asl badiiy matnning qimmati nimadan iboratligini bilmaydilar. Bu holat ularni badiiy shabko‘rlik – daltonizmga, didsizlikka olib boradi. Estetik shabko‘rlik, didsizlik esa ma’naviy kemtiklik va axloqiy loqaydlik kabi illatlarga sabab bo‘ladi. Adabiy asar o‘qimaydigan, uni tahlil qila olmaydigan, binobarin, undan ta’sirlana bilmaydigan kishi ma’naviy qadriyatlarni tuymaydi, tushunmaydi, binobarin ularga mensimay qaraydigan bo‘ladi. Bunday odamga o‘zgani his etish, birovga darddosh bo‘lish tuyg‘usi begona. Unda tor amaliyotchilik, xudbinlik, manfaatparastlik illatlari mayjud bo‘lish xavfi katta. Shuning uchun ham badiiy tahlilni amalgalashirish oddiy didaktik yumushgina emas, balki o‘ta muhim ma’naviy-axloqiy tadbir hamdir.

Fanlar metodologiyasida ilmning biror tarmog‘i alohida fan hisoblanishi uchun quyidagi uch shartga javob berishi kerak deyiladi: a) o‘ziga xos mustaqil tadqiqot predmeti bo‘lishi; b) o‘ziga tegishli ilmiy-tadqiqot usullar tizimiga egaligi; v) salmoqli ijtimoiy ahamiyati borligi.

Shu ma’noda badiiy tahlilning boshqa biror fan bevosita shug‘ullanmaydigan o‘z obyekt va predmeti mavjud. Ochun bo‘yicha eng qadimgi zamonlardan bugunga qadar yaratilgan og‘zaki va yozma badiiy asarlar badiiy tahlilning *obyekti*dir. Badiiy tahlilning *predmeti* adabiy asarning badiyligini ta’milagan omillar, uning estetik jozibasini yuzaga chiqargan unsurlar, yozuvchining uslubi, badiiy asar va ijodkor dunyoqarashi, badiiy asar hamda jamiyat munosabati, badiiy yaratiqda inson ruhiyatining ifodalananish yo‘sini kabi bir ko‘p jihatlarni nazariy tekshirib, ularga asosli ilmiy baho berish yo‘llarini o‘rgatishdan iboratdir.

Bo‘lajak filolog mutaxassislarni istalgan badiiy asarni professional darajada ilmiy tekshirishga o‘rgatish badiiy tahlilning *maqsadidir*. Fanning *vazifalari* sirasiga filolog-mutaxassislarga muayyan adabiy yaratiqning milliy badiiy-estetik tafakkur taraqqiyotidagi o‘rni, konkret asarning o‘ziga xos jihatlari, tasvirdagi yutuq va kamchiliklar hamda bularning sabablari nimadan iboratligini topish yo‘llarini o‘rgatish singarilar kiradi.

Ilmning har qanday tarmog‘i kabi badiiy tahlilning ham o‘ziga xos tadqiqot metodlari mavjud. Chunonchi, *kuzatish*, *dalillash*, *umumlashtirish*, *baholash*, *akseologiya*, *shartlilik*, *komparativistika*, *ruhiy asoslash*, *badiiy qimmatni tayin etish*, *solishtirish*, *umumlashtirish*, *evristik* singari ilmiy-tadqiqot metodlari mazkur fanga doir dalillarni to‘plash, umumlashtirish, tahlil etish, tizimga solish va muayyan ilmiy to‘xtamga kelish kechimida qo‘llaniladigan usullar hisoblanadi. Bu tadqiqot metodlaridan ba’zilari boshqa fanlarni tekshirishda ham qo‘llanishi mumkindir, lekin unday holatda o‘zgacha yo‘sin va maqsadda ishlatiladi.

Badiiy tahlil – ulkan *ijtimoiy-estetik ahamiyatga ega*. Asosli badiiy tahlil bo‘limgan joyda adabiy asar to‘la anglanmaydi. Badiiy matnni to‘la anglamagan filolog o‘zga odamlar ma’naviyatini shakllantirishga qaratilgan faoliyati mobaynida kutilgan samaraga erisha olmaydi. Holbuki, filologlar millat ahli ma’naviyatini shakllantirishga mas’ul bo‘lgan kasb egalaridir. Jamiyat a’zolari hayotida badiiy adabiyotning baland martabada ekanligi, ta’lim tizimida adabiyot alohida imtiyozli mavqedha turishining sababi uning ulkan ijtimoiy ahamiyatidan

kelib chiqadi. Ezgu ma’naviyat, yuksak axloqiy qadriyatlar shu yo‘nalishdagi tajribalarni o‘zlashtirish yo‘li bilan shakllantiriladi. Bu xil tajriba har bir odamning, albatta, o‘z boshidan kechirilishi shart emas. Balki badiiy asar qahramonlari holatini chuqur anglash, ularning hissiyotlari qo‘zg‘alishi, tuyg‘ulari junbushga kelishi sababini tushunish kishida adabiy qahramonlarniki singari ijobiy sezimlarning tarkib topishiga sabab bo‘ladi.

Tilga olingan ana shu omillar filolog mutaxassislarda badiiy tahlil kompetentliligin shakllantirish ular faoliyatining samaradorligini oshirish omili ekanini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirzayeva Z, Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Ana’aviylikdan zamonaviylikka. Toshkent, 2020.
2. Елена Станиславовна Романичева, Ирина Витальевна Сосновская. Введение в методику обучения литературе. Москва: Флинта, 2015.
4. Jack Snowman and Rick McCown. Psychology Applied to Teaching. Stamford: Cengage Learning, 2015.
5. Lutfullayeva D., Qurbonova M. Bolalar nutqiga xos deyktik birliliklarning fonopragmatik tahlili. // O‘zbek tili va adabiyoti. 2013. - №6. - B.22-27
6. Marchman, V.A., and Dale, P., S. (2017) Assessing Receptive and Expressive Vocabulary in Child Language. Research Methods in Psycholinguistics and the Neurobiology of Language. John Wiley & Sons, Inc. 2018. Pp. 40-68.
7. Qurbonova M. O‘zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi. Toshkent, 2014.
8. Robinson, P. (Ed.) Individual Differences and Instructed Language Learning. John Benjamins Publishing Company. Amsterdam/Philadelphia. 2002.
9. Азимова И. “Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи”. Монография. Тошкент, 2019.

2-AMALIY MASHG‘ULOT: O‘QISH STRATEGIYALARI

REJA:

- 1. Konseptual masalalar**
- 2. Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktizim nazariyalari. “O‘quvchi – faol” yondashuvi**
- 3. “Kitobxon javobi” nazariyasi**

Tayanch tushunchalar: “Konstruktivizm, kreativ, kontekst, to‘qimalilik, emotSIONallik, subektivlikdir, integratsiyasi, retseptiv (qabul qiluvchi) estetika, kitobxon javobi, reader response.

Jahon adabiy ta’limida ijodkorlik, faollik, yaratuvchanlik, tanqidiy va ijodiy fikrlash, mustaqil faoliyat olib borish kabi konseptual masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuvar asosini jahonning ilg‘or, vaqt tajribasidan o‘tgan konstruktivizm, bixevorizm, tranzaksiya nazariyasi, integrativ yondashuv nazariyalari tashkil etadi. Ta’lim jarayonlarini individuallashtirish, personallashtirish, adabiyot davrslarida talaba faolligini oshirish kabi masalalar ham bugungi global ta’limga oid tadqiqotlarning eng muhim tadqiq obyektlaridan biriga aylangan. “Adabiy ta’limga konseptual yondashuvning nazariy asoslari” mavzusi doirasida tinglovchilar yuqorida qayd etilgan yangi tushunchalar, texnologiya va interfaol usullarning umumiyligi tavsifi haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.

Bugungi kunda adabiyot o‘qitish metodikasi va metodologiyasini yaratish, uning nazariy asoslarini ishlab chiqishda o‘qitishning quyidagi **konseptual masalalarini** e’tiborga olish zarur:

1. O‘quvchilarning **ijodkorlik, faollik, fikrlash, mustaqil ishlash** qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan turli xil zamonaviy metodlardan foydalanish.

2. O‘quvchilarning asosiy e’tiborini adabiy figuralar biografiyasi, yozgan asarlari haqidagi ma’lumotlarni yodlashga emas, konkret asar tahlili orqali ularning milliy va jahon adabiyoti ravnaqida tutgan o‘rni haqida tushunchalarini shakllantirishga qaratish.
3. “Asar haqida” orqali o‘quvchilarga o‘rganilayotgan asarning tayyor talqinlarni singdirishdan voz kechish, muayyan savol va topshiriqlar vositasida o‘quvchilarning asarga **o‘z munosabatlarini** shakllantirish.

Bunday holatda savol va topshiriqlar o‘quvchilarni asarga qiziqtirishi, asar mazmunini tushunishga tayyorlashi, badiiy matnni tushunish — tahlil qilishga, mustaqil fikrlashga, badiiy asar ustida chuqr mushohada yuritishga yo‘naltirishi darkor. Demakki, badiiy asarni turli taraflama tushunish savolning kuchi va darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

- a) Adabiyotning san’atning boshqa turlari, shuningdek, mакtabda o‘rganiladigan boshqa fanlar bilan **integratsiyasini** ta’minlovchi metodlarni tavsiya qilish.
- b) Badiiy asar tahlilida o‘quvchi **hayoti** bilan aloqasini ta’minlash, o‘quvchining adabiyotni shunchaki fan sifatida emas, balki hayotiy ehtiyoji sifatida qarashga asoslangan metodlarni ishlab chiqish.

Ushbu konseptual masalalarning hal etilishi adabiyot o‘qitish metodikasida jahoning ilg‘or, vaqt tajribasidan o‘tgan va sinalgan **nazariyalari va yondashuvlariga** tayanishni taqozo qiladi. Bu nazariyalar va yondashuvlar quyidagilardir:

- konstruktivizm va ijtimoiy konstruktizim nazariyalari;
- “o‘quvchi – faol” yondashuvi;
- “kitobxon javobi” nazariyasi;
- adabiyot o‘qitishda pragmatik yondashuv;
- Blum taksonomiyasи.

Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalari. “O‘quvchi – faol” yondashuvi

Konstruktivizm va **ijtimoiy konstruktivizm** nazariyalari rivojlangan davlatlar maktab ta’limida asosiy yondashuv sifatida muvaffaqiyatli qo’llanilayotgan nazariyalardir. Bu nazariyalarning eng asosiy g‘oyalari quyidagicha:

- o‘quvchilar bilimni tayyor holda, passiv qabul qilmasliklari kerak;
- bilimlar ta’lim jarayonida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish o‘quvchilar tomonidan “**yaratilishi**”, “**kashf qilinishi**” lozim;
- bunda o‘quvchilarning **o‘zaro muloqoti** muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu nazariyalarga ko‘ra, darsning maqsadi ma’lumotlarni o‘quvchilarga singdirish emas, balki ularga bilimni o‘zlari hosil qilishlariga imkon yaratib berishdir. O‘qituvchining vazifasi esa tayyor bilimlarni bolalarga yetkazib berish, so‘zlab berish emas, balki o‘quvchilarning faoliyatini tashkil qilish va to‘g‘ri yo‘naltirishdan iborat bo‘ladi. Zero, XX asrning taniqli pedagog va psixolog olimi,

“maktabning asosiy vazifasi oldingi avlodlar yaratgan narsalarni shunchaki qaytarish emas, balki o‘zlari **yangi narsalar yaratishga, kashfiyotlar qilishga qodir, kreativ, tanqidiy fikrlay oladigan shaxslarni** tarbiyalashdan iboratdir”

ta’lim jarayonlarini individullahtirishdan iboratdir. “O‘quvchi – faol” yondashuvida keraksiz qog‘ozlar, ahamiyatsiz ta’limiy manbalarning kamayishi va eng muhimi – o‘rganuvchilarga allaqachon ma’lum bilimlarni qayta bayon qilish orqali vaqtini bekorga sovurish muammosi bartaraf etiladi.

²³ Qarang: Kohn, A. (2000) The Schools Our Children Deserve: Moving Beyond Traditional Classrooms and Tougher Standards, New York, NY: Houghton Mifflin Company.

Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalariga asoslangan ta’limning an’anaviy ta’limdan farqlarini quyidagi jadval va diagrammada ko‘rish mumkin:

An’anaviy ta’lim	Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizmga asoslangan ta’lim
O‘quvchilar asosan o‘qituvchidan va darsliklardan o‘rganishadi	O‘qitish uchun turli materiallardan (plakatlar, real hayotdan olingan obektlar va hokazo) foydalaniladi
Darsda asosiy rolni o‘qituvchi o‘ynaydi	Darsda o‘quvchilar faol, o‘qituvchi esa o‘quvchilarning faoliyatini tashkil qiladi
O‘quvchilar asosan o‘qituvchidan va darslikdan o‘rganganlarini qaytarishadi	O‘quvchilar turli vazifalarni bajarish va loyihibar ustida ishlash orqali o‘rganishadi
Mashqlar asosan o‘rganilgan ma’lumotlar qoidalarni mustahkamlashga qaratiladi	Topshiriqlar asosan real hayotda uchraydigan muammolarni yechishga qaratilgan
Odatda berilgan vazifalarning (mashqlarning) yagona to‘g‘ri javobi mavjud	Vazifalarga (topshiriqlarga) turli yondashish mumkin va har xil yechimlar taklif qilinishi mumkin
O‘quvchilar asosan individual ishslashadi	O‘quvchilar asosan juft-juft bo‘lib va guruhlarda ishslashadi
O‘quvchilarning boshqa fanlardan olgan bilimlari va hayotiy tajribasi odatda hisobga olinmaydi	O‘quvchilarning boshqa fanlardan olgan bilimlari faollashtiriladi , ularning hayotiy tajribasiga suyaniladi

Adabiyot ko‘ngildan paydo bo‘lib, ko‘ngillarga singadi. Biz nimaniki o‘ylamaylik, bajarmaylik, buning negizini ma’naviyatga bog‘lab tushunadigan xalqımız. Qalbimizdagi ana shu yuksak ma’naviy kuchning anglanishi, tanlanishi va hayotda o‘zini namoyon etishiga ona tilimiz va milliy adabiyotimiz betimsol quvvat baxsh etadi. Aslida ham o‘z hayotini umummilliy qarashlar tizimi asosida barpo etgan, ajdodlardan meros muqaddas buloqlardan suv ichib, tomir yozgan avlodlarni esa hech qanday kuch yengolmaydi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. An’anaviy ta’lim nima?
2. Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizmga asoslangan ta’lim...
3. Sintez jarayoni.....
4. Badiiy asarning muhim jihatlari?

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Lutfullayeva D., Qurbonova M. Bolalar nutqiga xos deyktik birliklarning fonopragmatik tahlili. O‘zbek tili va adabiyoti. 2013. - №6. - B.22-27
2. Marchman, V.A., and Dale, P., S. (2017) Assessing Receptive and Expressive Vocabulary in Child Language. Research Methods in Psycholinguistics and the Neurobiology of Language. John Wiley & Sons, Inc. 2018. Pp. 40-68.
3. Qurbonova M. O‘zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi. Toshkent, 2014.
4. Robinson, P. (Ed.) Individual Differences and Instructed Language Learning. John Benjamins Publishing Company. Amsterdam/Philadelphia. 2002.
5. Азимова И. “Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи”. Монография. Тошкент, 2019. 160 б.

3-AMALIY MASHG'ULOT:

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI FANLARINI O'QITISHDA XALQARO STANDARTLAR

REJA:

- 1. Milliy adabiy ta'limining xos xususiyatlari*
- 2. Milliy adabiy ta'limning tanqidiy tahlili*
- 3. Xorij adabiy talimidagi yetakchi konsepsiylar*
- 4. Adabiyot o'qitishda xalqaro standartlar*

Tayanch so'zlar: Ta'lim, xalqaro standart, metodika, zamonaviylik, an'anaviylik, adabiy ta'lim, jahon strategiyalari.

“Milliy va xorij adabiy ta'limining qiyosiy tahlili” mavzusi orqali tinglovchilar OTM va umumo'rta ta'lim tizimida milliy va jahon adabiy ta'limining mazmuni, ilmiy-metodologik asoslari, o'quv dasturlaridan tortib o'qitish usullarigacha bo'lgan jarayonlarning tanqidiy tahlili bilan tanishadilar. Tinglovchilarni an'anaviy va konstruktivizm ta'limga xos yondashuvlarning individual xususiyatlari, jahon adabiy ta'limining taraqqiyoti, o'qitishning xalqaro standartlari kabi masalalar bilan tanishtirish ham mazkur kurs maqsadiga kiradi.

Ta'limni individuallashtirish va personallashtirish masalalari, ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi, “talaba (o'quvchi) – faol” yondashuvi, kitobxon javobi (retseptiv yestetika) nazariyasi. Interfaol metodlardan foydalanish ta'limni faqat fanlar asosida emas, balki obyektiv ochunning o'zidagi kabi sinkretik yo'sinda tashkil etishni ko'zda tutadi. Bunda o'rganuvchi va o'rgattuvchi o'quv fani tushunchasidan baland turishi talab etiladi. O'qituvchi-professor talabalar oldiga ularni o'rab turgan real borliqdagi haqiqiy muammolarni qo'yishi, buning uchun hayotda ko'p uchraydigan va manbalardan topish mumkin bo'lgan masalalarni didaktik topshiriq sifatida berishi kerak. Agar bu xildagi muammolarni

talabalarning o‘zлari tavsiya etsalar, yanada yaxshi bo‘ladi. O‘quvchilarning oldiga qo‘yilayotgan muammo o‘ylab topilgan sun’iy yoki izlanishga arzimaydigan darajada kichik bo‘lmасligi kerak.

O‘zbek adabiyoti ta‘limi mazmunida uzviylik va uzlusizlikni ta‘minlash — murakkab va keng qamrovli muammolardan. Shu bois bu borada yanada samarali natijalarni qo‘lga kiritish uchun, avvalo, xorijiy tajriba asosida uning ilmiy va metodik asoslarini yaratish lozim. Bugun maktablarimizda adabiyot ta‘limida ko‘proq shaklga e’tibor berilayotgani kuzatilmoqda.

O‘zbek adabiyoti ta‘limida mazmuniy uzviylikni ta‘minlashda tabiiyki, o‘quv-uslubiy adabiyotlar, darsliklar sifatini yaxshilash, adabiyot fanidan beriladigan bilimlarning bosqichlararo uzlusizligini ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, o‘quvchi-talabalarning yosh xususiyatini ham hisobga olish zarur. Ushbu masalaning samarali yechimlari — adabiyot fanlarini integrasiyalash va uzviylikka yordam beradigan o‘qitish turlarini aniqlashda ham aks etadi. Oldingi faslda ko‘rganimizday, xorijda adabiyot o‘qitilishining bizdan farq qiladigan bir qancha jihatlari mavjud. Shulardan biri – adabiyot o‘qitish metodikasida badiiy matn bilan ishlashning muayyan bosqichlari (asarni o‘qishdan oldin, o‘qish davomida va o‘qishdan keyin) mavjudligi. Har bir bosqichning o‘z maqsadi va uslublari bor. O‘qishdan oldingi mashqlar o‘quvchini asarga qiziqtirish, asar mazmunini tushunishga tayyorlashga xizmat qilsa, o‘qish davomida bajariladigan mashqlar bevosita badiiy matnni tushunish – tahlil qilishga qaratiladi. Bunda asar tahlili faqat syujetni qayta hikoyalash bilan cheklanmaydi. O‘qishdan keyingi mashqlar esa asar ustida chuqur mushohada yuritish, adabiyotning, san‘atning boshqa turlari, boshqa fanlar va o‘quvchi hayoti bilan aloqasini ta‘minlash, o‘quvchida og‘zaki va yozma nutqni, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga qaratiladi. Yana bir muhim xususiyat: adabiyot darsliklarida – asar haqidal degan bo‘lim berilmaydi, balki savol va topshiriqlar vositasida o‘quvchining asarga o‘z munosabati shakllantiriladi.

Nazarimizda, bugun o‘zbek adabiyoti ta‘limida adabiyot faqat adiblar haqidagi ma‘lumotlarni va asar syujetidagi detallarni eslab qolish bilan chegaralanib qolyapti. Bunda Davlat test markazining ham hissasi katta: – Anbar otin kimning jiyani? – Uloqda hikoyasida bosh qahramon tuya minganmidi yoki eshak? singari sayoz, odamning tafakkuri va tasavvurini yuksaltirmaydigan, aksincha, badiiy didi va saviyasiga zang tushiradigan bunday savollar o‘quvchilarda – adabiyot, asar o‘qish, tahlil qilish faqat shunday ikirchikirlarni esda saqlashdan iboratl degan munosabatni shakllantirdi. Bunday munosabatni o‘zgartirish, o‘quvchini asar ustida mushohada yuritishga qaytarish uchun nainki olimlar, ijodkorlar, balki muallimlar, ziyolilar, umuman, keng jamoatchilik sa’y-harakatlarini birlashtirish kerak. Shu bilan birga, o‘quvchilar, yoshlar bugun adabiyotni faqat oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun bo‘ladigan test sinovlariga tayyorgarlik nuqtai nazaridan emas, balki o‘z tafakkuri, tasavvuri, didi, saviyasi, umuman, ma‘naviy qarashlarini yuksaltirish maqsadi bilan o‘rganishiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki badiiy adabiyot odam ko‘nglini tarbiyalaydi. Bugungi murakkab globallahuv sharoitida ma‘naviyatimizni izdan chiqarish maqsadida xorijdan o‘zanini yo‘qotgan selday oqib kelayotgan zararli g‘oyalarga qarshi faqat milliy badiiy adabiyotgina milliy immunitet hosil qila olishi mumkin. Chunki adabiyot ko‘ngildan paydo bo‘lib, ko‘ngillarga singadi. Biz nimaniki o‘ylamaylik, bajarmaylik, buning negizini ma‘naviyatga bog‘lab tushunadigan xalqmiz. Qalbimizdagи ana shu yuksak ma‘naviy kuchning anglanishi, tanlanishi va hayotda o‘zini namoyon etishiga ona tilimiz va milliy adabiyotimiz betimsol quvvat baxsh etadi. Aslida ham o‘z hayotini umummilliylar qarashlar tizimi asosida barpo etgan, ajdodlardan meros muqaddas buloqlardan suv ichib, tomir yozgan avlodlarni esa hech qanday kuch yengolmaydi.

Hozirgacha badiiy asar mutolaasi, uni san’at asari sifatida o‘rganishning samarali usullari tahliliga oid ko‘plab salmoqli tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsa-da, ta’limdagi globallahuv va integratsiallashuv jarayonlari bugun kechagi fikrdan-da teranroq, istiqbolli mulohazalar, yangidan yangi qarashlar aks etgan tadqiqotlarni

talab etmoqda. Chunonchi virtual olamda tug‘ilib voyaga yetayotgan yoshlar ongini toza adabiy muhitda shakllantirish harakati nafaqat o‘zbek, balki butun jahon ta’limiga daxldor bo‘lgan global muammoga aylanib ulgurgan. Ta’limi rivojlangan G‘arb mamlakatlarida o‘quvchilarni badiiy asar mutolaasiga qiziqtirish bilan bog‘liq masalalar tadqiqi o‘tgan asrning 90 yillaridanoq boshlangan edi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 30-dekabr kuni ko‘p yillar turli xil sohada tadqiqotlar olib borib, ilm-fan va ishlab chiqarish taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shtigan akademiklar, yetakchi olimlar bilan uchrashuvida nazariya va amaliyot uyg‘unligini yanada mustahkamlash borasidagi dolzarb masalalar, ularni hal qilish yo‘llari haqida ochiq fikrlashib olindi. Eng muhimmi, mazkur uchrashuvda fan va sohadagi mavjud muammolar sabablarini aniqlash, ularning oqilona yechimini izlab topishga alohida e’tibor qaratildi. Aslida ham amaliyotsiz ilm quruq nazariya bo‘lib qolganidek, ilmsiz amaliyot ham maqsadsiz harakatdan boshqa narsa emas. Ilm-fan va amaliyot ettirnoq kabi uyg‘un rivojlansa, millat kelajagi yanada yorqin va porloq bo‘laveradi. Ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot va innovasiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovasiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish bugun ta`lim siaftini oshirishga mas‘ullar oldida turgan qator vazifalardir. Shulardan kelib chiqqan holda aytish joizki, o‘zbek adabiy ta’limida ham xalqaro standartlardan milliy strategik maqsadlarimizga moslarini tanlab, izchil joriy qilish vaqtি yetib keldi. Buning uchun, eng avvalo, o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha standartlar va darsliklarni qayta ko‘rib chiqish zarur.

Rivojlangan mamlakatlarda adabiyot fanini o‘qitish tajribasi tahlil qilinganda quyidagi holatlarni ko‘rish mumkin:

- ta’lim standartlari o‘quvchilarda shakllanishi lozim bo‘lgan fanga oid kompetensiyalarni aniq, obyektiv shaklda belgilab beradi;

- adabiyot faniga oid kompetensiyalar o‘quvchilarning adabiyotshunoslik kategoriyalariiga va badiiy tahlil tamoyillariga tayangan holda asarni tahlil qilish va munosabat bildirishini nazarda tutadi;
- adabiyot fanining san‘atning boshqa turlari (teatr, kino, musiqa, tasviriy san‘at, arxitektura) va boshqa fanlar (ijtimoiy, tabiiy, aniq fanlar) bilan integratsiyasiga katta e’tibor beriladi, shu bilan birga, bu integratsiya adabiyot darslarida aynan adabiyot faniga oid kompetensiyalarni shakllantirishga va o‘rganilayotgan asarni chuqurroq tahlil qilishga xizmat qiladi;
- o‘qituvchilar bir darslikka bog‘lanib qolmay, ta’lim vazirliklari tomonidan tavsiya qilingan bir necha parallel darsliklardan erkin tanlash huquqiga egalar, bu esa pirovardida darslik mualliflari o‘rtasidagi raqobatni rivojlantiradi va darsliklar sifatiga ijobiy ta‘sir qiladi (darsliklarning standarga mosligi qaysi asarlarni o‘z ichiga olishi bilan emas, standartda belgilangan kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi);
- variativlik tamoyiliga amal qilinadi: o‘quvchilar o‘qishi uchun tavsiya qilingan mualliflar va asarlar ro‘yxati shakllantiriladi va o‘qituvchi tavsiya qilingan ro‘yxatdagi adiblar va asarlarni o‘quvchilarining qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda o‘zi tanlaydi;
- qaysi asarlarni, qaysi ketma-ketlikda va necha soat hajmida o‘rganish ta‘limni boshqarish organlari tomonidan belgilab berilmaydi, balki o‘qituvchilar tavsiya qilingan asarlar ro‘yxatidan o‘z o‘quvchilarining qobiliyatları, qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olgan holda erkin tanlash imkoniga ega bo‘ladilar (masalan, AQSH mакtablarining 10-sinfı uchun chiqarilgan bir adabiyot darsligida Shekspirning “Makbet” asari kiritilgan bo‘lsa, boshqasida “Hamlet” asari, yana boshqasida “Yuliy Sezar” asari kiritilganini ko‘rishimiz mumkin);²⁴

²⁴ Sonja Pfister Darlington. Literature as visual response and aesthetic experience: An alternative approach. A Dissertation Submitted to the Graduate Faculty in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Doctor of Philosophy. Iowa State University. USA, Iowa, 1990 2

- asarlarni o‘rganishda asosiy maqsad o‘rganiladigan asarlar soniga emas, balki asarni chuqur tahlil qilish orqali standartda belgilangan adabiyotga oid kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratiladi, shu sababli asarlar to‘liq (parcha shaklida emas) o‘rganiladi;
- standartda belgilangan kompetensiyalarni shakllantirish uchun nafaqat milliy adabiyot, balki jahon adabiyotining, turli millatlar, davrlar va madaniyatlar (Yevropa, Osiyo, Amerika, Lotin Amerikasi, Afrika, Avstraliya) adabiy namunalaridan keng foydalaniladi; - baholash va test tizimidagi savol va topshiriqlar adib hayotiga va ijod yo‘liga oid yoxud asar syujetiga oid ayrim fakt va detallarning qay darajada eslab qolinganligini emas, balki standartda belgilangan kompetensiyalarning shakllanganligini asarlar tahlili orqali tekshirishga qaratilgan bo‘ladi, bunda tahlil qilinishi lozim bo‘lgan matn o‘quvchining savollar kitobida berilgan bo‘ladi. Misol uchun, adabiyot fani fani orqali o‘quvchilarda quyidagi adabiyot faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish maqsad qilinishi mumkin:
- Asarning qaysi tur va janrga mansubligini aniqlay oladi va tushuntirib beradi;
- asardagi asosiy va ikkilamchi g‘oyalarini tushunadi, asarda ko‘tarilgan muammolarga o‘z munosabatini bildiradi; - Asardagi ochiq aytilgan fikrlarni va tagma‘nolarni ilg‘aydi, asardan xulosalar chiqara oladi va bu xulosalarini asoslab bera oladi;
- Asarning syujetini tushunadi, syujet elementlarini (ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim) ajrata oladi va asarning qurilishiga munosabat bildira oladi;
- Asarning badiiy xususiyatlarini (asarda qo‘llanilgan badiiy vositalarni) tahlil qila oladi, ularning o‘quvchiga ta’siri haqida fikr bildira oladi;
- Asardagi obrazlar tizimini tahlil qila oladi;
- Badiiy adabiyot va san’atning boshqa turlari o‘rtasidagi bog‘liqlar va farqlarni tushunadi;

Asarning adabiy-tarixiy kontekstdagi ahamiyati haqida fikr bildira oladi. Yurtimiz rahbariyati adabiyotni o‘itishni tubdan yaxshilash, kitobxonlik madaniyatini o‘stirish, yoshlarni milliy va jahon adabiyotining sara namunalari bilan tanishtirish singari yuksak vazifalarni oldimizga qo‘yar ekan, fikrimizcha, bu vazifalarni amalga oshirish uchun ta’lim muassasalarida adabiyot fanini o‘qitishga bo‘lgan munosabatni jahonning ilg‘or tajribasidagi milliy tutumlarimizga, milliy tafakkur va dunyoqarashimizga mos jihatlarga tayangan holda tubdan qayta ko‘rib chiqish, bunda bir asarni boshqasiga almashtirish orqali emas, prinsipial yondashuvni o‘zgartirish orqali sifat o‘zgarishiga erishmog‘imiz lozim.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Qaysi nazariyalar rivojlangan davlatlar mакtab ta’limida asosiy yondashuv sifatida muvaffaqiyatli qo‘llanilayapdi?
2. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar mакtab ta’limida asosiy yondashuv hisoblangan nazariyalarning eng asosiy g‘oyalari qaysilar?
3. Quyidagi fikr kimga tegishli?
4. Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalari asosida ta’limda Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalari asosida ta’limda “o‘quvchi – faol” yondashuvi (student-centered learning) nima yuzaga kelgan?
5. Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizmga asoslangan ta’limga xos belgilari qaysi?

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirzayeva Z, Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Ana’aviylikdan zamonaviylikka. Toshkent, 2020.
2. Елена Станиславовна Романичева, Ирина Витальевна Сосновская. Введение в методику обучения литературе. Москва: Флинта, 2015.

10. Jack Snowman and Rick McCown. Psychology Applied to Teaching. Stamford: Cengage Learning, 2015.
11. Lutfullayeva D., Qurbonova M. Bolalar nutqiga xos deyktik birliklarning fonopragmatik tahlili. // O‘zbek tili va adabiyoti. 2013. - №6. - B.22-27
12. Marchman, V.A., and Dale, P., S. (2017) Assessing Receptive and Expressive Vocabulary in Child Language. Research Methods in Psycholinguistics and the Neurobiology of Language. John Wiley & Sons, Inc. 2018. Pp. 40-68.
13. Qurbonova M. O‘zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi. Toshkent, 2014.
14. Robinson, P. (Ed.) Individual Differences and Instructed Language Learning. John Benjamins Publishing Company. Amsterdam/Philadelphia. 2002.
15. Азимова И. “Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи”. Монография. Тошкент, 2019.

4-AMALIY MASHG‘ULOT: BADIY ASAR TAHLILIGA KONSTRUKTIV YONDASHUV

REJA:

1. Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalari
2. Ta’limda “o‘quvchi – faol” yondashuvi
3. Mutolaa jarayonining ilmiy-nazariy asoslari
4. Badiiy matn mutolaasiga xos xususiyatlar
5. “Kitobxon javobi” nazariyasi

Bugun adabiyot o‘qitish metodiksiga kechagi mezonlar asosida yondashib bo‘lmaydi. Xususan, zamonaviy o‘zbek adabiyoti ham shakl, ham mazmun jihatdan rivojlanib, sharq va g‘arb adabiy tafakkuri, tajribasiga asoslangan o‘ziga xos

badiiy asar namunalari yaratilmoqda. Bunday asarlar mohiyatini turli xil rakurslardan tahlil qilish, san'at darajasiga olib chiqish uchun endi ta'limning an'anaviy qarashlaridan tashqari, jahon adabiy ta'limining ibratli nazariyalari asosida shakllangan “mavzuga asoslangan” yondashuv, “talaba faol” yondashuvi, “yeklektik” yondashuvlardan foydalanib milliy adabiy ta'limni yuqori bosqichga olib chiqish lozim. Tinglovchilar “Adabiyot o'qitishga sinkretik yondashuv” mavzusi orqali jahon adabiy ta'limiga xos sinkretik yondashuvlarning milliy ta'limga tadbiq etish tajribasiga ega bo'ladilar.



Faollashiruvchi topshriq.

Guruhlarda ishlang. Maktabda yoki maktabdan tashqarida biron-bir tushunchani yoki ko'nikmani qanday o'rganganingizni eslang. Sizningcha, bu tajribada qanday omillar o'rganish jarayoniga yordam bergen yoki aksincha, jarayonni qiyinlashtirgan?

Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalari

Hozirga qadar badiiy asar mutolaasi, uni san'at asari sifatida o'rganishning samarali usullari tahliliga oid ko'plab salmoqli tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, ta'limdagi globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari bugun kechagi fikrdan-da teranroq, istiqbolli mulohazalar, yangidan yangi qarashlar aks etgan tadqiqotlarni talab etmoqda. Chunonchi, virtual olamda tug'ilib voyaga yetayotgan yoshlar ongini toza adabiy muhitda shakllantirish harakati nafaqat o'zbek, balki butun jahon ta'limiga daxldor bo'lgan global muammoga aylanib ulgurgan. Ta'limi rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarni badiiy asar mutolaasiga qiziqtirish bilan bog'liq masalalar tadqiqi o'tgan asrning 90 yillaridanoq boshlangan edi.²⁵ Xalqaro miqyosdagi tajribali olimlar, pedagoglar o'quvchini badiiy asar o'qishga rag'bat

²⁵ Darlington Sonja Pfister. *Literature as Visual Response And Aesthetic Experience: An Alternative Approach. A Dissertation Submitted to the Graduate Faculty in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Doctor of Philosophy.* Iowa: Iowa State University, 1990.

uyg'otishning ko'plab samarali usullari **konstruktivizm** va **ijtimoiy konstruktivizm nazariyalariga** hamda **pragmatik yondashuvga** asoslanishini ta'kidlaydilar.

Konstruktivizm va **ijtimoiy konstruktivizm** nazariyalari rivojlangan davlatlar maktab ta'limida asosiy yondashuv sifatida muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan nazariyalardir. Bu nazariyalarning eng asosiy g'oyalari quyidagicha:

- o'quvchilar bilimni tayyor holda, passiv qabul qilmasliklari kerak;
- bilimlar ta'lim jarayonida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish o'quvchilar tomonidan “yaratilishi”, “kashf qilinishi” lozim;
- bunda o'quvchilarning o'zaro muloqoti muhim rol o'yndaydi.

Ushbu nazariyalarga ko'ra, darsning maqsadi ma'lumotlarni o'quvchilarga singdirish emas, balki ularga bilimni o'zлari hosil qilishlariga (yaratishlariga, kash qilishlariga) imkon yaratib berishdir. O'qituvchining vazifasi esa tayyor bilimlarni bolalarga yetkazib berish, so'zlab berish emas, balki o'quvchilarning faoliyatini tashkil qilish va to'g'ri yo'naltirishdan iborat bo'ladi.

“

MUHIM IQTIBOS

Maktabning asosiy vazifasi – oldingi avlodlar yaratgan narsalarni shunchaki qaytarish emas, balki o'zлari yangi narsalar yaratishga, kashfiyotlar qilishga qodir, kreativ, tanqidiy fikrlay oladigan shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir.

(Jan Piaje, “Rivojlanish va o'r ganish”, 1965-yil)



XX asrning taniqli pedagog va psixolog olimi, konstruktivizm nazariyasining asoschilaridan biri Jan Piajening yuqorida keltirilgan fikrlarini qanday tushundingiz? “O'zлari yangi narsalar yaratishga, kashfiyotlar qilishga qodir” shaxslarni tarbiyalash uchun nimalar

qilmoq kerak, deb o‘ylaysiz?

Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalariga ko‘ra, o‘rganish jarayoni – bu shaxsiy tajriba va ijtimoiy muhit ta’siri ostida **yangi bilim** hosil qilish va bu yangi bilimni **mavjud** bilimlar bilan bog‘lash jarayonidir. Demak, o‘rganish jarayoni samarali bo‘lishi uchun u o‘quvchida mavjud bilimlar asosida qurilishi lozim.

Bu jarayon faol muloqotga asoslangan bo‘lib, unga quyidagi omillar ta’sir qiladi:

- o‘rganuvchida mavjud bilim va tajriba, uning dunyoqarashi va qadriyatları;
- ijtimoiy muhit;
- o‘rganish muhiti: o‘rganish jarayonidagi qiyinchiliklar va o‘zgalarning (o‘qituvchining, tengdoshlarning) qo‘llab-quvvatlashi, yordami.

Yangi bilimni o‘zlashtirish jarayoni samarali bo‘lishi uchun u o‘quvchida mavjud bilimlarga asoslanishi kerak: o‘quvchi o‘rganish jarayonida yangi bilimlarni mavjud bilimlarga moslashtiradi (bu jarayon “assimilyatsiya” deyiladi) va mavjud bilimlarni yangi bilimlar asosida qayta ko‘rib chiqadi (bu jarayon “akkomodatsiya” deyiladi).

Misol uchun, o‘quvchi kitning rasmini ko‘rdi va uni “baliq” deb atadi, chunki uning tasavvurida suvda yashaydian hamma jonivorlar – baliqlar. Bu – assimillyatsiya jarayoniga misol. Keyinroq, tabiiy fanlar darsida kitlar haqida o‘rgangandan so‘ng, uning tasavvuri o‘zgardi – u suvda boshqa turdagи jonivorlar (sut emizuvchilar) ham yashashini bilib oldi. Bu – akkomodatsiya jarayoniga misol.



Assimilyatsiya va akkomodatsiya jarayonlarga adabiyot fanini o‘rganishdan qanday misollar keltirish mumkin?



Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalarining adabiy ta’limga tadbiqi haqida o‘ylab ko‘ring. Sizningcha, ushbu nazariyalar

asosida qurilgan adabiyot darslari qanday bo‘lmog‘i lozim?

Ta’limda “o‘quvchi – faol” yondashuvi

Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalari asosida ta’limda “**o‘quvchi – faol**” yondashuvi (*student-centered learning*) yuzaga kelgan. Ushbu yondashuvning muhim xususiyatlari o‘qitishda o‘rganuvchi faolligini oshirish va ta’lim jarayonlarini individuallashtirishda in’ikos etadi. “O‘quvchi – faol” yondashuvida keraksiz qog‘ozlar, ahamiyatsiz ta’limiy manbalarning kamayishi va eng muhimi – o‘rganuvchilarga allaqachon ma’lum bilimlarni qayta bayon qilish orqali vaqtini bekorga sovurish muammosi bartaraf etiladi.

Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalariga asoslangan ta’limning an’anaviy ta’limdan farqlarini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

An’anaviy ta’lim	Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizmga asoslangan ta’lim
O‘quvchilar asosan o‘qituvchidan va darsliklardan o‘rganishadi	O‘qitish uchun turli materiallardan (plakatlar, real hayotdan olingan obyektlar va hokazo) foydalilanadi
Darsda asosiy rolni o‘qituvchi o‘ynaydi	Darsda o‘quvchilar faol, o‘qituvchi esa o‘quvchilarning faoliyatini tashkil qiladi
O‘quvchilar asosan o‘qituvchidan va darslikdan qaytarishadi	O‘quvchilar turli vazifalarni bajarish o‘rganganlarini va loyihibar ustida ishlash orqali o‘rganishadi
Mashqlar asosan o‘rganilgan Topshiriqlar asosan real hayotda ma’lumotlar	Topshiriqlar asosan real hayotda qoidalarni uchraydigan muammolarni yechishga

mustahkamlashga qaratiladi

qaratilgan

Odatda berilgan vazifalarning Vazifalarga (topshiriqlarga) turlicha (mashqlarning) **yagona to‘g‘ri javobi** yondashish mumkin va **har xil mavjud** yechimlar taklif qilinishi mumkin

O‘quvchilar asosan **individual** O‘quvchilar asosan **juft-juft** bo‘lib va ishlashadi **guruhlarda** ishlashadi

O‘quvchilarning boshqa fanlardan olgan bilimlari va hayotiy tajribasi odatda hisobga **olinmaydi** O‘quvchilarning boshqa fanlardan olgan bilimlari **faollashtiriladi**, ularning hayotiy tajribasiga **suyaniladi**



"O'quvchi – faol" yondashuviga xos muhim xususiyatlar



“O‘quvchi – faol” yondashuvining faol shaxsni tarbiyalashdagi ahamiyati nimada? Qanday strategiyalar ushbu yondashuvni adabiyot darslariga joriy etishga yordam berishi mumkin?

Mutolaa jarayonining ilmiy-nazariy asoslari

Adabiyot darslarida o‘quvchilar asosiy ma’lumotni **mutolaa (o‘qish)** orqali oladilar. O‘qituvchining asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchiga kitob o‘qishni, mutolaani o‘rgatishdir. Shunday ekan, adabiyot o‘qitish metodikasiga xos tamoyillarni tushunish va ularni adabiyot darslarida qo‘llay olish uchun adabiyot o‘qituvchisi birinchi navbatda matn, xususan, badiiy matn mutolaasi jarayonining ilmiy asoslarini tushunishi talab qilinadi.

Mutolaa – o‘ziga xos g‘ayrioddiy jarayon. Mutolaaning nazariy asoslari, kitobxonlik masalasi, kitobxon va matn (har qanday badiiy, ilmiy va publitsistik matn) o‘rtasidagi munosabat haqida O‘zbekistonda va xorijda qator tadqiqotlar yaratilgan²⁶. Lekin milliy metodika yo‘nalishida tadqiq etilgan nazariyalarning aksariyati adabiy ta’lim amaliyotiga tatbiq etilmagan.

O‘quvchi biron-bir matn bilan ishlayotganida uning ongida qanday jarayonlar ro‘y beradi? Bu jarayonlar o‘qilayotgan matnni tushunishga qanday ta’sir qiladi? O‘quvchi shaxsiyati matnni tushunishda rol o‘ynaydimi? Mutolaa jarayonining

²⁶ Niyozmetova R. *Uzlucksiz ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi*. Toshkent: “Fan”, 2007; Qambarova S. *Umumiyo‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirish texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Ph.D) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya*. Toshkent, 2019, va boshqalar; Küçükoğlu H. *Improving Reading Skills Through Effective Reading Strategies*. // *Procedia — Social and Behavioral Sciences*, 70:709–714, January 2013; Dole J. A., Duffy G. G., Roehler L. R. and Pearson P. D. *Moving from the Old to the New: Research on Reading Comprehension Instruction*. // *Review of Educational Research*. 1991, Vol. 61, No. 2, pp. 239–264; Marinaccio J. *The Most Effective Pre-Reading Strategies for Comprehension*. School of Arts and Sciences, St. John Fisher College, 2012, etc

ilmiy asoslarini tahlil qilgan olimlar mazkur savollarga javob topishga uringanlar va mutolaa jarayonlariga oid qarshlarni quyidagicha tasniflaganalar²⁷:

- an’anaviy qarashlar,
- kognitiv qarashlar,
- metakognitiv qarashlar.

Bu qarashlar bevosita psixologiya va pedagogikada yetakchi oqimlar sanalgan **bixevoirizm** va **kognitivizm** nazariyalari ta’siri ostida shakllangan bo‘lib, mutolaa jarayonini shu nazariyalarga tayangan holda tahlil qilishga harakat qiladi.

An’anaviy qarashlar

Mutolaa jarayoni ilmiy tahlilidagi an’anaviy qarashlar XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Amerika va Rossiyada shakllangan hamda psixologiya va pedagogikada yetakchi oqimlardan biriga aylangan **bixevoirizm** nazariyasiga asoslangan.

Bixevoirizm (inglizcha “*behaviour*” – “xatti-harakat, o‘zini tutish” so‘zidan) – psixologiya va pedagogikadagi yetakchi nazariyalardan biri. Ushbu nazariya tarafdarlarining fikricha, o‘rganish – bu passiv jarayon bo‘lib, o‘rganuvchining tashqi ta’sirlarga javoblaridan iborat. O‘rganuvchiga “toza taxtacha” (*tabula rasa*) sifatida qaraladi va ta’lim jarayonining maqsadi tashqi (ijobiy yoki salbiy) ta’sirlar (stimullar) yordamida o‘quvchida kerakli xatti-harakatlarni shakllantirishdan iboratdir.


“An’anaviy qarashlar” tarafdarlarining fikriga ko‘ra, mutolaa – bu **passiv** jarayon bo‘lib, matn o‘quvchi uchun **tashqi ta’sir (stimul)** bo‘lib xizmat qiladi. Ma’no **o‘quvchiga bog‘liq emas**, u o‘quvchidan tashqarida (matnda) mujassam bo‘ladi. Kitobxonning vazifasi esa matn mutolaasi jarayonida mavjud ma’nolarni qabul qilishdan iboratdir. Mutolaa ko‘nikmasi bir qancha **kichik ko‘nikmalardan** iborat (masalan, harflarni tanish, harflarni qo‘sib so‘z yasash, so‘zning grammatik

²⁷Dole J. A., Duffy G. G., Roehler L. R. and Pearson P. D. *Moving from the Old to the New: Research on Reading Comprehension Instruction.* // Review of Educational Research, 1991, Vol. 61, No. 2, pp. 239-264.

shaklini tahlil qilish va hokazo) va bu kichik ko‘nikmalarini o‘quvchida tartib bilan shakllantirish orqali uni mutolaaga, oqilayotgan matnni tushunish va undan ma’no chiqarishga o‘rgatish talab etiladi.

“An’anaviy qarashlar” tarafdorlari mutolaaning “**pastdan-tepaga**” yoki tilga asoslangan modelini ishlab chiqqanlar. Ushbu model mutolaa jarayonini kichik ko‘nikmalar yig‘indisi sifatiga qarashga asoslangan bo‘lib, unga ko‘ra o‘quvchi matn bilan ishlashda harflardan (tovushlardan) so‘zlar, so‘zlardan gaplar, gaplardan abzatslar yasash orqali matndagi ma’noni chiqarishga harakat qiladi. Matn ma’nosini undagi alohida olingan kichkina elementlar (tovushlar, harflar, so‘zlar, gaplar) ma’nolarining avtomatik yig‘indisidan iboratdir va matnni tushunish uchun har bir element ma’nosini tushunish yetarli hisoblanadi. Tushunish jarayonida grafik simvollarni og‘zaki nutqqa aylantirish muhim ahamiyat kasb etadi, ya’ni oquvchi harflar yordamida ifodalangan matnlarni talaffuz qilishi va tinglashlari lozim. O‘quvchilarda ko‘nikma hosil bo‘gach, bu jarayon avtomatlashadi: o‘quvchi matnni ovoz chiqarib o‘qimasa ham “ichida” o‘qiydi va tushunadi.

O‘qishning “pastdan tepaga” (inglizcha “*bottom-up*”) modeli – matnni tushunishda uning eng kichik elementlaridan (bo‘laklaridan) kattaroq elementlariga harakat qilish orqali ma’no chiqarish.



O'qishning "pastdan-tepaga" modeli

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni o'qishga o'rgatish aynan "pastdan-tepaga" modeliga asoslanib tashkil qilingan: o'quvchilarga har bir harfni tanish, uni talaffuz qilish va yozish o'rgatiladi, so'ng shu harf ishtirok etgan bo'g'inlar, so'zlar, gaplar va kichik matnlarni o'qishga o'rgatiladi, bunda o'quvchilardan ovoz chiqarib o'qish so'raladi.



da		di		do'		ad		id		od		o'd
don		do-ri		do'-kon		da-rak						
do'l		da-la		da-ro-mad		da-nak						



Dalada

Mana dala. Dalada don mo'l. Madina dalada
Odil a-ma-ki-ni ko'rди.



1. Non nimadan tayyorlanadi?
2. Odil amaki kombaynda nima o'radi?

30

o/o l l / d d don, dalा



Umumta'limga maktablarining 1-sinf uchun “Alifbe” darsligida o'qishning “pastdan-tepaga” modeli (Toshkent, Respublika ta'limga markazi, 2021-yil)

Shu bilan birga, mutolaa jarayonining an'anaviy qarashlaridagi zaif nuqta – bu o'qish jarayonida o'quvchi shaxsiyatining, uning dunyoqarashi, undagi mavjud bilimlar majmui rolini hisobga olmaslikdir. An'anaviy qarashlarning bu zaif jihatiga javob o'laroq kognitiv qarashlar yuzaga keldi.



Nima uchun o'qish jarayonida o'quvchi shaxsiyatining rolini hisobga olmaslik “an'anaviy qarashlarning zaif nuqtasi” deyilmoqda? O'quvchi dunyoqarashi, undagi mavjud bilimlar majmui singari faktorlarning mutolaa jarayoniga ta'sirini hisobga olmaslik qanday oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin?

NAZORAT SAVOLLARI

1. Assimilyatsiya va akkomodatsiya jarayonlarga adabiyot fanini o'rganishdan qanday misollar keltirish mumkin?
2. Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalarining adabiy ta'limga tadbipi haqida o'ylab ko'ring. Sizningcha, ushbu nazariyalar asosida qurilgan adabiyot darslari qanday bo'lmog'i lozim?
3. “O'quvchi – faol” yondashuvining faol shaxsni tarbiyalashdagi ahamiyati nimada? Qanday strategiyalar ushbu yondashuvni adabiyot darslariga joriy etishga yordam berishi mumkin?
4. XX asrning taniqli pedagog va psixolog olimi, konstruktivizm nazariyasining asoschilaridan biri Jan Piajening yuqorida keltirilgan fikrlarini qanday tushundingiz? “O'zлari yangi narsalar yaratishga, kashfiyotlar qilishga qodir” shaxslarni tarbiyalash uchun nimalar qilmoq kerak, deb o'ylaysiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Darlington Sonja Pfister. *Literature as Visual Response And Aesthetic Experience: An Alternative Approach. A Dissertation Submitted to the Graduate Faculty in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Dotor of Philosophy.* Iowa: Iowa State University, 1990.
5. Niyozmetova R. *Uzluksiz ta’lim tizimida o’zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi.* Toshkent: “Fan”, 2007;
6. Qambarova S. *Umumiy o’rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirish texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Ph.D) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.* Toshkent, 2019, va boshqalar;
7. Küçükoğlu H. *Improving Reading Skills Through Effective Reading Strategies.* // Procedia — Social and Behavioral Sciences, 70:709–714, January 2013;
8. Dole J. A., Duffy G. G., Roehler L. R. and Pearson P. D. *Moving from the Old to the New: Research on Reading Comprehension Instruction.* // Review of Educational Research. 1991, Vol. 61, No. 2, pp. 239-264;
9. Marinaccio J. *The Most Effective Pre-Reading Strategies for Comprehension.* School of Arts and Sciences, St. John Fisher College, 2012, etc
10. Dole J. A., Duffy G. G., Roehler L. R. and Pearson P. D. *Moving from the Old to the New: Research on Reading Comprehension Instruction.* // Review of Educational Research, 1991, Vol. 61, No. 2, pp. 239-264.




KEYSLAR BANKI

Keyslar uchun “keys-stady” metodi asos sanaladi. “Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” — aniq vaziyat, hodisa, “stadi” — o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

Modul bo‘yicha quyidagi keyslarni yechish maqsadga muvofiq sanaladi.

1. Rivojlangan mamlakatlarda adabiyot fanini o‘qitish tajribasi tahlil qilinganda qanday holatlarga duch kelmaymiz?
2. G‘arbda o‘quvchilar bahololanishi?
3. O‘qishdan keyingi bosqichda nimalarga e’tibor qaratiladi?
4. Nima sababdan G‘arbda faqatgina milliy asarlar emas, balki jahonning boshqa mamlakatlarida yaratilgan asarlar ham o‘rganiladi?
5. “O‘qituvchi-faol” yondashuvi qanday bo‘ladi?
6. Qaysi nazariyalar rivojlangan davlatlar muktab ta’limida asosiy yondashuv sifatida muvaffaqiyatli qo‘llanilayapdi?
7. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar muktab ta’limida asosiy yondashuv hisoblangan nazariyalarning eng asosiy g‘oyalari qaysilar?
9. Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalari asosida ta’limda Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalari asosida ta’limda “o‘quvchi – faol” yondashuvi (student-centered learning) nima yuzaga kelgan?
10. Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizmga asoslangan ta’limga xos belgilar qaysi?

VI.GLOSSARIY



GLOSSARIY

Termin	O'zbekcha izohi	Inglizcha izohi
KOMPETENSIYA	- ma'lum bir vazifani adekvat tarzda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nigmalar majmui hamda tajriba.	- the set of knowledge and skills and experience required to perform a particular task adequately.
KONSEPTUAL LIK	- muayan masalaga tizimli yondashuv; ishonchga asoslangan erkin talabchanlik	systematic approach to a particular issue; free demand based on trust
IDROK	-aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni	specific goal-oriented cognitive process
TA`LIM METODLARI	-muayyan pedagogik jarayondan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun bajarish lozim bo'lgan vazifalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan turli-tuman ish usullari va shakllarni o'z ichiga oladi	- includes a variety of methods and forms of work used in the implementation of the tasks that must be performed to achieve the objectives of a particular pedagogical process
BILIM	-shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmuyi.	A set of systematized scientific information about the being, which is reflected in the mind of the person in the form of concepts, schemes, certain images.

AQLIY HUJUM	-guruhdan yangi ijodiy g‘oyalarni to‘plashning instruktor yoki moderator tomonidan boshqarib boriladigan jarayoni. G‘oyalarni ijodiy to‘plashning guruhiy usuli.	The process of gathering new creative ideas in a group, led by an instructor or moderator. A group approach to creatively collecting ideas.
AMALIY ISHLAR METODI	-o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyatda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi usul	A method of developing skills to apply the acquired knowledge in practice
SAVOL-TOPSHIRIQ	-dars jarayonida yoki uyga topshiriq sifatida o‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarga topshiriladigan vazifa. Bu an’anaviy dars uslubida ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Savol-topshiriqlar og‘zaki va yozma amalga oshirilishi mumkin. Kitobda berilgan har bir mavzu so‘ngida mustahkamlash va bilimlarni sinash maqsadida savol va topshiriqlar beriladi. Qolaversa o‘qituvchi qo‘sgimcha savollar berishi ham mumkin.	A task given to students by teachers during the lesson or as homework. This is especially true of traditional teaching methods. Questions can be done orally or in writing. At the end of each topic in the book, questions and assignments are given to reinforce and test knowledge. The teacher can also ask additional questions.
USLUB	- tilning inson faoliyatining muayyan sohasi bilan bog‘liq vazifalarga ko‘ra ajratilishi. Kishilar faoliyatining barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida qo‘llaniladi.	the division of language into tasks related to a particular area of human activity. It is used in communication in all areas of human activity.

DAVLAT TA`LIM STANDARTI	1) ta`lim olish shaklidan qat`iy nazar bitiruvchilar erishishlari zarur bo`lgan ta`lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat; 2)o`quv fani bo`yicha bo`yicha ta`limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat; 3) ta`lim dasturlari mazmunining minimum, o`quvchilar tomonidan bajariladigan o`quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo`yluvchi talablar.	1) the main document determining the level of education that graduates must achieve, regardless of the form of education; 2) the main document determining the final results of education in the subject; 3) the minimum content of educational programs, the maximum amount of educational work performed by students, as well as the requirements for the level of preparation of graduates
DARS	- bevosita o`qituvchi rahbarligida muayyan o`quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta`lim jarayonining asosiy shakli	The main form of the educational process, which is carried out with a specific group of students under the direct guidance of the teacher
DARSLIK	-muayyan fanga doir bilim asoslarini ma`lum tartibda bayon etadigan va yuqori ma`naviy-g`oyaviy, ilmiy uslubiy saviyada yozilgan kitob	A book that describes the basics of knowledge in a particular discipline in a certain order and is written at a high spiritual, ideological, scientific and methodological level.
EKSPOZITSIY	(lot. — ko`rsatish, bayon etish)	(Lat. - to show, to

A	— badiiy adabiyotda qo'llanadigan unsur. Badiiy asar syujetining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, voqealar ro'y beradigan zamon va makon, personajlar to'g'risidagi muallif ma'lumortlari.	describe) - an element used in fiction. One of the components of the plot of the work of art is the author's information about the time and place of the events, the characters.
INTERFAOL METODLAR	-ta`lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta`lim jarayonining markazida ta`lim oluvcho bo'lgan metodlar tushuniladi.	Understands methods that activate learners and encourage independent thinking, which are at the heart of the learning process.
BADIY TAHLIL	- a) ilmiy-filologik; b)o'quv-didaktik singari ikki kata turga bo'linadi. O'quv tahlili tahlilchilar miqdoriga ko'ra a) individuyl, b) guruhiy, d) ommaviy singari turlari mavjud.	a) scientific and philological; b) is divided into two types, such as educational and didactic. There are a number of types of study analysis, depending on the number of analysts: a) individual, b) group, d) public
DASTUR	-biron bir faoliyat, ishning mazmuni va rejasi. O'quv fani mazmunining qisqacha izohi.	any activity, content and plan of work. A brief description of the content of the subject.
ILMIY TADQIQOT	- yangi bilimlarni ishlab chiqarish jarayoni, bilish faoliyati turlaridan biri. Unga ob`yekтивлик, ishonchlilik, aniqlik xos.	The process of production of new knowledge, one of the types of cognitive activity. It is characterized by

		objectivity, reliability, accuracy.
METODIST	-metodika mutaxasisi	methodologist
TA`LIM	-bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta`lim jarayonida ma`lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi	The process of education, skills and abilities, the main means of preparing a person for life and work. In the process of education, information is obtained and education is carried out
METODOLOGIYA	-(metod va logiya so‘zlaridan)- tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi ta`limot. Metodologiya metodlar haqidagi ta`limot yoki yalpi umumiyl bilish metodi deb ham ta`riflanadi	(from the words method and logic) - a system of principles and methods of organization, restoration of theoretical and practical activity of the researcher, as well as the doctrine of such a system. Methodology is also defined as the doctrine of methods or the method of general knowledge
ADABIYOT	-bir xalqning, davrning badiiy, ilmiy filosofikva boshqa asarlari majmuyi. San`atning so‘z, til vositasida badiiy obrazlar yaratuvchi sohasi va shu sohada yaratilgan asarlar majmuyi.	a collection of artistic, scientific, philosophical and other works of a nation, period. The field of art that creates artistic images through words and language, and a

		collection of works created in this field.
METOD	- (yun.metodos-bilish yoki tadqiqot yo‘li, nazariya, ta`limot)-voqealikni amaliy va nazariy egallahash, o‘zlashtirish, o‘rganish bilish uchun yo‘lyo‘riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.	(Greek metodos-way of knowledge or research, theory, doctrine) .
BADIY ADABIYOT	- xayoliy syujet va xayoliy personajlarga ega bo‘lgan barcha asarlar: roman, qisqa hikoya, roman vapyesalar nazarda tutiladi. She`r, shu jumladan so‘zlar, badiiydir, hatto muallif avval sodir bo‘lgan muhabbatini eslasa ham. Bunda badiiylik ustunroq bo‘ladi va turli janrlarda namoyon bo‘ladi.	- a collection of artistic, scientific, philosophical and other works of a nation, period. The field of art that creates artistic images through words and language, and a collection of works created in this field.
METODIKA	- bu baqtin tejash malakasi, o‘quvchi kuchlarini oqilona sarflash, o‘quv materialidagi asosiy va bosh narsani toppish malakasi, jamoa mehnatini tashkil qilish san`ati, bu o‘quvchilardagi xilma-xil individualliklarga tayanadigan ta`sir. (Ribnikova)	(from the words method and logic) - a system of principles and methods of organization, restoration of theoretical and practical activity of the researcher, as well as the doctrine of such a system. Methodology is also defined as the doctrine of methods or the method of general

		knowledge
ADABIYOT O'QITISH METODIKASI	-birinchi navbatda adabiyot o‘qitishning ya`ni adabiy ta`limning maqsadi va mazmuni haqidagi fandir. Bo‘lajak adabiyot o‘qituvchilarining kasbiy shakllanishlari va dastlabki mahorat qirralarini o‘zlashtirishlari uchun imkon beradigan fandir. Bu fan o‘quvchi yoshlarning adabiy rivojidagi o‘ziga xos qonuniyat va qoidalarning anglab yetilishi uchun omil bo‘ladi. Uning o‘bo‘g‘in ekanligi ham kata ahamiyatga ega.qituvchi va o‘quvchi hamkorligining asoslarini tushunishda muhim	a collection of artistic, scientific, philosophical and other works of a nation, period. The field of art that creates artistic images through words and language, and a collection of works created in this field.
KOGNITIVIZM	(inglizcha <i>cognitivism</i> , lotincha “ <i>cognoscere</i> ” – “ <i>bilmoq</i> ” so‘zidan) – psixologiya va pedagogikadagi yetakchi nazariyalardan biri bo‘lib, o‘rganish jarayonlarida o‘quvchi faolligiga e’tibor qaratiladi.	(English cognitivism, from the Latin “ <i>cognoscere</i> ” - “to know”) is one of the leading theories in psychology and pedagogy, focusing on student activity in the learning process.
BIHEVORIZM	(inglizcha “behavior” – “hatti harakat” so‘zidan) o‘quvchilar bajara olishi lozim bo‘lgan va o‘qituvchi tomonidan kuzatilib, baho beriladigan xatti-harakatlar.	(from the English word “behavior”) actions that students should be able to perform and be observed and evaluated by the teacher.
RESEPTIV	- nemischadan “Rezeptions-	Derived from the

ESTETIKA	Asthetik”, lotinchadan “retseptio” so‘zidan olingan bo‘lib, asarning kitobxon (o‘quvchi) tomonidan qabul qilinishi, badiiy asarni emotsiyonal qabul qilishga yo‘naltirilgan yondashuv.	German word "Receptions-Aesthetics", from the Latin word "receptio", the acceptance of the work by the reader, an approach aimed at the emotional perception of the work of art.
KONSTRUKTIVIZM	- ing. construct- qurish, yaratilish, “kashf qilish degan ma’nolarni bildiradi. Konstruktivizm nazariyasiga ko‘ra, darsning maqsadi ma’lumotlarni o‘quvchilarga singdirish emas, balki ularga bilimni o‘zlari hosil qilishlariga imkon yaratib berishdir. O‘qituvchining vazifasi esa tayyor bilimlarni bolalarga yetkazib berish, so‘zlab berish emas, balki o‘quvchilarning faoliyatini tashkil qilish va to‘g‘ri yo‘naltirishdan iborat bo‘ladi.	ing. construct- means to build, to create, to “discover. According to the theory of constructivism, the aim of the lesson is not to assimilate information to students, but to enable them to generate knowledge on their own. The teacher's job is not to pass on the knowledge to the children, but to organize and direct the students' activities.
ANALIZ	-butunni anglash uchun uni qismlarga ajratishni, qismning butun tarkibidagi mohiyatini, uning boshqa qismlar bilan aloqasi va butunlikning yuzaga chiqishidagi o‘rnini o‘rganishni ko‘zda tutadi	To understand the whole, it means to divide it into parts, to study the essence of the part as a whole, its relationship with other parts and its role in the emergence of the whole.
TAHLIL	- atamasi odatda ilmda “analiz” deb yuritiladigan istilohning	The term is generally understood as a

	sinonimi sifatida tushuniladi	synonym for the term "analysis" in science
DUNYOQARAS H	- anglashda ditermenlashgan obrazlar va shaxs xulq-atvori, qarashlari, e'tiqodi va g'oyalarning tizimi.	Determinant images in understanding and the system of personal behavior, views, beliefs and ideas.
DISKUSSIYA	-tortishuv, suhbat, matbuotda bahsli mavzuni muhokama qilish. Aniq bir muammo bo'yicha fikr almashishga asoslangan o'qitish usuli	dispute, conversation, discussion of a controversial topic in the press. A teaching method based on the exchange of ideas on a specific problem
INDIVIDUAL O'QITISH	- o 'quv jarayoni shakli, modeli bo'lib, unda o'qituvchi bir o'quvchi bilan o'zaro faoliyat yuritadi.	A form of learning, a model in which the teacher interacts with a student.
INDIVIDUAL IK	- shaxsning o'ziga xos xususiyatlari	(Lat. integratio - from the word restoration, replenishment, integer - from the whole word) a concept that describes the state of interdependence of parts and functions of a system or organism, as well as the process leading to such a state. Integration in literary education means ensuring the integration of literature with other forms of art, as well as other

		subjects studied in school.
INTEGRATSIYA	<p>- (lot. integratio — tiklash, to‘ldirish, integer — butun so‘zi-dan) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o‘zaro bog‘liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha. Adabiy ta’limda integratsiya adabiyotni san’atning boshqa turlari, shuningdek, mакtabda o‘rganiladigan boshqa fanlar bilan integratsiyasini ta’milash demakdir.</p>	(Lat. integratio - from the word restoration, replenishment, integer - from the whole word) a concept that describes the state of interdependence of parts and functions of a system or organism, as well as the process leading to such a state. Integration in literary education means ensuring the integration of literature with other forms of art, as well as other subjects studied in school.
OBRAZ	<p>- (badiiy obraz)-voqealikni faqat san`atga xos usulda o‘zlashtirib va o‘zgartirib xarakterlovchi estetik kategoriya. Shuningdek, badiiy asarda ijodiy qayta yaratilgan har qanday voqeal ham obraz deb yuritiladi.</p>	(artistic image) - an aesthetic category that characterizes the event only by mastering and changing it in an artistic way. Also, any event that is creatively recreated in a work of art is also called an image
TAFAKKUR	<p>— inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; ob’yektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur. atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni,</p>	the highest form of human mental activity; the process of reflection of objective reality in the mind.

	voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi.	Tafakkur. is a tool for knowing the environment, social events, reality, as well as a basic condition for the implementation of human activities.
TUSHUNCHA	- narsa va hodisalarining muhim xususiyatlari, aloqalari va munosabatlarini aks ettiruvchi tafakkur shakli	the highest form of human mental activity; the process of reflection of objective reality in the mind. Tafakkur. is a tool for knowing the environment, social events, reality, as well as a basic condition for the implementation of human activities.
BADIY ADABIYOT	- xayoliy syujet va xayoliy personajlarga ega bo‘lgan barcha asarlar: roman, qisqa hikoya, roman vapyesalar nazarda tutiladi. She`r, shu jumladan so‘zlar, badiiydir, hatto muallif avval sodir bo‘lgan muhabbatini eslasa ham. Bunda badiiylik ustunroq bo‘ladi va turli janrlarda namoyon bo‘ladi.	a form of thinking that reflects the important features, connections and relationships of things and events
POZITSIYA	-(lot.posito-holat, vaziyat)- biron bir masala yuzasidan bildirilgan fikr, nuqtai nazar, dalil voqeа , hodisaning muayyan bahosi; shu bahoga muvofiq amalga oshirilgan	- (lot.posito-situation, situation) - an opinion, point of view, evidence of an event, a certain assessment of an event; behavior performed in

	xatti-harakat.	accordance with this price.
KONFLIKT	-(lot.conflictue-ixtilof, to‘qnashish)-qarshi tomonlar, fikrlar, kuchlar to‘qnashuvi. Badiiy asarda qo‘llaniladigan mohiyatlardan biri.	(lot.conflictue-conflict, conflict) - a conflict of opposing parties, opinions, forces. One of the meanings used in a work of art.
SYUJET	-(frans.-predmet, mazmun, narsa)-badiiy asar mazmunini tashkil etadigan bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqlikda kechadigan, qahramonlar o‘rtasidagi aloqalardan tarkib topgan voqealar tizimi	- (French - object, content, thing) - a system of interconnected, interconnected events that make up the content of the work of art

VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI



ADABIYOTLAR RO 'YXATI:

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Мирзиёев Ш.М. Нияти улугъ халқнинг иши ҳам улугъ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – 400 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2020. – 400 б.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февраль “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида”ги 4947-сонли Фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрель “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли Қарори.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрь “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5544-сонли Фармони.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябр “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-5850-сон Фармони.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрь “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгacha ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони

III. Maxsus adabiyotlar

1. Zunnunov A. va bq. Adabiyot o‘qitish metodikasi, -T.: “O‘qituvchi”, 1992.
2. Yo‘ldoshev Q. va bq. Adabiyot o‘qitish metodikasi. -T.: 1994.
3. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T.: “O‘qituvchi”, 1997.

4. Mirzayeva Z, Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi. An’anaviylikdan zamonaviylikka. Toshkent. 2020.
5. To‘xliev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. -T.: “Yangi asr avlodi”, 2010.
6. Husanboeva Q. Tahlil – adabiyotni anglash yo‘li. –T.: “Muharrir”, 2013.
7. Husanboeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T.: “Barkamol Fayz-Media”, 2020.
8. Alatis, James E. *Linguistics and the Education of Language Teachers: Ethnolinguistic, Psycholinguistic, and Sociolinguistic Aspects*. Georgetown University Round Table On Languages and Linguistics (Series); Georgetown University Press 1995.
9. Andrews, S. *Teacher language awareness*. Cambridge University Press. 2007.
10. Friend, M., & Keplinger, M. (2003). An infant-based assessment of early lexicon acquisition. *Behavior Research Methods, Instruments, & Computers*, 35, 302–309.
11. Hoff, E. (2003). The specificity of environmental influence: Socioeconomic status affects early vocabulary development via maternal speech. *Child Development*, 74, 1368–1378.
12. Marchman, V.A., and Dale, P., S. (2017) Assessing Receptive and Expressive Vocabulary in Child Language. *Research Methods in Psycholinguistics and the Neurobiology of Language*. John Wiley & Sons, Inc. 2018. Pp. 40-68.
13. Kumaravadivelu, B. Beyond Methods: Macrostrategies for Language Teaching. Yale University Press. 2003.
14. Richards, J. *Approaches and Methods in Language Teaching* (3rd edition), with Ted Rodgers. Cambridge: Cambridge University Press. 2014.
15. Azimova I., Mavlonova K., Kuldasheva S., Tursunov Sh. O‘zbek adabiy tili:amaliy qo‘llanma. Toshkent, 2019. 158 b.
16. Azimova I. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi (Til ta’limiga oid fanlar moduli) Услубий қўлланма. Тошкент: “ҲИЛОЛ-НАШР”, 2020. 96 б.

IV.Elektron ta’lim resurlari

1. <http://lex.uz>
2. <http://lib.bimm.uz>
3. <http://natlib.uz>
4. <http://ziyonet.u>

VIII.TAQRIZLAR



Aiisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ulaning malakasini oshirish tarmoq markazi "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi kursi o'quv dasturi va o'quv uslubiy majmuasiga

TAQRIZ

Qayta tayyorlash va malakani oshirish kurslarining asosiy maqsadi ta'lim sifatini yanada oshirish, ta'lim jarayoniga yangi ta'lim texnologiyalarni, ayniqsa noan'anaviy ta'lim metodlarini joriy etish, jahonning yetakchi oliy ta'lim dargohlarida erishilgan yutuq va tajribalarni o'zlashtirishdan iborat.

Shu ma'noda "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi uchun tayyorlangan o'quv dasturi va o'quv uslubiy majmuasi yuqorida sanab o'tilgan maqsad-vazifalarni to'liq qamrab olgan deyish mumkin.

"Kursning maqsad va vazifalari" qismida asosiy vazifa tarzida pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish, maxsus fanlar sohasidagi o'qitishning zamонавији usullari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish kabilarning belgilanishi diqqatga sazovordir.

O'quv dasturining 1-moduli "Lingvodidaktika" deb nomlangan. 1.1-qismida fan, fanning mohiyati, qamrovi va o'rganilish usullariga to'xtalingan. Fanning mazmuni lingvodidaktika fanining asosiy masalalari, til ta'limida innovatsion metodika, til o'zlashtirishning ijtimoiy-siyosiy va psixololingvistik omillari, til o'zlashtirishdagi muammolar, kompyuter lingvodidaktikasi kabi mavzular doirasida tushuntirilgan.

2-modul "Jadid pedagogikasi" modulida jadid pedagogikasi shakllanishining ijtimoiy-tarixiy, ma'rifiy-didaktik hamda metodik-texnologik omillari, jadid maktablarining takomil bosqichlari va tugatilish, "usuli jadid" va "usuli qadim" o'rtaqidagi kurash va uning milliy metodika rivojiga ta'siri, zamонавији milliy oliy ta'lim g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, usuli jadid maktablari rivojining hududiy o'ziga xosligi kabi mavzular doirasida modul mazmuni yoritilgan.

3-modul "Filologik ta'lim va innovatsiya" 8 ta mavzu doirasida yoritilgan: oliy o'quv yurtlarida adabiyot o'qitishning maqsadi, vazifalari va mazmuni hamda ularni innovatsion yondashuv talablariga muvofiq takomillashtirish yo'llari, jahon adabiy ta'limidagi konstruktivizm, bixevorizm, gumanizm kabi yangicha yondashuvlar, talabalarni adabiyot saboqlarida kreativ fikrlashga o'rgatish yo'llari, badiiy matn bilan ishlashning interfaol usullari, filologlarda kreativ kompetentlilikni shakllantirish kabi mavzular orqali fanning mazmun-mohiyati yoritilgan.

O'quv kursi so'ngida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, shuningdek, mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha muhim ko'rsatma va tavsiyalar o'rinn olgan. O'quv dasturi va o'quv uslubiy majmuasini tuzishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati o'zbek olimlari qatori dunyodagi taniqli soha mutaxassislarining asarlari, shuningdek, sohaga oid internet saytlaridan foydalanilganligi ham mazkur dastur va majmuaning mukammalligini ta'minlovchi omillardandir. Xulosa qilib aytganda "O'zbek tili va adabiyoti" o'quv dasturi va o'quv uslubiy majmuasini ta'lim jarayoniga tatbiq etish mumkin.

Taqrizchilar:

P.f.d., prof. Q.Yo'ldoshev

F.f.d., prof. B.To'xliyev

Alisher Navoly nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi kursi o'quv dasturi va o'quv uslubiy majmuasiga

TAQRIZ

Qayta tayyorlash va malakanı oshirish kurslarining asosiy maqsadi ta'lif sifatini yanada oshirish, ta'lif jarayoniga yangi ta'lif texnologiyalarni, ayniqsa noan'anaviy ta'lif metodlarini joriy etish, jahoning yetakchi oliy ta'lif dargohlarida erishilgan yutuq va tajribalarni o'zlashtirishdan iborat.


Shu ma'noda "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi uchun tayyorlangan o'quv dasturi va o'quv uslubiy majmuasi yuqorida sanab o'tilgan maqsad-vazifalarni to'liq qamrab olgan dcyish mumkin.

"Kursning maqsad va vazifalari" qismida asosiy vazifa tarzida pedagoglarning ijodiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish, maxsus fanlar sohasidagi o'qitishning zam'onaviy usullari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish kabilarning belgilanishi diqqatga sazovordir.

O'quv dasturining 1-moduli "Lingvodidaktika" deb nomlangan. 1.1- qismida fan, fanning mohiyati, qamrovi va o'rganilish usullariga to'xtalingan. Fanning mazmuni lingvodidaktika fanining asosiy masalalari, til ta'lifida innovatsion metodika, til o'zlashtirishning ijtimoiy-siyosiy va psixololingvistik omillari, til o'zlashtirishdagi muammolar, kompyuter lingvodidaktikasi kabi mavzular doirasida tushuntirilgan.

2-modul "Jadid pedagogikasi" modulida jadid pedagogikasi shakllanishining ijtimoiy-tarixiy, ma'rifiy-didaktik hamda metodik-texnologik omillari, jadid mакtablarining takomil bosqichlari va tugatilish, "usuli jadid" va "usuli qadim" o'rasisidagi kurash va uning milliy metodika rivojiga ta'siri, zam'onaviy milliy oliy ta'lif g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, usuli jadid mакtablari rivojining hududiy o'ziga xosligi kabi mavzular doirasida modul mazmuni yoritilgan.

3- modul "Filologik ta'lif va innovatsiya" 8 ta mavzu doirasida yoritilgan: oliy o'quv yurtlarida adabiyot o'qitishning maqsadi, vazifalari va mazmuni hamda ularni innovatsion yondashuv talablariga muvosiq takomillashtirish yo'llari, jahon adabiy ta'lifidagi konstruktivizm, bixevorizm, gumanizm kabi yangicha yondashuvlar, talabalarni adabiyot saboqlarida kreativ fikrashga o'rgatish yo'llari, badiiy matn bilan ishlashning interfaol usullari, filologlarda kreativ



kompetentlilikni shakllantirish kabi mavzular orqali fanning mazmun-mohiyati yoritilgan.

O'quv kursi so'ngida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, shuningdek, mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha muhim ko'rsatma va tavsiyalar o'rinni olgan. O'quv dasturi va o'quv uslubiy majmuasini tuzishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati o'zbek olimlari qatori dunyodagi taniqli soha mutaxassislarning asarlari, shuningdek, sohaga oid internet saytlaridan foydalanilganligi ham mazkur dastur va majmuuning mukammalligini ta'minlovchi omillardandir. Xulosa qilib aytganda, "O'zbek tili va adabiyoti" o'quv dasturi va o'quv uslubiy majmuasini ta'lim jarayoniga tatbiq etish mumkin.

* Necati Demir
G'azi universiteti professori, filologiya fanlari doktori



Gazi Üniversitesi
Gazi Eğitim Fakültesi
Türkçe Eğitimi Ana Bilim Dalı-Ankara
necatidemir522@gmail.com
Tel: 0312 2021809

